

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK

NURULLAYEVA SARVINOZ MAJIDOVNA

**MODERNISTIK ROMANLARDA
ILOHIY-IRFONiy G`OYALARNING BADIiy SINTEZI**

5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar: Sh.A.Hayitov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro – 2015

**БухДУ филология факультети ўзбек филологияси кафедрасида ўтказилган
2-йиғилиш
БАЁННОМАСИ**

**Бухоро шаҳри
12сентябрь**

2013

йил

Раис – Д.С.Ўраева

Котиба – Г.Самандарова

Қатнашдилар: кафедранинг 23 аъзоси

К у н т а р т и б и:

5-масала. 2013-2014 ўқув йилида 1-босқич магистрларга илмий раҳбарлар белгилаш ва мавзуларини тасдиқлаш.

ЭШИТИЛДИ:

Йиғилиш кун тартибидаги масала юзасидан кафедра мудири вазифасини бажарувчи, ф.ф.д. И.М.Ғаниев қисқача ҳисобот берди.

Д.С.Ўраева: 2013-2014 ўқув йилида кафедрамиз профессор-ўқитувчиларидан Б.Э.Қиличев, Д.Йўлдошева, Д.Ўраева, С.Назарова, Ғ.Муродов, Б.Жўраева, М.Абузалова, Ш.Ҳайитов, Ҳ.Сафарова, Ш.Аҳмедоваларга магистрлик диссертацияларига илмий раҳбарлик қилиш учун соат ажратилган. Улар магистрлик диссертацияси учун 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) ҳамда 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши бўйича учтадан мавзу тавсия этдилар.

Янги ўқув йили учун мўлжалланган магистрлик диссертациялари мавзулари рўйхати белгиланган тартибда тузилди. Мавзуларнинг долзарб, такрорланмаган, кафедрада тузилган махсус комиссия уларни текшириб чиқди.

Шундан кейин магистрлик диссертацияси мавзулари рўйхати йиғилиш котибаси томонидан ўқиб берилди. Бу мавзулар қуйидагилардан иборат:

№	Ф.И.О.	Лавозими ва унвони	Мавзулар
1	С.Назарова	Ф.ф.н. доц.,	1. Бадий нутқда тобе таркибли қўшма гаплар. 2. Отли бирикмалар ва поэтик нутқ 3. Нутқда феълли бирикмалар
2	Д.Йўлдошева	Ф.ф.н. доц.,	1. Ўрта махсус таълимда “Ҳозирги ўзбек адабий тили” ўқув фанини ўқитиш мақсади, мазмуни ва усулида узвийлик 2. Мактабда “Она тили” фанини ўқитиш мақсади, мазмуни ва усулида узвийлик 3. Олий таълимда “Ҳозирги ўзбек адабий тили” ўқув фанини ўқитиш мақсади, мазмуни ва усулида узвийлик
3	Б.Э.Қиличев	Ф.ф.н., доц.	1. Шавкат Раҳмон шеърояти лингвопоэтикаси 2. Ўзбек тилида публицистик услуб 3. Бухоро вилояти гидронимикаси.
4	Б.Жўраева	Ф.ф.н., доц.	1. Ўзбек тилида сўз бирикмаларининг бадий - синтактик хусусиятлари. 2. Нутқда феълли бирикмалар 3. Мақоллар лексикаси
5	М.Абузалова	Ф.ф.д., проф.	1. Ўзбек мурожаат шакллариининг ўзига хос хусусиятлари (бадий асар асосида) 2. Ўзбек тилида сўз бирикмаларининг бадий - синтактик хусусиятлари.

			3. Тилшуносликда анъана ва новаторлик.
6.	Ш.Ҳайитов	Ф.ф.н., доц.	1.А.Навоий ҳамд ва наът ғазалларида бадиий санъатларнинг қўлланиши. 2. “Маҳбубул қулуб”да анъанавийлик 3 Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг бадиий синтези
7	Д.Ўраева	Ф.ф.д., проф.	1. Ўзбек халқ қўшиқларининг банд қурилиши Ўзбек адабиётида баллада жанри. 2. Ўзбек халқ қўшиқларида либослар магияси билан боғлиқ қарашларнинг бадиий ифодаси 3. Ўзбек халқ қўшиқларининг поэтикаси
8	Ҳ.Сафарова	Ф.ф.н., доц.	1. А.Навоий қитъаларининг мавзулар олами ва бадиияти. 2. Чингиз Айтматов асарларида илм-фан ютуқларининг бадиий синтези 3.Алишер Навоий ғазалиётидаги қўшма феълларнинг лингвопоэтик таҳлили (“Бадойеъ ул-бидоя”, “Наводир ун-нихоя” девонлари асосида).
9	Ғ.Муродов	Ф.ф.н., доц.	1. “Кеча ва кундуз” романининг матний-структурал таҳлили 2. Мустақиллик даври шеърлятида лирик жанрлар тараққиёти. 3. Тарихий поэмалар поэтикаси
10	Ш.Аҳмедова	ф.ф.д., доц.	1.Рўзимурод Маҳмуд – лирик шоир. 2.Ўзбек танқидчилигининг романчиликка муносабати (2007-2010 йиллар) 3. Ўзбек танқидчилигининг ҳикоячиликка муносабати (2000-2010 йиллар)

Берилган мавзуларнинг долзарблиги, илмий янгилиги, ўрғайилиш даражаси, объектлари муҳокама қилинди. Кафедра профессори Ш.Аҳмедова, доцентлар Ҳ.Эшонқулов, Д.Қувватовалар сўз олиб, бу ҳақда ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришди. Шундан сўнг Филология факультети Ўзбек филологияси I босқич – 5A120101 – Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти), 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши магистрантларига берилган мавзулар ва уларнинг илмий раҳбарлари қуйидагича белгиланди:

Тилшунослик йўналиши бўйича:

№	Магистрнинг Ф.И.Ш.	Мавзу	Илмий раҳбари
1.	Рўзиева Садоқат	Отли бирикмалар ва поэтик нутқ	С.Назарова, ф.ф.н., доц.
2.	Нуриддинова Шаҳноза	Ўрта махсус таълимда “Ҳозирги ўзбек адабий тили” ўқув фанини ўқитиш мақсади, мазмуни ва усулида узвийлик	Д.Йўлдошева, п.ф.н., доц.
3.	Жумаева Дилноза	Шавкат Раҳмон шеърляти лингвопоэтикаси.	Н.Афоқова, ф.ф.д., доц.
4.	Ғайбуллаева Гулмира	Мақоллар лексикаси	Б.Жўраева, ф.ф.н., доц.
5.	Ортикова Ҳамида	Ўзбек мурожаат шакллариининг ўзига хос хусусиятлари (бадиий асар асосида)	М.Абузалова, ф.ф.н., проф.

Адабиётшунослик йўналиши бўйича:

1.	Нуруллаева Сарвиноз	Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг бадиий синтези	Ш.Ҳайитов, ф.ф.н., доц.
----	---------------------	---	----------------------------

2.	Шомуродова Сунбула	Ўзбек халқ кўшиқларида либослар магияси билан боғлиқ қарашларнинг бадиий ифодаси	Д.Ўраева, ф.ф.д., проф.
3.	Ўринова Мафтуна	Чингиз Айтматов асарларида илм-фан ютуқларининг бадиий синтези	Ҳ.Сафарова, ф.ф.н, доц.
4.	Норова Насиба	“Кеча ва кундуз” романининг матний-структурал таҳлили	Ғ.Муродов, ф.ф.н, доц.
5.	Эшонкулова Дилноза	Ўзбек танқидчилигининг романчиликка муносабати (2007-2010 йиллар)	Ш.Аҳмедова, ф.ф.д., доц.

Д.С.Ўраева: Берилган мавзулар ва магистрларнинг илмий раҳбарларини юқоридагича белгиланишини маъқуллашларингизни сўрайман.

Кафедра аъзолари бир овоздан таклифни маъқулладилар.

Ўзбек филологияси кафедраси

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Магистрантларга берилган мавзулар ва уларнинг илмий раҳбарлари белгиланган тартибда белгилансин:

1. 1.5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Рўзиева Садоқатнинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Отли бирикмалар ва поэтик нутқ” этиб тасдиқлансин.

1.2. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Рўзиева Садоқатнинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. С.Назарова илмий раҳбар этиб тайинлансин.

2.1. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Нуриддинова Шаҳнозанинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Ўрта махсус таълимда “Ҳозирги ўзбек адабий тили” ўқув фанини ўқитиш мақсади, мазмуни ва усулида узвийлик” этиб тасдиқлансин.

2.2. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Нуриддинова Шаҳнозанинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Д.Йўлдошева илмий раҳбар этиб тайинлансин.

3.1. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Жумаева Дилнозанинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Шавкат Раҳмон шеърини лингвопоэтикаси” этиб тасдиқлансин.

3.2. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Жумаева Дилнозанинг магистрлик диссертациясига ф.ф.д., доц. Н.Афоқова илмий раҳбар этиб тайинлансин.

4.1. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Ғайбуллаева Гулмиранинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Мақоллар лексикаси” этиб тасдиқлансин.

4.2. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Ғайбуллаева Гулмиранинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Б.Жўраева илмий раҳбар этиб тайинлансин.

5.1. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Ортикова Ҳамиданинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Ўзбек мурожаат шакллариининг ўзига хос хусусиятлари (бадиий асар асосида)” этиб тасдиқлансин.

5.2. 5A120102 – Лингвистика (ўзбек тили) йўналиши 1-босқич магистранти Ортикова Ҳамиданинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., проф. М.Абузалова илмий раҳбар этиб тайинлансин.

6.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти

Нуруллаева Сарвинознинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг бадиий синтези” этиб тасдиқлансин.

6.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Нуруллаева Сарвинознинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Ш.Хайитов илмий раҳбар этиб тайинлансин.

7.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Шомуродова Сунбуланинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Ўзбек халқ кўшиқларида либослар магияси билан боғлиқ қарашларнинг бадиий ифодаси” этиб тасдиқлансин.

7.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Шомуродова Сунбуланинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., проф. Д.Ўраева илмий раҳбар этиб тайинлансин.

8.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Ўринова Мафтунанинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Чингиз Айтматов асарларида илм-фан ютуқларининг бадиий синтези” этиб тасдиқлансин.

8.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Ўринова Мафтунанинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Ҳ.Сафарова илмий раҳбар этиб тайинлансин.

9.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Норова Насибанинг магистрлик диссертацияси мавзуси ““Кеча ва кундуз” романининг матний-структурал таҳлили” этиб тасдиқлансин.

9.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Норова Насибанинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Ғ.Муродов илмий раҳбар этиб тайинлансин.

10.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Эшонқулова Дилнозанинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Ўзбек танқидчилигининг романчиликка муносабати (2007-2010 йиллар)” этиб тасдиқлансин.

10.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти
Эшонқулова Дилнозанинг магистрлик диссертациясига ф.ф.д., доц. Ш.Аҳмедова илмий раҳбар этиб тайинлансин.

2. Ўзбек филологияси кафедрасининг ушбу қарорини маъқуллаш факультет Илмий кенгашидан сўралсин.

Йиғилиш раиси:
Йиғилиш котибаси:

Д.С.Ўраева
Ғ.Я.Самандарова

**БухДУ филология факультети ўзбек филологияси кафедрасида ўтказилган
2-йиғилиш баённомасидан
КЎЧИРМА**

Бухоро шаҳри

2013 йил 12 сентябрь

Раис – Д.С.Ўраева

Котиба – Г.Самандарова

Қатнашдилар: кафедранинг 23 аъзоси

К у н т а р т и б и:

5-масала. 2013-2014 ўқув йилида 1-босқич магистрларига илмий раҳбарлар белгилаш ва мавзуларини тасдиқлаш.

ЭШИТИЛДИ:

Йиғилиш кун тартибидаги масала юзасидан кафедра мудир вазифасини бажарувчи, ф.ф.д. Д.С.Ўраева қисқача ҳисобот берди ва янги ўқув йили учун мўлжалланган магистрлик диссертациялари мавзулари рўйхати белгиланган тартибда тузилганлигини, мавзуларнинг долзарблигини, такрорланмаганлигини, кафедрада тузилган махсус комиссия уларни текшириб чиққанлигини қайд этди. Шундан кейин магистрлик диссертацияси мавзулари рўйхати йиғилиш котибаси томонидан ўқиб берилди.

Магистрлик диссертацияси мавзуларини тасдиқлаш таклифини йиғилганлар қўллаб-қувватладилар.

Ўзбек филологияси кафедраси йиғилиш

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Магистрантларга берилган мавзулар ва уларнинг илмий раҳбарлари белгиланган тартибда белгилансин:

1.1. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти Нуруллаева Сарвинознинг магистрлик диссертацияси мавзуси “Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг бадиий синтези” этиб тасдиқлансин.

1.2. 5A120101 –Адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) йўналиши 1-босқич магистранти Нуруллаева Сарвинознинг магистрлик диссертациясига ф.ф.н., доц. Ш.Ҳайитов илмий раҳбар этиб тайинлансин.

2. Ўзбек филологияси кафедрасининг ушбу қарорини маъқуллаш факультет Илмий кенгашидан сўралсин.

Йиғилиш раиси:

Йиғилиш котибаси:

Д.С.Ўраева

Г.Я.Самандарова

Сарвиноз Нуруллаеванинг

“Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг
бадий синтези”

мавзуида ёзган магистрлик диссертациясига илмий раҳбар

х у л о с а с и

Мутахассисларнинг қайд этишларича, модерн адабиёт XIX аср охири – XX аср бошларида дунёнинг энг ривожланган мамлакатларида юзага келди. Бугун у дунёнинг кўплаб мамлакатлари адабиётига кириб борди. Француз адиблари Марсел Пруст, Албер Камю, немис адиби Франс Кафка, инглиз адиби Жеймс Жойсларнинг мазкур йўналишдаги асарлари жаҳон адабиётининг дурдоналари ҳисобланади.

Инсоннинг ички хусусиятларини, ҳис-туйғуларини рамзий ифодалаш модерн адабиётининг хос хусусиятидир. О.Шарафиддинов, Х.Муҳаммаддўст, М.Холбеков, А. Саидов, И. Ғафуров каби ёзувчи ва адабиётшуносларнинг асарларида модерн адабиётининг хусусиятлари ҳақида баъзи мулоҳазалар айтилган. Ўзбек адабиётида модернизм йўналиши янги босқич давридир. Шу сабабдан ханузгача айрим адабиётчилар томонидан баҳс-мунозарага сабаб бўлиб келмоқда. Тадқиқотчиларнинг қатъий хулосаларига кўра, ўзбек модернизми ўз овозига эга бўлса-да, унда ғарб модернизмида мавжуд бўлган кучли худбинлик ҳисси йўқдир. Модернизм бир турдаги жўн ходиса емас. Модернистик оқимларни даб-дурустдан тушуниб олиш ҳам муайян қийинчиликларни туғдиради. Модерн ходисалари ҳамма вақтда ҳам санъат ва адабиёт ходисаларига биз берадиган таърифларга тўғри келавермайди. Бунинг устига бизнинг санъат ва адабиётга қарашларимизда жуда катта бир нуқсон бор: бизнинг назариямиз санъат ва адабиётдаги ранг-барангликни тан олмайди. У имкон борича, санъат ва адабиётнинг ҳамма тур ва ҳамма хилларига муштарак бўлган қонун-қоидаларни инкишоф этишга ҳаракат қилади. Айтилган мулоҳазаларнинг айримлари Сарвиноз Нуруллаеванинг магистрлик диссертациясида теран талқинини топган.

Ишнинг дастлабки бобида магистр модернизм оқимининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг келиб чиқиш асослари хусусида мулоҳаза юритади. Мазкур бобда модернизмнинг мазмун-моҳияти, модерн адабиёти ва мумтоз адабиётимизнинг ўзаро алоқаси ҳақида асосли мулоҳазалар баён этилган. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари билан модерн адабиёти тимсолларининг қиёсий таҳлили мароқ билан ўқилади ва яхши таассурот қолдиради.

Магистрлик диссертациясида модернистик асарларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг ўрни ва аҳамияти Омон Мухтор романларининг ғоявий-бадий таҳлили жараёнида ёритиб берилган. Тадқиқотчи таҳлил учун истеъдодли ижодкорнинг “Ффу”, “Афлотун”, “Аёллар мамлакати ва салтанати” каби романларини танлаган.

С. Нуруллаева диний ва маърифий мотивнинг Ғарб ва Шарқ модернистик романларидаги бадий-ғоявий қиёсига махсус бир боб бағишлаган. Ва Жеймс Жойс романлари билан ўзбек миллий романларининг қиёсий таҳлили жараёнида мавзу моҳиятини ёритишга ҳаракат қилган.

Ишда баъзи маромига етмай қолган қиёслар, биринчи манбалар асосида яна бир мулоҳаза қилиб кўриш лозим бўлган ўринлар ҳам йўқ эмас. Бироқ жузъий нуқсонларидан қатъи назар С.Нуруллаеванинг “Модернистик романларда илоҳий-ирфоний ғояларнинг бадий синтези” мавзуида ёзган магистрлик диссертацияси шундай йўналишда амалга оширилган тадқиқотлар олдига қўйилган талабларга тўла жавоб бера олади ва мен уни оммавий ҳимояга тавсия этаман.

Шавкат Ҳайитов,
филология фанлари номзоди, доцент

Fakultet: filologiya
Kafedra: o'zbek filologiyasi
O'quv yili: 2013 – 2014

Magistratura talabasi: Sarvinov Nurullayeva
Ilmiy rahbar: Shavkat Hayitov
Mutaxassislik: 5A 120101–Adabiyotshunoslik
(O'zbek tili)

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Xalqimizning, umuman, insoniyatning kundalik hayoti, turmush tarzida qaysidir din qoidalari amal qilishi, qandaydir ilohiy kuchga ishonish, sig`inish, undan madad so`rashning mavjudligi, kishilik jamiyati xudodan uzilgan holda dunyoviy faoliyat yurita olmasligi mavzu ijtimoiy hayot bilan naqadar bog`liqligini ko`rsatadi.

Ishda izohlanadigan ilohiy, diniy, ma'rifiy, irfoniy g'oyalar yoshlarni vatanparvarlik, halollik, saxiylik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda zamonaviy she'riyatdagi ilohiy-irfoniy mavzularning o'рни va xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, zamonaviy (modernistik) romanlardagi ilohiy-irfoniy g'oyalarning hali o'rganilmaganligi ishning ilmiy jihatdan dolzarbligini belgilaydi. Ushbu mavzu zamonaviy va mumtoz adabiyot orasidagi aloqani o'rganishda asos bo'ladigan vosita bo'la oladi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Modernistik romanlarda ilohiy-irfoniy g'oyalarning badiiy haqiqatga aylantirilishini sintez qilish, aniqlash ushbu tadqiqot ishining maqsadini tashkil qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun:

- modernizmning mazmun-mohiyati va o`ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning kelib chiqish asoslarini o`rganish;
- shu asosda modern va mumtoz adabiyotning o`zaro aloqasini aniqlash;
- O. Muxtor romanlari misolida modernistik romanlardagi ilohiy va irfoniy, diniy va ma`rifiy motivni o`rganish;
- obraz yaratishda ilohiy va irfoniy g`oyalarning o`rnini aniqlash;
- modernistik romanlardagi mumtoz belgilarni kuzatish;
- modern adabiyotga mansub romanlarga xos mifologik xususiyatlarni tahlil qilish;
- sharq va g`arb modernistik romanlarini g`oyaviy va badiiy jihatdan tahlil qilib, qiyoslash;
- ulardagi diniy va ilohiy g`oyalarning badiiy talqinini o`rganish masalalari tadqiqot ishining vazifalari qilib belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining obyekti va predmeti. Omon Muxtorning “Ffu”, “Aflotun” va “Ayollar mamlakati va saltanati” romanlari hamda ingliz yozuvchisi Jeyms Joysning “Uliss sarguzashtlari” romani magistrlik dissertatsiyasining obyekti tashkil etsa, uning predmeti shu romanlardagi diniy, ilohiy, irfoniy, ma`rifiy, tasavvuiy, mifik qarashlar va g`oyalar talqinidan iboratdir.

Ishning metodologiyasi va metodlari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida milliy istiqlool g`oyasi va mafkurasiga yo`g`rilgan, adabiyot va san`at, uning bugungi kundagi o`rni, e`tiqod va ma`naviyat, din va madaniyat haqidagi Prezident Islom Karimovning asarlari, Aristotel, Baxtin asarlari, adabiyotshunoslar Mirzaahmad Olimov, Tilavoldi Jo`rayev, jahon adabiyoti bo`yicha yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan mutaxassislar Fozila Sulaymonova, Najmiddin Komilov, adabiyotda ilohiyot, tasavvuf va ma`rifat bo`yicha ilmiy izlanishlar qilgan A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqul, H.Karomatov, Sh.Hayitovlarning asarlari metodologik asos bo`lib xizmat qildi. Ishning maqsadiga erishish uchun badiiy sintez, analiz, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. Adabiyotshunoslikda modernistik romanlarning psixologik, falsafiy, kompozitsion, til xususiyatlari, uslub, obrazlar tizimi bilan bog'liq jihatlari o'rganilgan bo'lib, ulardagi oppozitsion hodisa – ilohiy-irfoniy g'oyalar talqini tadqiq qilishga muhtojligi bilan e'tiborga molikdir. Adabiyotshunoslikda modernistik romanlarning bu jihati hali o'rganilmagan bo'lib, ushbu ishda keltirilgan modern adabiyot namunalari bo'lgan romanlar misolidagi mulohazalarimiz modernistik romanlarning yana bir yangi xususiyatini belgilashimizga hamda modern adabiyot va mumtoz adabiyotning o'zaro aloqasini aniqlashga yo'l ochadi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot ishi o'quvchilarni modernistik romanlar bilan tanishtirish orqali ularning ma'naviy dunyosini boyitishga, badiiy saviyasini yuksaltirishga, qolaversa, yangi davr adabiyotining eng muhim yangiliklaridan xabardor etishga xizmat qiladi.

Ishda keltirilgan dalillar va fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyotshunoslik bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda, lug'atlar, usuliy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va tarkibi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqot ishining natijalari. Mavzu yuzasidan 2014-yil 2 – 6-may kunlari Buxoro davlat universitetida fakultetlararo o'tkazilgan professor-o'qituvchilar va talabalarning “Sog'lom bola yili”ga bag'ishlangan an'anaviy 58-ilmiy-nazariy anjumanida ma'ruza qilindi hamda bitta tezis va uchta maqola e'lon qilindi.

Ilmiy rahbar: _____

Sh.A.Hayitov

Magistratura talabasi: _____

S.M.Nurullayeva

REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY
SPECIALIZED EDUCATION
BUKHARA STATE UNIVERSITY

Faculty: philology

Student : Sarvinoz Nurullayeva

Department: Uzbek philology

Head of scientific work: Shavkat Hayitov

2013 – 2014 years

Speciality: 5A 120101 – Literature(Uzbek)

ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION

“Artistic synthesis of religious-spiritual ideas in modern novels”

Actuality of the research theme. President I.Karimov's number of laws and decrees on revival of national-spiritual traditions, fostering freedom of conscience and religious liberty show the significance of the work for the current social life.

In everyday life of our nation or generally humankind, in their form of habitation, the abidance by any religious rules, trusting any theological strength, worshipping and the reality of the aid query from the God, impossibility of functioning human society being apart from the God, these all show how the research theme is completely associated with the social life.

Religious, spiritual, theological and educational ideas which are expounded in the work are considered to be essential in developing such features as patriotism, scrupulosity, generosity and diligence in youth.

In history and criticism of literature the place and peculiarities of religious-spiritual themes have been investigated within the modern poetry, however, the investigation absence of religious-spiritual ideas in modern novels defines the actuality of the work from scientific view point. This theme can be a basic expedient in investigating the relationship between modern and classic literature.

The aim and the tasks of the research work. To define and synthesize conversion of religious-spiritual ideas of modernistic novels into artistic truth

comprises the main aim of the research work. In order to reach this goal the following issues are set as the tasks of the research work:

- to study the main, unique features as well as origination of modernism;
- on this basis to define mutual relationship between modern and classic literatures;
- to study religious, spiritual and theological motive of modernistic novels based on the novel of O. Mukhtar as an example;
- to define the place of religious-spiritual ideas in image creation;
- to observe classic symbols in modernistic novels;
- to analyze mythological peculiarities, specific to novels of modern literature;
- to analyze and compare eastern and western modernistic novels from ideological and artistic aspects;
- to investigate artistic interpretation of religious and theological ideas in them.

The object and the subject of the research work. While the novels of O. Mukhtar “Ffu”, “Platon”, “Country and sway of women” and the novels of English writer James Joyce “Ulysses” constitute the object of the research work, its subject comprises the interpretation of religious, theological, spiritual, imaginary, mythical views and ideas of these novels.

The methodology and methods of the work. In this masters dissertation the works of the President I. Karimov which are enriched with the idea and ideology of national independence, art and literature, its current role, belief and spirituality, religion and culture serve as a main methodological basis. Moreover, Aristotle, Bakhtin’s works and other specialists in literature such as Mirzaahmad Olimov, Tilavoldi Jo’rayev’s compositions, specialists who made great investigations in world literature Fozila Sulaymonova, najmiddin Komilov and also some others as A. Hayitmetov, R. Vohidov, I. Hakkul, H.Karomatov, Sh. Hayitov who carried out scientific researches on theology, religion and enlightenment were worthy of note.

In order to reach the aim of the work artistic synthesis, analysis, comparative and classifying methods were used.

Scientific novelty of the masters dissertation. In history and criticism of literature psychological, philosophical, compositional language peculiarities, style, image connection and other aspects of modernistic novels have been investigated, though, interpretation of oppositional facts and religious-spiritual ideas requires careful consideration of research. This aspect of modernistic novels has not been studied yet; some samples of modern literature which are exemplified in the present research work can be helpful to define mutual relationship between modern and classic literatures as well as characterize new peculiarities of modern literature.

Scientific-theoretical and practical significance of the masters dissertation. This research work serves to inform the readers about the most essential innovations of the new period literature, moreover it assists to upraise their artistic level and enrich the spiritual outlook by getting introduced to the modernistic novels.

We can make use of the facts and views brought in the research work for conducting classes and creating methodical handbooks, dictionaries on literature in upper classes of secondary schools, vocational colleges, academic lyceums and higher educational institutions.

The structure and the volume of the masters dissertation. This masters dissertation consists of introduction, 3 chapters, conclusion and the list of used literature.

The results announcement. This theme was lectured at traditional 58-scientific- theoretical conference of professor and teachers as well as students devoted to “The year of healthy child” which was held among the faculties of Bukhara State University. In addition to this, a thesis and three articles were published.

Sh.A. Hayitov
S.M.Nurullayeva

MUNDARIJA

	Kirish	3
I bob.	Modernizm oqimining o`ziga xos xususiyatlari va uning kelib chiqish asoslari	11
1.1.	Modernizmning mazmun-mohiyati va o`ziga xosliklari	11
1.2.	Modern va mumtoz adabiyotning o`zaro aloqasi	21
	I bob bo`yicha xulosa	28
II bob.	Modernistik romanlarda ilohiy va irfoniy g`oyalarning o`rni va ahamiyati (Omon Muxtor romanlari misolida)	31
2.1.	“Ffu” romanida diniy va ma’rifiy qarashlarning badiiy haqiqatga aylantirilishi	31
2.2.	Obraz yaratishda ilohiy va irfoniy g`oyalarning o`rni (“Aflotun” romani misolida)	44
2.3.	“Ayollar mamlakati va saltanati”da mifologik qarashlar talqini	58
	II bob bo`yicha xulosa	66
III bob.	Diniy va ma’rifiy motivning g`arb va sharq modernistik romanlaridagi badiiy-g`oyaviy qiyosi	67
3.1.	Jeyms Joysning “Uliss” romanida diniy-axloqiy ta’limotlar ifodasi.....	67
3.2.	Sharq va g`arb modernistik romanlarining g`oyaviy-badiiy tahlili	81
	III bob bo`yicha xulosa	95
	Umumiy xulosalar	97
	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	101

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Sharqning ming yillik falsafasi-yu islom qadriyatlari taraqqiyot uchun bebaho xazinadir”, - degan edi muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov o`z nutqlaridan birida. Shuningdek, “Islom dinimizning muqaddas merosi – falsafa ilmini, xususan, Sharq falsafasini teran o`rganish, - deya ta`kidlaydi prezidentimiz, - shu asosda ulug` madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o`tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo`lish, o`zimizning o`tmish sinovidan o`tgan, ulug` ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir”. Prezident I.A.Karimovning shu kabi so`zlari, milliy-ma`naviy qadriyatlarni tiklash, vijdon erkinligi, diniy bag`rikenglikni qo`llab-quvvatlash to`g`risidagi qator qonun va farmonlari, “Oллоh qalbimizda, yuragimizda” nomli ma`ruzalari ishning bugungi ijtimoiy-siyosiy hayot uchun ham ahamiyatli ekanligini ko`rsatadi.

Xalqimizning, umuman, insoniyatning kundalik hayoti, turmush tarzida qaysidir din qoidalari amal qilishi, qandaydir ilohiy kuchga ishonish, sig`inish, undan madad so`rashning mavjudligi, kishilik jamiyati xudodan uzilgan holda dunyoviy faoliyat yurita olmasligi mavzu ijtimoiy hayot bilan naqadar bog`liqligini ko`rsatadi. Inson e`tiqodsiz, iymonsiz yashay olmaydi. Chunki komil va sobit e`tiqod jamiyat ma`naviy qiyofasini belgilaydi. Hayotning o`zi bizga turli millat, e`tiqod va din vakillari o`rtasida o`zaro hurmat hukm surgan sharoitdagina umumiy xonadonimiz, umumiy kelajagimiz, farzandlarimiz kelajagini ko`rish mumkinligini ko`rsatib turibdi.

Ilohiy-irfoniy g`oyalar azal-azaldan tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, o`quv-tarbiya jarayonida turli pand-nasihat, rivoyat, hadislardan foydalanib kelinadi. Ishda izohlanadigan ilohiy, diniy, ma`rifiy, irfoniy g`oyalar yoshlarni vatanparvarlik, halollik, saxiylik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim hisoblanadi. Zero “din odamzodni hech qachon yomon

yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini xushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi¹. Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam berib kelgan. Shuning uchun ham din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelmoqda²".

Badiiy adabiyot insoniyat ma'naviyatining asl sarchashmasi, bashariyatning ruhiy asoslaridan biri, insonning qalb harorati in'ikosi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning ilmiy o'rganilishi inson yuragida, uning ko'ngil ko'zgusida aks etgan o'ziga xos takrorlanmas falsafiy, irfoniy, ma'naviy va ilohiy nurning shakllanish jarayonlari, ifodalari, mohiyati va yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi. "Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir", ma'naviyat "insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch" ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan muntazam sur'atda ta'kidlanmoqda.

Darhaqiqat, insoniyat ichki olamini boyitadigan, uning dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan g'oyalar talqini, ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi va buning natijasida milliy adabiyotlarning takomili masalalarini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik ilmining, balki milliy o'zanda rivoj topayotgan badiiy adabiyotlarning takomiliga, adabiy jarayonning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ijodkorlar faoliyati va adabiy merosi, ularning tafakkur tarzi va asarlarining uslubiy xususiyatlarini o'rganish o'sha xalq ma'naviyatini anglashga barobar bo'lib, jamiyatdagi dolzarb ma'naviy va ma'rifiy vazifalarning amalga oshirilishida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

¹ Инсон бахт учун туғилади (Ўзбекистон Президенти Ислон Каримовнинг хикматли сузларидан). – Т.: Шарқ, 1998. – Б 44.

² O'sha manba, 45-bet.

Shu jumladan, modernistik romanlarda ham ilohiy va irfoniy g'oyalar badiiy haqiqatga aylantirilgani e'tiborga molik.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida o'ziga xos yangi shakllanish jarayoni vujudga keldi va bu davr adabiyotda dolzarb ijtimoiy mavzularni ko'tarish, ular ifodasida yangi shakllardan, uslublardan foydalanish, adabiyotga yangicha ruh va tafakkur bag'ishlash kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Ushbu ta'kidlarimiz tobora yangilanib borayotgan adabiyotimizdagi yangicha yo'nalish modernizm hodisasi bilan bog'liq. Modernizm adabiy hodisa sifatida murakkab badiiy voqelik bo'lib, asar mohiyatidagi shakl, mazmun, til, obrazlar tizimining tub islohotlar jarayonini qamrab oladi. Shu bois modernizm adabiy oqimining vujudga kelishi va uning taraqqiyoti bilan bog'liq masalalarning ilmiy o'rganilishi o'zbek adabiyoti tarixi uchun ham, adabiyot nazariyasi uchun ham dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Modernizm rivojiga alohida hissa qo'shgan ijodkorlar ijodini tahlil etish, ularning milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rnini belgilash adabiy jarayon xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Adabiyotshunoslikda zamonaviy she'riyatdagi ilohiy-irfoniy mavzularning o'zni va xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, zamonaviy (modernistik) romanlardagi ilohiy-irfoniy g'oyalarning hali o'rganilmaganligi ishning ilmiy jihatdan dolzarbligini belgilaydi. Ushbu mavzu zamonaviy va mumtoz adabiyot orasidagi aloqani, bog'liqlikni o'rganishda asos bo'ladigan vosita bo'la oladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. “Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil qiladi.

Ilm-u fan shunday bir sohaki, qarib qolish, keksayish, safdan chiqib qolish kabi holatlar uning tabiatiga begonadir¹”.

Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek², tadqiqotlar fanni rivojlantirishga, shu fan sohasiga oid yangi tadqiqotlarga yo'l ochishga xizmat qiladi. Ilmga intilish mavjud ekan, fan taraqqiy etadi, bu esa jamiyat kelajagi

¹ Инсон бахт учун туғилади (Ўзбекистон Президенти Ислон Каримовнинг ҳикматли сузларидан). – Т.: Шарқ, 1998. – Б 50.

buyuk bo'lishini ta'minlaydi. "Ba'zan bittagina ilmiy kashfiyot mamlakatni butun dunyoga mashhur qilishi mumkin¹". Ammo ilmiy kashfiyot qilish uchun fan sohasini chuqur o'rganish, uning qaysi qirralari o'rganilgan-u, qay bir qirradi tadqiq qilishga muhtojligini aniqlash muhimdir. Shuning uchun har bir tadqiqot ishining avvalida uning o'rganilish darajasini tekshirish, qaysi jihatlar ilmiy muammoligini belgilash masalasi turadi. Shunga ko'ra, biz ham tadqiqot ishimizning o'rganilish darajasini belgiladik.

2009 -yili filologiya fanlari nomzodi Tilavoldi Jo'rayevning "Ong oqimi: modern" degan tadqiqoti e'lon qilindi.

Shuningdek, X.Muhammaddo'st, M.Xolbekov, O.Sharafiddinov, A. Saidov va boshqa adabiyotshunoslarning modernizm va modernistik roman haqidagi maqolalari e'lon qilingan bo'lib, ularda modernizmning alohida xususiyatlari, ushbu yo'nalishning kelib chiqishi kabilar o'rganilgan. Bugungacha e'lon qilingan ishlarda modernistik romanni o'rganishda yangicha tamoyil – ong oqimi va ichki monologga asoslanilgan. Ilmiy izlanishlar falsafiy-estetik qarashlar, ijodiy prinsiplar, asarlarning g'oyasi, ramziylik, mif, psixologizm, prozaga xos poetika, ijodning tasviriylilik komplekslari, obrazlar xarakteristikasi, stilistik vositalar va til xususiyatlari, tasviriylilik va uyg'unlik singari jihatlarni qamrab oladi. Biroq muallif ilg'agan badiiy haqiqatlar to'la tahlil etilmagan, faqatgina ayrim qirralargina yoritilgan, xolos. Biz modernistik romanlarga xos ilohiy-irfoniy g'oyalarni tahlil etish uchun bir qator romanlarni tahlilga tortdik. Shunga ko'ra, magistrlik ishining maqsad va vazifalari belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Modernistik romanlarda ilohiy-irfoniy g'oyalarning badiiy haqiqatga aylantirilishini sintez qilish, aniqlash ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot oldiga yana quyidagi vazifalar qo'yildi:

¹ Инсон бахт учун туғилади (Ўзбекистон Президенти Ислон Каримовнинг ҳикматли сузларидан). – Т.: Шарқ, 1998. – Б 51.

- modernizmning mazmun-mohiyati va o`ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning kelib chiqish asoslarini o`rganish;
- shu asosda modern va mumtoz adabiyotning o`zaro aloqasini aniqlash;
- O. Muxtor romanlari misolida modernistik romanlardagi ilohiy va irfoniy, diniy va ma`rifiy motivni o`rganish;
- obraz yaratishda ilohiy va irfoniy g`oyalarning o`rnini aniqlash;
- modernistik romanlardagi mumtoz belgilarni kuzatish;
- modern adabiyotga mansub romanlarga xos mifologik xususiyatlarni tahlil qilish;
- sharq va g`arb modernistik romanlarini g`oyaviy va badiiy jihatdan tahlil qilib, qiyoslash;
- ulardagi diniy va ilohiy g`oyalarning badiiy talqinini o`rganish.

Magistrlik dissertatsiyasining obyekti va predmeti. Omon Muxtorning “Ffu”, “Aflotun” va “Ayollar mamlakati va saltanati” romanlari hamda ingliz yozuvchisi Jeyms Joysning “Uliss sarguzashtlari” romani magistrlik dissertatsiyasining obyekti tashkil etsa, uning predmeti shu romanlardagi diniy, ilohiy, irfoniy, ma`rifiy, tasavvuiy, mifik qarashlar va g`oyalar talqinidan iboratdir.

Ishning metodologiyasi va metodlari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasiga yo`g`rilgan, adabiyot va san`at, uning bugungi kundagi o`rni, e`tiqod va ma`naviyat, din va madaniyat haqidagi Prezident Islom Karimovning asarlari, Aristotel, Baxtin asarlari, adabiyotshunoslar Mirzaahmad Olimov, Tilavoldi Jo`rayev, jahon adabiyoti bo`yicha yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan mutaxassislar Fozila Sulaymonova, Najmiddin Komilov, adabiyotda ilohiyot, tasavvuf va ma`rifat bo`yicha ilmiy izlanishlar qilgan A.Hayitmetov, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqul, H.Karomatov, Sh.Hayitovlarning asarlari metodologik asos bo`lib xizmat qildi.

Ishning maqsadiga erishish uchun badiiy sintez, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. XX asrda g'arb va sharq aloqalari ta'sirida barcha sohalar qatori milliy adabiyotshunosligimizda ham qator o'zgarishlar yuz bergani hech kimga sir emas. Xususan, modernizm oqimining adabiyotimizga kirib kelishi ijodda ko'pgina yangiliklar paydo bo'lishiga va ilmda tadqiqot ishlari qilinishiga sababchi bo'ldi.

Adabiyotshunoslikda modernistik romanlarning psixologik, falsafiy, kompozitsion, til xususiyatlari, uslub, obrazlar tizimi bilan bog'liq jihatlari o'rganilgan bo'lib, ulardagi oppozitsion hodisa – ilohiy-irfoniy g'oyalar talqini tadqiq qilishga muhtojligi bilan e'tiborga molikdir. Biz ushbu tadqiqot ishimiz orqali modernistik romanlarda ilohiy-irfoniy, diniy-axloqiy qarashlar, udumlarning o'rni, ularning badiiy haqiqatga aylantirilish yo'llarini o'rganish, ilohiy-irfoniy g'oyalarning asardagi vazifasini belgilash hamda adabiyotdagi mumtoz va modern an'analarning aloqasini aniqlashni ko'zda tutganmiz.

Jahon va vatan tarixidan ma'lumki, turli davrlarda, ayniqsa, diniy kitoblarni o'qish, o'rganish muammo, xavfli bo'lgan davrlarda xalq diniy qarashlar, amallar, odatlar, din bilan bog'liq bilimlarga va ruhiy-ma'naviy taskinga, ehtiyojga san'at, aniqrog'i, adabiyot vositasida erishgan. Bugun modernistik romanlarda ham ilohiy-irfoniy masalalar talqiniga (zamonaviy asarlarda eskicha qarashlar, tasavvuf talqini!) duch kelamiz. Adabiyotshunoslikda modernistik romanlarning bu jihati hali o'rganilmagan bo'lib, ushbu ishda keltirilgan modern adabiyot namunalari bo'lgan romanlar misolidagi mulohazalarimiz modernistik romanlarning yana bir yangi xususiyatini belgilashimizga hamda modern adabiyot va mumtoz adabiyotning o'zaro aloqasini aniqlashga yo'l ochadi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Biz o'z milliy madaniyatimiz, adabiyotimizni puxta o'rganish, qadriyatlarimizni tiklash va e'zozlash bilan bir qatorda, dunyo madaniyatida chinakam hodisa sifatida e'tirof etilgan, vaqt va zamon sinovidan o'tgan ijod namunalaridan ham bahramand bo'lishga haqlimiz. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi o'quvchilarni modernistik romanlar bilan tanishtirish orqali ularning ma'naviy dunyosini

boyitishga, badiiy saviyasini yuksaltirishga, go`zallikni nozik va teran his etishga odatlantirishga, didni o`stirishga, qolaversa, yangi davr adabiyotining eng muhim yangiliklaridan xabardor etishga xizmat qiladi hamda modern asarlarning nazariy xususiyatlarini belgilashda, modern va mumtoz adabiyotning aloqasini o`rganishda manba vazifasini bajara oladi.

Ishda keltirilgan dalillar va fikr-mulohazalardan oliy o`quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumta`lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyotshunoslik bo`yicha dars mashg`ulotlari olib borishda, lug`atlar, usuliy qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishi modernistik adabiyot bilan qiziquvchilar va izlanuvchilar uchun ham manba bo`la oladi.

**Magistrlik dissertatsiyasi natijalarining joriy qilinishi va sinovdan o`tishi.** Ishda yuritilgan fikr-mulohazalar, keltirilgan dalillar hamda chiqarilgan xulosalar sinov darslari sifatida 2015-yil 13-yanvar kuni BuxDU filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi ta`lim yo`nalishi 2-kurs “A” guruhida “Jahon adabiyoti tarixi”dan seminar mashg`ulot darsida, 11, 14, 21-fevral kunlari 2-kurs “A”, “B” va “D” guruhlarida “O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi”dan amaliy mashg`ulot darslarida joriy qilindi va amaliy sinovdan o`tkazildi. Shuningdek, tahlil natijalari filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi kafedrasiga muhokamasiga qo`yilib, nazariy taqriz olindi.

**Natijalarning e`lon qilinganligi.** Mavzu yuzasidan 2014-yil 2 – 6-may kunlari Buxoro davlat universitetida o`tkazilgan professor-o`qituvchilar va talabalarining “Sog`lom bola yili”ga bag`ishlangan an`anaviy 58-ilmiy-nazariy anjumanida hamda 2015-yil 15-16-aprel kunlari o`zbek filologiyasi kafedrasida tomonidan o`tkazilgan professor Saidjon Aliyev va professor Ohunjon Safarovlarning tavalludiga bag`ishlangan ilmiy-nazariy konferensiyada ma`ruza qilindi.

Mavzu bo`yicha bitta tezis (Бу дунё – бозор дунё. // Бухоро шифокори. – Бухоро. – 2015, 30 апрель. – Б 8.), 3 ta maqola (“Улисс” (Ж.Жойс) романида диний-илоҳий мавзу. / Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг

“Соғлом бола йили”га бағишланган анъанавий 58-илмий-назарий анжумани тўплами. – Бухоро, 2014. – Б 123–127; Omon Muxtorning “Ayollar mamlakati va saltanati” romanida mifologik qarashlar talqini. / O`zbek filologiyasining dolzarb muammolari (Professor Saidjon Aliyev tavalludining 95 hamda professor Ohunjon Safarov tavalludining 75 yilligiga bag`ishlangan ilmiy-nazariy anjuman materiallari) . – Buxoro, 2015. – B 98 – 101; Omon Muxtor romanlarida diniy va irfoniyy g`oyalar. / Филология масалалари (Ўзбекистон халқ шоири Зулфия таваллудининг 100 йиллигига бағишланган илмий-методик мақолалар тўплами). – Т.: Наврўз, 2015. – Б 115–117.) e`lon qilindi hamda “Uliss” (J.Joys) romanida diniy-ilohiy mavzu” nomli maqola ziyonet sahifalariga joylashtirildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, uning hajmi 100 bet, 22257 so`zni tashkil etadi.

I BOB

MODERNIZM OQIMINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING KELIB CHIQISH ASOSLARI

1.1. MODERNIZMNING MAZMUN-MOHIYATI VA O`ZIGA XOSLIKLARI

Adabiyotshunoslik ilmi o`z tarixi davomida turli oqimlar, aniqrog`i, bosqichlarni bosib o`tganki, ular aksariyat xalqlar adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, muhim kashfiyotlar qilinishiga sababchi bo`ladi.

Realizmdan keyingi yangi bosqich deb hisoblangan modernizm bosqichi ham ana shunday bosqichlardan biri bo`lib, u XIX asr oxiri – XX asr boshlarida dunyoning eng rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda yuzaga keldi (modern – fransuzcha “yangi, zamonaviy”). Bugun u dunyoning qoloq mamlakatlari adabiyotigacha kirib borgan bo`lib, modern adabiyotning yirik namoyondalari fransuz adiblari Marsel Prust, Alber Kamyu, nemis adibi Frans Kafka hamda ingliz adibi Jeyms Joyslarning asarlari dunyo sahnasida o`z muxlislarini lol qoldirib kelmoqda.

Modern adabiyot insonni, hayotni yuzaki tasvirlamay, kishining ichki xususiyatlari, his-tuyg`ularini ramziy ifodalaydi. Ramziylik modernizmning asosiy xususiyatlaridan biri bo`lib, u modernizm kirib borgan har bir sohaga taalluqlidir. Masalan, rassomchilikda musavvir ko`zni ellips shaklida emas, uchburchak yoki to`rtburchak shaklda chizsa, bunga hecham hayron bo`lish kerak emas. Modernizmda ijodkor erkinlikka beriladi, qoliplardan chekinadi.

Modernizm hodisasiga adabiyotshunoslik lug`atlarida quyidagicha izoh beriladi:

Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san`at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Tabiiyki, adabiyot va san`atda keng tarqalgan mazkur hodisa bo`sh joyda paydo

boʻlgan emas, uning kurtaklari avvaldan mavjud edi. Jumladan, ilgariroq vujudga kelgan “sanʼat vosita emas – maqsad”, “sanʼat – oʻzni ifodalash”, “sof sanʼat” qabilidagi nazariy qarashlar, barokko doirasida sanaluvchi manerizm, gongorizm, pretios adabiyot namoyandalarining ijod amaliyotida modernizmga xos jihatlarni kuzatish mumkin. Aslida, adabiy jarayonda hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari (realistik va norealistik), adabiyotning mohiyati, bilish imkonlari, vazifasi va shu kabi masalalarda ziddiyatli qarashlar azaldan mavjud boʻlgani eʼtiborga olinsa, modernizm kurtaklarini juda qadim zamonlardan ham topish mumkin boʻladi. Yaʼni modernizmga realistik va norealistik yoʻnalishlar orasidagi ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda quyuqlashib, keskin namoyon boʻlishi, yangilangan nazariy asoslarga ega boʻlishi va ommalashishi sifatida qarash mumkin. Modernizm oʻtgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yoʻnalishlar (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.)ni oʻziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. Modernizm doirasidagi maktab va oqimlar nechogʻli turfa boʻlmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan anʼanaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F.Nitsshe, Z.Freyd, A.Bergson, U.Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi. Shunga mos tarzda modernizm yoʻnalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy anʼanalarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish daʼvosini olgʻa suradi. Yangi adabiyot voqelikni realistik tasvirlashdan voz kechib, uni idrok qilish mumkin emas, deb biladi, insonning hissiy bilish imkonidan tashqaridagi mohiyatga intuitiv tarzda yaqinlashishni koʻzlaydi (simvolizm); voqelikda sabab-natija asosidagi tartibot mavjudligini qabul qilmaydi (absurd), unda voqelik goh birdan paydo boʻlgan oniy taassurotlar yigʻindisi (impressionizm), goh tanib boʻlmas darajada oʻzgargan, tasodif va gʻaroyibotga toʻla makon (syurrealizm) sifatida akslanadi. Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning

tasviri o`rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o`rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o`z-o`zini ifodalashi (ekspressionizm) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subyektivlikning oldingi o`ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intutiv bilishning yuqori qo`yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayrica e'tibor berilishi (ong oqimi), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o`z o`y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va h.k.) cheklovlarsiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g`oyaviy-mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. Modernizm asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (fudurizm) turadi. Bu hol modernizmdagi badiiy obraz strukturasi, asarning subyektiv va obyektiv tashkillanishi, bayon tarzi, sujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o`ziga xosliklarni yuzaga keltiradi.

Modernizm o`z ichiga san'atning mohiyati va mavjudligi haqida bir-biridan jiddiy farqlanuvchi qarashlarga asoslangan va ayni chog`da, qator mushtarak jihatlariga ega turfa oqim va maktablarni birlashtirgan falsafiy-estetik hodisa bo`lib, u XX asr adabiyoti va san'atida chuqur iz qoldirdi. U ko`plab ulug` adiblar (mas., F.Kafka, J.Joys va b.) tayangan ijodiy tamoyillarni belgiladigina emas, yaxlit olganda realizm mavqeida turgan qator adiblar (M.Prust, V.Vulf) ijodiy yo`siniga ham jiddiy ta'sir ko`rsatdi. Shu o`rinda modernizmga berilgan ta'riflarning farqli ekani, uning yuzaga kelish vaqti, davrlashtirilishi kabi masalalarda bildirilgan fikrlarda jiddiy tafovutlar borligi, nihoyat, unga munosabatning turlicha ekanligini ham ta'kidlab o`tmoq joiz. Jumladan, sho`ro davri adabiyotshunosligida modernizmga salbiy hodisa deb qaraldi, burjua mafkurasining xizmatchisi, kapitalistik turmush tarzi, axloqsizlik, individualizm va shu kabi illatlarni targ`ib qiluvchi adabiy hodisa sifatida baholandi. Albatta, bu xil ayblovlarni butkul asossiz deyish ham adolatdan emas. Biroq sho`ro imperiyasidan tashqaridagi juda katta hududga yoyilgan,

ko'plab mutaraqiy xalqlarning eng yorqin iste'dodlarini o'ziga jalb etib, adabiyot va san'atiga kuchli ta'sir o'tkazgan hodisani bunday biryoqlama baholash "mag'zavaga qo'shib chaqaloqni ham to'kib yuborish"ning ayni o'zi edi. Zero, adabiyot tarixi realistik va norealistik ijodiy tamoyillar orasidagi kurash jarayoni, ayni chog'da, ularning bir-birini to'ldirish, boyitish jarayoni ham bo'lganini ko'rsatadi. Hatto, sho'rolarning mafkuraviy ihotasi ham bu tabiiy jarayonning kechishini batamom yo'q qilishga ojiz edi. Xususan, rus adabiyotida inqilobgacha mavjud bo'lgan modernizm adabiyoti an'alarining ta'siri sho'ro davrida ham qator ijodkorlar asarlarida saqlanib qoldi; xorijdagi rus adabiyoti, sho'ro davri bergan imkon darajasidagi G'arb adabiyotidagi yangiliklardan xabardorlik ham beiz ketmadi. Bundan tashqari, sho'ro davlati tarkibiga 40-yillarda qo'shilgan Boltiqbo'yi xalqlari adabiyoti, ikkinchi jahon urushidan keyin sotsialistik lagerni tashkil qilgan va o'zida demokratik tamoyillarni bir qadar saqlab qololgan mamlakatlar adabiyotlari bilan aloqalar sho'ro adabiyotining modernizm adabiyotidan butkul uzilib qolishiga imkon bermadi. Shu omillar natijasi o'laroq, 80-yillarga kelib o'zbek adabiyotida modernizmga xos ayrim xususiyatlar bivosita ijodiy o'zlashtirila boshlangani (X.M.Do'st, E.A'zam, O.Muxtor, G'.Hotam va b.), 90-yillardan keyin esa ko'proq modern yo'nalishida ijod qiluvchi qator yoshlar (N.Eshonqul, T.Rustam, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor va b.) maydonga chiqqani kuzatiladi. Hozircha o'zbek adabiyotshunosligida mazkur hodisani o'rganish "ma'qullash – inkor qilish" tarzidagi bahslar doirasidan chiqqanicha yo'q, uni fundamental asosda tadqiq etish ertaning vazifasi bo'lib qolmoqda.

"Modernizm – jo'n hodisa emas", – degan edi Ozod Sharafiddinov. Uning o'zi ham modernistik asarlarga o'z munosabatini hali to'liq belgilab olmaganini aytadi. Darhaqiqat, olim aytganidek, ba'zi modernistik asarlarni (ayniqsa, yumoristik asarlarni) kishi zavq bilan o'qiydi, Joys kabilarning asarlarini o'qishga esa qiynaladi kishi.

Bugungi kunda postmodernizm degan yangi oqim ham paydo bo'lganki, u "modernizmdan keyingi" degan ma'noni anglatadi.

Postmodernizm bashariyat taraqqiyotidagi uchinchi to'ldin – informatika va globallashtirish bosqichining mahsuli, u nafaqat adabiyot, san'at, balki fan hodisasi sifatida maydonga chiqib, biz yashayotgan hozirgi davr ham postmodern dunyo deb ataladigan bo'ldi. Uning muhim belgilari sifatida ma'naviyat olamida kechayotgan jarayonlar – har qanday ko'rinishdagi modern – yangiliklarga sig'inishdan tiyilish, yuksak va ommaviy madaniyatni bir-biriga yaqinlashtirish, fan, din va san'atni murosaga keltirish kabi holatlar tilga olinayпти. Fan olamida metodologik asos sifatida dialektika o'rniga sinergetik tafakkur oldingi o'ringa o'tib, evolyutsion sinergetik paradigma badiiy ijodiyotning metodologik asosiga aylandi. Realizm “reallikda ma'no bor” desa, modernizm “reallikda ma'no yo'q” degan aqidaga amal qiladi, postmodernizmning asosiy xususiyati esa masala mohiyatini, reallikning sir-sinoatini taftish etish, diqqat-e'tiborni hodisa qa'riga yo'naltirish bilan belgilanadi.

Realizmning mohiyati hayotni haqqoniy aks ettirish bo'lsa, modernizm inson ichki dunyosini yangicha yo'llarda tasvirlashdir. Qaysi “izm”ga mansubligidan qat'iy nazar, badiiy asar zahirida hayot mohiyati aks etmas ekan, u chinakam badiiyat namunasi bo'lolmaydi. Modernizm inson botinini kashf qilarkan, hech qachon eskirmaydi¹.

Modern adabiyotning paydo bo'lish omillari, eng avvalo, tafakkur va ruhdagi yangilanish bilan bog'liq. Modern adabiyot inson didi va qarashlarining o'zgarishi bo'lgan falsafiy-estetik hodisadir². Modernizm da dunyo adabiyotida “ong oqimi” deb ataladigan tasvir usulidan foydalaniladi.

“Ong oqimi” – XX asr modernistik adabiyotida maydonga kelgan hayotni tasvirlash usuli bo'lib, inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni bevosita, ular haqiqatda qanday kechsa, o'shanday tasvirlashga intilgan adiblar va ularning asarlariga nisbatan qo'llanuvchi shartli atama. Ong oqimi termini XIX asr

¹ Хамдамов У. Турфа ранглар уйғунлиги. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000 йил, 29 сентябрь.

² Йўлдошев Қ. Ўзбек модерн адабиёти: илдишлар, принциплар ва хусусиятлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2004, 2-сон, Б. 29.

oxirlarida ommalashgan bo`lib, amerikalik faylasuf U.Jeyms faoliyati bilan bog`liq. U.Jeyms fikriga ko`ra, inson ongi daryo oqimiga monandir, bu oqimda his-tuyg`ular, o`y-fikrlar, tuyqus paydo bo`luvshi assotsiatsiyalar bir-biri bilan betartib almashinib turadi, mantiqan izohlab bo`lmaydigan darajada bir-biriga chatishib ketadi. Adabiyot hamisha inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarga qiziqqan, ularni turli yo`llar bilan ifodalashga uringan. Bu narsa, ayniqsa, inson xatti-harakatlarini ham ijtimoiy, ham ruhiy jihatdan asoslashga intilgan realistik adabiyotda kuchli namoyon bo`ldi. XIX asr realistik adabiyotida ichki monologning keng ommalashgani, L.Tolstoy, F.Dostoevskiy kabi adiblarning ichki monolog imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanib, ruhiy jarayonlarni imkon qadar haqiqatga monand tasvirlash yo`lida samarali izlanganlari shu intilishning natijasidir. Ong oqimini shu izlanishlarning bevosita davomi, ichki monologning shartlilik asosida mantiq qoliplariga solinmagan ko`rinishi sifatida tushunish mumkin. Ya`ni realistik adabiyot ong oqimi (ichki monolog)ni tasvir usullaridan biri deb biladi, unda inson ongidagi jarayonlar voqelik bilan bog`lanadi va uni badiiy idrok etish vositasi bo`lib qoladi. O`tgan asrning boshlaridan shakllangan ong oqimi adabiyoti esa unga hayotni badiiy aks ettirishning universal metodi deb qaradi, inson ruhiyatida kechuvchi jarayonlarni aslicha aks ettirishga intildi, ularni voqelik bilan bog`lash, mantiqiy izchil ko`rinishga keltirish, qolipga solishdan voz kechdi. Natijada ong oqimi adabiyotining V.Vulf, M.Prust, J.Joys kabi yirik namoyandalari asarlarida asosiy maqsad inson ruhiyatiga imkon qadar chuqur kirib borish, uning qorong`u puchmoqlariga nazar solish bo`lib qoldiki, natijada ular ko`p jihatdan eksperimentallik xususiyatini kasb etdi, an`anaviy eposga xos rivoya strukturasi parokandalikka uchradi, xarakter butunligiga putur yetdi. Ong oqimi adabiyoti inson ruhiyati tasviri va tahlilida, hech shubhasiz, olg`a qadam edi, biroq, ikkinchi tomondan, unda ruhiyat tasviri bobida naturalizmga og`ish kuzatildi. Ya`ni naturalizm voqelikni bor holicha tasvirlashga intilgani kabi, ong oqimi adabiyoti inson ruhiyatidagi jarayonlarni aslicha aks ettirishni maqsad qildi. Mazkur kamchilik va cheklanganlikdan qat`iy nazar, Ong oqimi adabiyoti

insonni anglash imkoniyatlarini kengaytirdi, inson va uning ruhiyati haqidagi tasavvurlarni boyitdi. Ong oqimi adabiyoti, xususan, uning yorqin namoyandasi J.Joysning “Uliss” asari badiiy tafakkur rivojida chuqur iz qoldirdi. Jumladan, ong oqimi adabiyoti E.Xeminguey, U.Folkner kabi bir qator yirik adiblarning ijodiy o`lishiga turtki berdi, uning an`analari syurrealizm, yangi roman namoyandalari izlanishlarida ijodiy davom ettirildi. Ong oqimining paydo bo`lishiga zamin hozirlagan realistik adabiyot ham uning ma`qul tomonlarini o`zlashtirdi.

Modernizm XX asr G`arb adabiyoti va san`atining umumiy tavsifi tarzida bir necha o`lchovlarda mavjud bo`lib, bizningcha, ularni quyidagi mazmunda xulosalash mumkin.

Birinchidan, modernizm – bu zamonlar oralig`idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o`rtasidagi ixtiloflarni o`z g`oyaviy qarashlarining bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma`naviy qiyofasidir. Uning ortida “xudolar o`limi” (F.Nitsshe), Yevropa xaritasini qayta tuzgan siyosiy inqiloblar va ilmiy kashfiyotlar, totalitar tuzumga asoslangan diktaturalar, xunrezli urushlar, informatsion portlashlar, sivilizatsiyaning koinotga chiqishi kabi global o`zgarishlar yotibdi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo`lsak, uning ortida “markazsiz dunyo” (U.B.Yeyts)ning paydo bo`lishiga sabab, obyektiv borliq va tarixda chuqur ildiz otolmaganligi, mustahkam o`rnashib ololmaganligi, epistemologik dudmolligi, muayyan shaklga keltirilgan utopik (ilmga asoslanmagan, amalga oshmaydigan, xomxayol) orzu-umidlar va shaklsiz, noaniq antiutopik voqelik o`rtasidagi hal qilib bo`lmaydigan ziddiyatlarning mavjudligidadir.

Dastavval, bashariyatni ocharchilik va qashshoqlikni yengishga da`vat qilgan yigirmanchi asr vaqt o`tib o`zining insonparvarlik, yuksalishga intilish, jamoatchilikka tayanish, ilmiy-texnika taraqqiyotining cheksiz rivojlanishiga xayrixoh bo`lish kabi tamoyillariga qarshi turdi, amalda “eskirgan” bo`lib chiqdi. Ayni paytda, umuminsoniy tamoyillarning g`ayriinsoniy tuzum qonunlari oldida erksizligi, voqelikning hardamxayolliigi, siyosiy yolg`on

safsatalar, jamiyatning haddan tashqari himoyasizligi va hattoki be'maniligi ro'parasida tizilgan odamlarning fojiaiy yolg'izligi zamoni bo'lib qoldi.

XX asrning halokatga yuz tutishi muallifning "metafizikaga ishtiyoqini" kuchaytirgan, yakka tartibda ijod qilishga undagan bo'lsa, ushbu idealizmning dardu-g'amini ham shu alfozda belgilab berdi. Bunday muhitda "she'riyatga o'rin yo'qligi" (G.Adamovich)ni jahon urushlarida halok bo'lgan, totalitar tuzum tarafidan otib yuborilgan yoki surgun etilgan, aqldan ozib, o'z hayotiga suiqasd qilgan, alamzada holatda ijoddan voz kechgan qator qalamkashlarning fojiali qismatidan, deb tushunmoq lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, o'tgan yigirmanchi yuz yillikda kechgan adabiy jarayon ko'pgina raddiyalarga qaramasdan modernizmni inkor etib, bir chetga surib tashlagani yo'q, aksincha, uni inkor qilish orqali yanada davom etishiga yordam berdi va o'z doirasiga "modernizmdan tashqaridagi modernistlar" deya hisoblagan mualliflar – S.K'erkegor, H.Ibsen, G.Melvill, SH.Bodler, A.Rembo, S.Mallarme, F.Nitsshe, F.Dostoevskiy, G.Jeyms, A.Strindberg, J.Konrad va boshqalarning asarlarini og'dirib oldi. Aksincha, ayrim buyuk nomlar (V.Skott, V. Gyugo, A.de Vin'i, CH.Dikkens, A. Tennison, G.Longfello)ning badiiy ijoddagi qadr-qimmati pasaytirildi, boshqalari (G.Flober, E.Zolya, J.Elliot, U.Uitmen, P.Verlen) esa asos-isbotsiz jahon adabiyoti peshsahnasiga ko'tarib qo'yildi. Eng muhimi, modernizm XX asrning asosiy ijodiy kashfiyoti – subyektivlikni tadqiq qilishda davom etdi, va tezis-antitezis, "modernizm"– "kontrmodernizm" vositasida individual uslubning stilistik imkoniyatlarini amalga tadbiq qildi.

Uchinchidan, modernizm – aslida, bu bir-biri bilan kurash olib borgan, o'zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar, manifestlar, dasturlar (masalan, Lotin Amerikasida simvolizm o'zicha modernizm nomini olgandi) majmuasidir. Masalan, modernizmning bir jabhasi avangardizmga, ya'ni lingvistika nuqtayi nazaridan ilmiy tajribalar o'tkazishga, san'atlar va diskurslar sinteziga, polistilistika (futurizm, dadaizm, syurrealizm, imajinizm, vortitsizm, frantsuz "antiromani", Lotin Amerikasi "sehrli realizm")ga moyillik

bildirgan bo'lsa, boshqa bir ko'rinishi ekspressionizm tarafdorlarini barokko va romantizm an'analari bilan, ingliz-amerika modernizmini (J. Joys, V.Vulf, E.Paund, T.S.Elliot, U.Stivens) simvolizm bilan, J.P.Satr va A.Kamyu prozasini ekzistentsializm falsafasi bilan yaqinlashtirishga intildi. Bizningcha, faqat modernizm va uning taraqqiyot kontekstida u inkor etgan "realizm", "sotsialistik realizm" (A.Barbyus, L.Aragon, Y.R.Bexer, M.Andersen-Neks`yo, A.Zegers) va postmodernizm fenomenlari adekvat baholanishi mumkin xalos. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, modernizm adabiyoti matni o'zining stilistikasi jihatdan ham ko'p qiyofalidir. Bir jihatdan, u XIX asr adabiy oqimlari (romantizm, naturalizm, simvolizm va hokazo)dan uzoqlashgan bo'lsa, ikkinchidan ularga yangi urg'u va ohanglar (J.Romen, J.Dyuamel) olib kirdi, naturalistik, ya'ni voqelikni tasvirlashda maishiy tafsilotlar, ikr-chikrlar bilan cheklanib, umumlashmalardan qochadigan tasviriy uslub (J.P.Satr)ni singdirdi, zarurat tug'ilganda esa, biroz to'g'rilab naturalizmni (R.Marten dyu Gar, J.Steynbek) yanada sayqallashtirdi. Shu taxlit traditsionalizm (an'anaviylik)ning turli ko'rinishlari modernizm bilan olib borgan bahsida modernizmga zarardan ko'ra ko'proq foyda keltirdi, shuningdek, undagi strukturaviy o'lchovlar: "klassika" va "romantika", "realizm" va "abstraktsiya", "milliy" va "baynalmilal", "shimoliy" va "janubiy" kabi tamoyillarning mavjudligiga diqqat-e'tiborni qaratdi.

To'rtinchidan, modernizm – bu J.Joys va G.Stayn, F.Kafka va G.Kayzer, L.Pirandello va Yu.O'Nil, T.Mann va U.Folkner, A.Dyoblin va J.Dos Posos, B.Brext va E.Ionesko, X.L.Borxes va G.G.Markes, A.Myordok va G.Grasslarning modernizm ruhidagi matnlaridan iboratdir. Ularning barchasi modernizm nuqtai nazaridan o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan, ularning har biri alohida yondashishni, modernizmning butun tipologiyasiga, terminologik va stilistik tavsiflariga aniqlik kiritishni taqozo etadi. J.Joys qalamiga mansub "Uliss" romani ham simvolizm, ham avangard, ham "yuksak modern", ham "postmodern" qolipidagi asardek o'qilishi mumkin. Shunga

yarasha mazkur romanning adabiy jarayondagi mavqei va tutgan o`rni unga hamohang o`zgarib borishi ham muqarrardir.

Nihoyat, beshinchidan, modernizm – bu parallel ravishda mavjud bo`lgan matnlarning polifoniyasi (ko`povozlilik)dir. Ushbu inkor etishlar va tasdiqlarning o`ta murakkabli maydoni noklassik bo`lgan masofani hosil qiladi, o`z makoniga oid chegaralarini doim aniqlab turuvchi qandaydir bir o`ziga xos adabiy jarayondir. Uni shartli ravishda subyektivlikdan uzil-kesil ozod etuvchi, markazdan qochiradigan kuch, ya`ni girdibod bilan qiyoslash mumkin. Jamiyatning barqaror muvozanatdan chiqqanligi, undagi subyekt va obyektning bir-biriga mos kelmasligi, his-tuyg`ular ta`sirida yashayotgan shunday ramziy faollikning dastlabki ko`tarilib tushushi fransuz adabiyotining XIX asr oxiriga to`g`ri keladi. Aslida, milliy adabiyotlar nazdida mavjud bo`la turib, ma`lum ma`noda ularning hal qiluvchi, muhim voqea va hodisalarini o`zaro qorishtirib yuboradigan ushbu “to`lqin” o`zini goh 1910-yillar nemis ekspressinizmi, goh 1920-yillar ingliz-amerika modernizmi, goh 1930–1940-yillar fransuz ekzistensializmi andozasidagi proza, goh 1950-yillar “absurd teatri” orqali namoyish qilib, 1960-yillarda Lotin Amerikasigacha yetib bordi-da, o`sha yerda inqirozga yuz tutib, o`z kuchini yo`qotdi. Modernizm yo`riqlarining “ko`tarilishi” va “pasayishi” kabi holatlarni o`zida jamlagan bu kabi inqilobiy harakatning davrlarga bo`linishi o`ta darajada shartlidir. Qolaversa, modernizm taxminan uch ijodiy muhit bilan vobasta kechdi. Bular: postsimvolizm va avangardizm (1910–1940-yy.); ekzistensializm (1940–1960-yy.) va postmodernizm (1980–2000-yy.)dir. Ularning har birida o`z tipologik belgilarning o`zaro uyg`un birikmasini, o`z faollari va mushohada qiluvchilarini, oshkor va nooshkor “modernist”larini, “modernizm” zamondoshlari va “kontrmodernist”larini alohida ajratib ko`rsatish mumkin.

XX asr adabiyotida modernizmdan ustun turuvchi yana biror ijodiy oqim mavjudmidi, degan savolning bo`lishi tabiiy. Bu savolga ijobiy yoki salbiy ma`noda javob topish osondek tuyulsada, fikrimizcha, modernizm adabiyotni o`rganish doirasidan chiqib ketdi. Aslida, modernizmning o`zi va uning qonun-

qoidalari aniq kashf qilinmagan bir holatda XX asr qalamkashlarining qariyb barchasi u yoki bu taqlidda “modern kasali”ga muhtalo boʻldilar.

Badiiy adabiyot 1930-yillardan boshlab inson intellektual hayotidagi boʻsh vaqt ustidan yuz yillab davom qilgan oʻz hukmronligini kinematografiyaga boʻshatib bera boshladi. Ikkinchi Jahon urushidan soʻng, kitob egallab kelgan ijtimoiy oʻringa texnik sanʼat turlari: televideniye, mass-medialarning turli shakllari daʼvogar boʻlib chiqdi. Asr oxiriga kelib esa, bunga kompyuter ham qoʻshildi. Endilikda gap jiddiy mafkuraviy davlat tangligi haqida emas, oʻz manfaatlari yoʻlida badiiy qadriyatlar bilan hiyla va nayrang qilayotgan mafkuralar tangligi haqida emas, borgan sari eklektizmga asoslanayotgan, mutaxassislarga, universitet professor-oʻqituvchilariga, gumanitar fakultet talabalariga moʻljallangan jiddiy mazmunli adabiyot haqida emas, balki adresat tangligi, kitob bilan shaxsiy munosabat tajribasini yoʻqotayotgan kitobxon inqirozi xususida bormoqda. Shuningdek, adabiy jarayonda chinakam informatsion bosim – majburiy plyuralizm va relyativizm (lot. relativus – nisbiylik), oʻtaketgan zamonaviylik oqibatida paydo boʻlayotgan xiraxondan hissiyotlar ostida qolib borayotgan kitobxon tanqisligi yuzaga keldi.

1.2. MODERN VA MUMTOZ ADABIYOTNING O`ZARO ALOQASI

Mustaqilik davriga kelib adabiyotshunoslik fani ilmiy-nazariy muamolarni yangicha talqin va tahlil etmoqda. Badiiy asar qahramonlari ham bugungi kunda butun murakkabliklari bilan namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, bu xususiyatni keyingi davr romanchiligidagi jiddiy o'zgarishlar, badiiy-estetik tafakkur dunyosidagi yangi-yangi izlanishlar bilan izohlash mumkin. "Milliy istiqlol davri yozuvchilarga ijod erkinligini in'om etgani kabi istiqlol ta'siri natijasida mudrab yotgan ong uyg'onayotgan va bu uyg'onish ta'sirida shakllanayotgan tafakkur jamiyatning tarixiy, badiiy-estetik kamponent vazifasini bajarar ekan, romanchiligimizda an'anaviy romanlar qatorida noan'anaviy romanlarning yuzaga kelishini adabiy zarurat deb e'tirof etmoq kerak", – deb yozadi keyingi davr romanchiligi yuzasidan jiddiy tadqiqot olib borgan olim Z.Pardayeva.

Darhaqiqat, bugungi dizaynerlar milliy atlas-u adraslardan zamonaviylik ufurib turgan go'zal liboslar yaratganlari singari bugungi davr adabiyoti ham zamondan ortda qolmagan, mumtoz adabiyot va folklordan oziqlangan holda modern adabiyot namunalarini yaratish yo'lidan bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida shunday yozadi: "Tarixiy xatirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi¹".

Darhaqiqat, tarixni, tarixiy shaxs yoki allomalar hayotini o'rganish, tahlil etish keyingi avlodlarda o'z tarixidan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ularga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. - Б 9.

Ma'lumki, sho'rolar hayotdagi hamma sohalarni birvarakayiga tubdan o'zgartirishni da'vo qilib chiqishgan edi. Shu bilan birga ular butunlay yangi odam yaratish g'oyasini ham oldinga surib, yangi adabiyot da'vosi bilan ham chiqishgan edi. Hayot bu da'volarning puch ekanligini isbot qildi. Jumladan, har qanday inson hayoti davomida turfa xil o'zgarishlarni boshidan kechirsa ham, bir quvonchlarga to'lib, bir baxtsizlik ichida yashasa ham, zohiran qaraganda, bir terining ichida necha marta ozib-semirsa ham, aslida uning tabiati dunyodagi eng kam o'zgaradigan narsadir.

“Insonshunos olimlarning bugungi inson tabiatiga ko'ra, bundan 2000-yil oldingi insondan juda kam farq qilishini isbotlab berishgan. Uning tafakkurida qandaydir yangi g'oyalar tug'ilishi mumkin, lekin tafakkur mexanizmi eskicha qoladi. Uning tuyg'ularida qandaydir yangi xislatlar paydo bo'lishi mumkin, lekin baribir tuyg'ularning o'zi juda kam o'zgaradi. Davrlar har qancha o'zgarmasin, insonni harakatga keltiruvchi asosiy omil shaxsiy manfaat bo'lib qolaveradi. Insonning bu xislati ruslarning “Baliq chuqur joyni izlaydi, inson esa yaxshi joyni” degan maqolida juda yaxshi ifodalangan. Xuddi shunga o'xshash, insonning ruhiy-ma'naviy faoliyatining hosilasi bo'lmish san'at va adabiyot ham tabiatdan kam o'zgaradigan hodisalardandir. Albatta, san'at va adabiyot paydo bo'lgan davrlardan beri muayyan tadrijiy yo'lni bosib o'tdi, lekin bu yo'llar mazmuni qanday bo'lmasin, san'at va adabiyotning mohiyati o'zgargani yo'q. Hamon uning markazida inson va uning dardlari turibdi. Hamon uning asosiy muammosi inson kim va u qanday yashamog'i kerak, inson hayotining mohiyati nimada, degan muammolar. Afsuski, sho'ro mafkurasi inson tabiatidagi mana shu muqimlikni tan olishni istamadi. Va har xil vositalarni ishga solib, uni tubdan o'zgartirishga kirishdi. “Proletar adabiyoti” degan adabiyot o'ylab topildi. Uning birdan-bir metodi sotsialistik realizm, deb e'lon qildi. Bundan bir qadar tashqariga chiqadiganlarni sinfiy dushmanga chiqarishdi va shunga muvofiq ular jazolarga mustahiq qilindi. Ammo tabiiyki, inson bir xil bo'lmaganidek, uning adabiyoti faqat bir xil mazmunda yozadigan, faqat bir xil

uslubni tan oladigan, yakrang adabiyot bo‘lishi mumkin emas edi¹”, - deb aytadi yana O.Sharafiddinov “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida Ahmad Otaboyev bilan qilgan suhbatida.

Albatta, “modernizm bir turdagi jo‘n hodisa emas”. Modernistik oqimlarni dab-durustdan tushunib olish ham muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Modern hodisalari hamma vaqtda ham san’at va adabiyot hodisalariga biz beradigan ta’riflarga to‘g‘ri kelavermaydi. Buning ustiga bizning san’at va adabiyotga qarashlarimizda juda katta bir nuqson bor: bizning nazariyamiz san’at va adabiyotdagi rang-baranglikni tan olmaydi. U imkon boricha, san’at va adabiyotning hamma tur va hamma xillariga mushtarak bo‘lgan qonun-qoidalarini inkishof etishga harakat qiladi. Masalan, she’riyat ham, nasr ham badiiy adabiyotga kiradi. Lekin ayni chog‘da ularning orasida osmon bilan yerchalik farq borligini ko‘rmaslik mumkin emas. Roman, qissalar bobida o‘ylab chiqarilgan qoidalarimiz lirika va poemaga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Xuddi shunga o‘xshash, “adabiyot, rassomchilik va muzika ham “san’at” degan tushuncha doirasiga kiradi. Biroq, shunga qaramay, ular insonning ruhiy faoliyatining turlari ekanligidan boshqa hech qanday mushtarak tomonlarga ega emas. Binobarin, rassomlik talqini bilan muzika, adabiyot talqini o‘zaro keskin farq qilishi kerak²”.

Asosiy materialli rang va bo‘yoq bo‘lmish rassomlik sohasidagi izlanishlar, albatta, adabiyot sohasida ham aynan takrorlanishi mutlaqo shart emas. Masalan, abstraktsionizm (mavhumlik)da san’atkorlar hayotni hayot formasida aks ettirmog‘i kerak, degan gapdan qochib, uni boshqacha tarzda ham aks ettirish mumkinligini isbotlash uchun mavhum tasvirlarga, ya’ni birinchi qarashda biror-bir hayotiy mazmunga ega bo‘lmagan tasvirlarga keng o‘rin beradilar. Lekin abstraktsionizm elementlari faqat keyingi asrlardagina paydo

¹ Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // ЎзАС. – Тошкент, 2002, 23 – 24-сон.

² O‘sha manba.

bo'lgani yo'q. Uning unsurlari Sharq va G'arbning qadimgi san'atidan istagancha topiladi. Masalan, o'zbeklarning atlas kamida ming yillik tarixga ega, u yuz foiz abstraksionizm asosiga qurilgan. Undagi bir-biriga chatishib ketgan ranglar qanday hayotiy mazmunga egaligini bilmayman, biroq jilolari, tovlanishlari haddan tashqari go'zal. O'zbek atlasining yal-yal yonishi ancha asrdan beri erkaklarni ham, ayollarni ham birday zavqlantirib keladi. Xuddi shuningdek, o'zbeklarning me'morchilik san'atida ham, o'ymakorlik va naqqoshlik san'atida ham mavhumlik unsurlari ko'plab uchraydi. Lekin rassomlik san'atidagi abstraksionizmni oqizmay-tomizmay adabiyotga ko'chirib bo'lmaydi. Adabiyotda mavhumlik kuchayib ketgan o'rinlarda, mazmun hisobiga shaklbozlikka berilgan joylarda, inson muammolari cheklanib qolgan joylarda katta muvaffaqiyatga erishish qiyin.

30-yillarda modernistik adabiyot modaga kirgan edi. "Modaga kirgan narsa to'g'risida tanqidiy fikr aytish juda qiyin. Tafakkurimizning ojiz tomonlaridan biri xuddi shunda ko'rinadi. Biz ko'pchilik maqtayotgan asarni o'qib tushunmasak ham, bizga sira ma'qul bo'lmagan bo'lsa ham, hammaga ergashib maqtashga tushamiz. Bunda «qirolning yangi ko'ylagi» sindromi amal qiladi. Asarni maqtayotgan ko'pchilik dono bo'lsayu, men uni tushuna olmaydigan aqli noqis bir odam bo'lsam...¹" – deydi O.Sharafiddinov ham.

Golsuorsiga tan berish kerak. U bir necha maqolasida odamlarning ta'nasidan qo'rqmay, hamma tomonidan maqtalayotgan modernistik asarlar haqida tanqidiy fikr aytadi. Bu asarlarni 30 yildan keyin hamma unutib yuboradi, deydi. Ehtimol, Golsuorsi o'zining bu fikrida to'la haq emasdir. Jumladan, romanlari «oilaviy hayotning qomusidan iborat» (Golsuorsi) M.Prust bugun unutilgani yo'q. Lekin Golsuorsi bir narsada haq: u adabiyotning mohiyatini inson xarakterini yaratishda, deb biladi. Markazda insonning taqdiri turmagan, uning qalbi o'rganilmagan, uning faoliyati hamda hayot yo'llaridagi dramatik va fojiali, ibratli va o'ylantiradigan, tajriba va xulosadan iborat

¹ Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // ЎзАС. – Тошкент, 2002, 23 – 24-сон.

izlanishlari aks etmagan asarlar umrboqiy asarlar bo'la olmaydi. Faqat Golsuorsi emas, modernistik adabiyotga unchalik ro'yxushlik bildirmagan boshqa adiblar ham ko'p. Lekin na Golsuorsi va na boshqa G'arb yozuvchilari modernizmni tanqid qilar ekanlar, san'atkorning shakl va uslub bobidagi izlanishlariga, tajribalar o'tkazish bobidagi huquqlariga zarracha shubha qilgan emaslar.

Sho'ro adabiyotida ham taqiqlar har qancha kuchli bo'lmasin, ayrim yozuvchilar yangi shakllar izlashdan to'xtamagan. Faqat bu yozuvchilarning ijodida modernistik izlanishlar yo fantastik elementlar orqali yoki satira va yumor yordamida ifodalangan. Jumladan, mashhur M.Bulgakov «It'yurak» nomli qissasida bir professorning tajribalari tufayli itdan odamga aylanib qolgan shaxsning partiyaga kirishi va katta idoralarda ishlab, itlarga xos harakatlar qilishini juda yorqin ochgan. Yoki yozuvchi V.Voynovich 70-yillarda yaratgan «Askar Chonkin» qissasida sho'rocha ko'r-ko'rona sadoqatning avra-astari ag'darilgan. Albatta, bu asarlarning hech qaysisi hukmron mafkura darg'alarining birortasiga yoqqan emas. Chunki sho'rolar zamonida «dohiylar»ga ma'qul keladigan yozuvchilargagina keng yo'l berilardi. Bunday yozuvchilar sha'niga tanqidiy gap aytish, ularning ijodidagi nuqsonlarni ko'rsatish mumkin emasdi. Bunday yozuvchilar qolgan hamma yozuvchilarga o'rnak sifatida ko'rsatilardi va go'yo ularning asarlariga o'xshatib yozishga da'vat qilinardi. Masalan, Gorkiy – sho'ro adabiyoti asoschisi, Mayakovskiy – davrning eng atoqli shoiri, binobarin, hamma ijodkorlar ulardan o'rnak olishi kerak edi. Ko'p vaqt o'tmasdan bunday adabiyotning misi chiqdi. «Sho'ro adabiyoti» deb atalgan adabiyot ayrim mustasnolardan qat'iy nazar, juda g'arib, juda nimjon, rangsiz, quruq, beta'sir adabiyotga aylanib qoldi. Natijada millionlab odamlarning adabiyotdan ixlosi qaytdi, kitob o'qimay qo'yishdi.

20-30-yillarda o'zbek adabiyotida ham muayyan modernistik izlanishlar bo'lgan. Bu, jumladan, Oybek, Mirtemir, Cho'lpon ijodlarida ko'rinadi. Oybekning dastlabki she'rlarida modernistik izlanish his-tuyg'ularining tahliliga juda keng o'rin berilganida ko'rinadi. Mirtemir birinchi kitobida hayot zavqini tizginsiz pafos bilan ifodalashga intiladi. Ammo tuyg'ularga biroz erk berilgani

uchun pafos ko‘p o‘rinlarda oddiy balandparvozlikka aylanib ketadi. Cho‘lpon esa «Kecha va kunduz» romanida, ayniqsa, Zebi ustidan sud epizodlari tasvirlangan o‘rinlarda o‘sha voqealarning absurdligini juda yorqin ifodalagan. Ifodalaganda ham quruq so‘zlar bilan emas, qahramonlarning xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari bilan ifodalagan. Afsuski, o‘zbek adabiyotidagi bunday izlanishlar o‘z vaqtida tanqidchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan va natijada davom ettirilmay qolib ketgan.

Bugun adabiyotimiz yangicha sharoitda yashab ijod etmoqda. Avvalgi tazyiqlar va taqiqlar hozir yo‘q. Endi yozuvchi va shoirlar badiiy shakl va uslub borasida juda keng ko‘lamlarda izlanishlar olib borishlari mumkin va olib boryaptilar ham. Jumladan, bugungi adabiyotimizda dramaturg Sharof Boshbekov ijodida, shoir Abdulla Oripovning ayrim asarlarida, Omon Muxtorning romanlarida, Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asarida, nisbatan yosh shoir va yozuvchilar Nazar Eshonqul, Xayrullo, Bahrom Ro‘zimuhammad, Go‘zal Begim, Olima Nabiyeva ijodlarida buni ko‘rish mumkin. Lekin izlanishlar bobida ehtiyot bo‘lmoq kerakki, yangi narsa hamma vaqt ham faqat yangiligi uchungina yaxshi bo‘lavermaydi, shuningdek, eski narsani ham faqat eskiligi uchun «puf, sassiq»qa chiqarish mumkin emas.

“Biz realizm deb ba‘zan kesatiq bilan, ba‘zan kinoya bilan, ba‘zan g‘ashlik bilan tilga oladiganimiz – uslub hali uncha qarib qolgani yo‘q. Ayniqsa, ... bizning adabiyotda realizm shakllanayotganiga endigina bir asr vaqt bo‘ldi. Ehtimolki, bu vaqt ichida realizmning bor-yo‘g‘i o‘n gulidan biri ochilgandir¹”.

Demak, gap bu yerda realizmda yoki modernizmda emas. Gap san’atkorda, uning tafakkurida va mahoratida. Adabiy asar esa chinakam asar namunasi bo‘lmog‘i uchun, realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir, yana takror aytaman, uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon

¹ Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // ЎзАС. – Тошкент, 2002, 23 – 24-сон.

insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin.

Mumtoz va modern adabiyotdagi o'xshashlik va tafovutlarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- mumtoz adabiyotdagi bosh qahramon ideal obraz, modern adabiyotda real-hayotiy obraz;

- har ikkala adabiyot namunalarining ham qahramoni yo'lovchi;

- mumtoz adabiyot asarlaridagi yo'lovchining manzili, maqsadi va yo'li aniq;

- modern adabiyotda yo'lovchining harakatlari xaos;

- har ikkala adabiyotda ham yo'lovchi sinovlarda toblanadi;

- har ikkala adabiyotda ham ifoda uslubida ko'plab lirik chekinishlar mavjud;

- har ikkisi ham inson ko'nglini inkishof qilish maqsadini ko'zlaydi;

- ifoda uslubi, tili, grammatikasidagi ikkilamchi farqlar.

Shunday qilib, XX asr modernizm adabiyoti ham xuddi XIX asr romantizm adabiyoti, uyg'onish davri va undan keyingi davr klassitsizm adabiyoti va eng qadimgi xalq og'zaki badiiy ijodi singari madaniy ma'no doirasiga aylandi, uning ichida G'arb dunyosi qadriyatlari tanqidiy jihatdan tekshiruvdan o'tkazildi. Ular jahon adabiyoti tarixida yashab qolishga, XX asr adabiyotida yalovbardor bo'lishga loyiqmi yoki yo'qmi, buni kelajak ko'rsatadi.

I BOB BO`YICHA XULOSA

Xulosa qilganda, “Aslida, **modernizm** va **modern** atamalarini bir-biridan ajratib talqin qilish joizdir. Masalan, ularning ingliz tilida **modernism** (modernizm), **modern** **movement** (zamonaviy harakat), **modern art** (zamonaviy san’at), nemis tilida **die moderne** (zamonaviylik), frantsuz tilida **modernisme** (modernizm), modernite (zamonaviylik), moderne (zamonaviy, yangi), ispan tilida **modernismo** (zamonaviy), **moderno** (hozirgi, yangi) qabilidagi lug’aviy ma’nolari mavjud¹”, – deydi adabiyotshunos olim Muhammadjon Xolbekov “Jahon adabiyotida modern va modernizm tushunchasi” nomli maqolasida. Bundan chiqdi, modernizm – bu o`z qonun qoidalariga, aqida va tamoyillariga ega bo`lgan adabiy oqim, jarayon tushunchasini ifodalasa, **modern** – bu zamonaviy, yangicha adabiyot ma’nosini anglatadi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, modernizm XX asr G’arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida kechgan adabiy-nazariy jarayon, ya’ni oqim deb tushunilsa, modern har bir milliy adabiyotda sodir bo`luvchi zamonaviy, yangicha uslub va tamoyillarning majmuasidan iboratdir. Demak, modernizm bu:

Birinchidan, zamonlar oralig`idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o`rtasidagi ixtiloflarni o`z g`oyaviy qarashlarining bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma’naviy qiyofasidir.

Ikkinchidan, o`tgan yigirmanchi yuz yillikda kechgan adabiy jarayon ko`pgina raddiyalarga qaramasdan modernizmni inkor etib, bir chetga surib tashlagani yo`q, aksincha, uni inkor qilish orqali yanada davom etishiga yordam berdi va o`z doirasiga “modernizmdan tashqaridagi modernistlar” deya hisoblagan mualliflar asarlarini og`dirib oldi.

¹ Xolbekov M. Jahon adabiyotida modern va modernizm tushunchasi / XX asr modern adabiyoti manzaralari. – <http://kh-davron.uz>

Uchinchidan, modernizm – aslida, bu bir-biri bilan kurash olib borgan, o'zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar, manifestlar, dasturlar majmuasidir.

To'rtinchidan, modernizm – bu J.Joys va G.Stayn, F.Kafka va G.Kayzer, L.Pirandello va Yu.O'Nil, T.Mann va U.Folkner, A.Dyoblin va J.Dos Posos, B.Brext va E.Ionesko, X.L.Borxes va G.G.Markes, A.Myordok va G.Grasslarning modernizm ruhidagi matnlaridan iboratdir. Ularning barchasi modernizm nuqtai nazaridan o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan, ularning har biri alohida yondashishni, modernizmning butun tipologiyasiga, terminologik va stilistik tavsiflariga aniqlik kiritishni taqozo etadi.

Beshinchidan, modernizm – bu parallel ravishda mavjud bo'lgan matnlarning polifoniyasi (ko'povozlilik)dir.

Shunday qilib, XX asr modernizm adabiyoti ham xuddi XIX asr romantizm adabiyoti singari madaniy ma'no doirasiga aylandi, uning ichida G'arb dunyosi qadriyatlari tanqidiy jihatdan tekshiruvdan o'tkazildi.

II BOB
MODERNISTIK ROMANLARDA ILOHIY VA IRFONiy
G`OYALARNING O`RNI VA AHAMIYATI
(OMON MUXTOR ROMANLARI MISOLIDA)

2.1. “FFU” ROMANIDA DINIY VA MA`RIFIY
QARASHLARNING BADIY HAQIQATGA AYLANTIRILISHI

Biz ushbu ishda modernistik romanlarni tahlilga tortar ekanmiz, avvalo, “modernistik roman nima?” nima degan savolga javob topsak. Taniqli rus adabiyotshunosi Ludmila Pravila ushbu savolga shunday javob beradi:

XX asrda “tanqidiy” realizmdagi psixologik roman ko`pgina yozuvchilar ijodida davom etdi (Jon Golsuorsi, Frans, Romen Rollan, Tagor, Tomas Mann, Moravia, Grin, Ernest Xeminguey, Bell, Uilyam Folkner va b. ) Shu davrda ushbu janrda ikki qarama-qarshi xususiyatlar ko`zga tashlandi. Bir tomonda ideologik bilishninng inqirozi, ikkinchi tomonda esa qahramonnni haqqoniy tasvirlash uchun qaratilgan psixologik “naturalizm”ning ommalashishi. Ushbu jarayon mahsuli XX asr jahon adabiyotida modernistik roman deyiladi (A. Beliy, M.Prust, J. Joys, F. Kafka va b.) .

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, modernistik roman – bu sentimental romanga kirishadigan asosiy, keng hikoya qilish usulidir.

Bundan tashqari, «Словарь Культуры XX века» (“XX asr madaniyati lug`ati”)da modernistik roman janrining o`nta belgisi sanab o`tiladi:

1. Neomifologizm. Bu janr qadimiy, eski, mumtoz mifologiyaga murojaat qiladi, zamonning tadrijiy modeli hisobanadi.

2. Illyuziya va haqqoniylik. XX asr Yevropa modernizmi matnlari uchun xayol va haqiqat o`rtasidagi chegara favqulodda muhim rol o`ynaydi. Bu semiotik va mifologik haqiqat oralig`ida kechadi.

3. Matn ichida matn. Ushbu asosiy xususiyat “haqiqat va matn” binar oppozitsiyasidan iborat matn ichida matn almashish iyerarxiasini ifodalaydi.

4. Mazmunni hikoya qilish uslubi. XX asr adabiyoti romanlarida nima bo`lganligini aytish emas, qanday bo`lganligini aytib berish muhim hisoblanadi.

5. Fabulalar to`qnashuvi. Sujet va fabula ajralib ketadi, masalan, voqealar rivoji olg`a borayotgan bir paytda qahramon boshqa bir o`tmishdagi voqeani gapirib beradi. Modernistik romanda voqealarni xronologik holatda tiklab bo`lmaydi.

6. Leksika emas, sintaksisning ustunligi. Modernistik prozada til sintaktik qurilish borasida yangilanadi: bu so`z orqali emas, gap orqali amalga oshadi. Gap qurilishida grammatik me`yorlar buzilishiga ahamiyat berilmaydi.

7. Semantika emas, pragmatikaning ustunligi. Modernistik romanda dialoglar shunday beriladiki, muallif yoki qahramon kitobxon bilan suhbatlashayotganday his qilasiz, bevosita o`quvchiga murojaat qilib ketilaveradi. Shuning uchun modernistik roman kitobxon-yozuvchini tarbiyalaydi, deyiladi.

8. Tomoshabin. Tomoshabin, ya`ni o`quvchi va hikoyachi orasida doimiy aloqa mavjud bo`ladi. Bunda tomoshabinning fikri muhim rol o`ynaydi, hikoyachi bevosita unga murojaat qilib, maslahat olib ketaveradi.

9. Matnning aloqa tamoyillaridagi g`alizliklar. Bu tamoyillar matnning tili bilan shakllantiriladi. Modernistik prozada ular g`alizlashadi: gaplar mantiqan biri qolib, boshqasining ortidan ergashadi, sintaktik qurilish buziladi.

10. Autistizm. Bu so`nggi belgining ma`nosi shuki, modernist-yozuvchi asardagi hayotni polifonik tarzda ko`radi, xuddi mozaika shaklida aks ettiradi. Shuning uchun asarni tushunish qiyin bo`lib, uni muallif nigohi bilan ko`rishga harakat qilinadi. Professor A.Saidov ham modernistik romanninng xususiyatlaridan kelib chiqib, uni qiynalmay o`qish uchun nimalarga e`tibor berish kerakligi xususida quyidagi o`n maslahatni beradi [41, 68 – 75] :

Birinchidan, tarixiy nigoh kuchi bilan voqealarning teskari rivojlanishini to`g`ri rivojlanishga almashtirish lozim. Toki romanni uning adabiy kashfiyotchilikdagi chinakam asar sifatida idrok etishga erishmoq darkor.

Ikkinchidan, asar bizga tushunarsiz tuyuladi, ammo bu muallifning uquvsizligidan emas. U tushunarsizlik elementini ataylab olib kirgan. Badiiy butunlikdagi tushunarsizlikni yengish, estetik taassurot olish uchun ishtirokchining o'zi bilan munosabatda bo'lish lozim. O'quvchining tushunarsizlik elementini eng kichik miqdorgacha olib kelishga bo'lgan harakati modernistik romanni o'qishni osonlashtiradi.

Uchinchidan, modernistik romandan badiiy asar sifatida zavq olish uchun roman haqida ma'lum axborotga ega bo'lish lozim: romanning harakat olami, tuzilishi, qahramonlari, nomi va hokazolar bilan bog'liq ma'lumotlardan xabardor bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, roman asosiy qahramonlarining "ichki monologlari"ga, "ong oqimi" zahiriga kirib borishga intilish lozim.

Beshinchidan, romanning asosiy mavzusiga alohida e'tibor bermoq darkor.

Oltinchidan, romanning mumtoz an'analar bilan hamohang ekanini hisobga olish kerak.

Yettinchidan, romanning tashqi tomoniga emas, g'ayrioddiy va murakkab badiiyat bilan estetik aloqa o'rnatib, asar mag'ziga kirib borish lozim. Chunki modernistik roman o'quvchining miyasini haddan tashqari qattiq ishlatishga mo'ljallangan.

Sakkizinchidan, romanni o'qiyotganda uning yirik elementlaridan tortib, biz mutaxassisgina tushunishi mumkin deb hisoblagan mikroelementlarigacha e'tibor berish lozim, chunki mana shu kichik elementlar yiriklariga nisbatan juda ko'p bo'ladi.

To'qqizinchidan, badiiyatning barcha jihatlariga, ayniqsa, shakl va til vositalariga nisbatan alertlikni (mutaxassis bo'lmaganlar tilida jonli ta'sirlanish), sezgirlikni maqsad qilib olish kerak.

O'ninchidan, roman xronotopi (roman voqealari butun makoni va butun zamoni yig'indisi)ni bilish va fikrlarning yaxlit oqimini his qilish darkor.

Darhaqiqat, modernistik roman uni shunchaki o`qishga emas, balki har doim muallif bilan birga fikrlashga majbur qiladi.

Biz yuqorida sanagan modernistik roman xususiyatlari qatoriga ularda ilohiy va irfoniy g`oyalar ham ifoda topishini qo`shgan bo`lardik. Shu ma`noda ishimizda modernistik romanlardagi ilohiy, irfoniy, falsafiy, diniy, tasavvufiy, ma`rifiy g`oyalarni badiiy tahlil asosida o`rganishga ahd qilganmiz. Shu o`rinda biz foydalanadiga asosiy metod – badiiy tahlil usuli haqida qisqacha to`xtalishni joiz topdik.

Badiiy tahlil (ar. – tekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun-mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli aspektlarda o`rganib, o`ziga xosligini oshib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intellektual faoliyat.

Tahlil atamasi ilmda keng qo`llanuvchi analiz (yun. analysis – qismlarga ajratish) terminining sinonimi sifatida ishlatiladi. Har ikki atama ham butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o`rnini o`rganishni ko`zda tutadi. Ayrimlar badiiy asarni tirik organizmga qiyos etishadi-da, “uni qismlarga ajratish jonsiz tanaga aylantirishdan boshqa narsa emas”, degan qarashga tayanib, tahlilga qarshi chiqadilar. Biroq bu xil qarash asossizdir. Zero, birinchidan, adabiyotshunoslikdagi tahlil ham – o`qish, faqat bunda badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o`qish tushuniladi. Ya`ni tadqiqotchining asarni qismlarga ajratishi maqsad emas, bir vosita – asarning badiiyat hodisasi sifatidagi mavjudligini, undagi o`quvchi ongi va ruhiyatiga ta`sir qilayotgan, uning u yoki bu tarzda tushunilishiga asos bo`layotgan omillarni o`rganish vositasidir. Ikkinchidan, badiiy tahlil jarayonida har vaqt talqin amali ham mavjud (bu o`rinda talqin “interpretatsiya”ning sinonimi). Keng ma`noda “talqin” so`zi o`zga tomonidan aytilgan gap yoxud yozilgan asar (ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy va h.) mazmunini anglash, uni ma`lum yaxlitlikda tushunish va tushuntirish (adabiyotshunosning maqsadi tushunishning o`zigina emas, tushuntirish hamdir) ma`nolarini anglatadi.

Boshqacha aytganda, talqin badiiy asardagi “obrazlar tili”ni “mantiq tili”ga o`girmoq, obrazlar vositasida ifodalangan mazmunni tushunish va tushuntirmoqdir. Shunday ekan, chinakam ilmiy bo`lishi uchun talqinning tahlilga tayanishi shart qilinadi. Zero, agar talqin qiluvchi shaxs badiiy matnni chuqur bilmasa, asar qismlarini, ularning o`zaro aloqalarini etarli tasavvur qilolmasa, uning talqini ilmiylikdan yiroq subyektivlik kasb etadi.

Boshqa tomondan, badiiy adabiyotning obrazlar orqali fikrlashi, obraz esa assotsiativ tafakkur mahsuli ekanligi e`tiborga olinsa, talqin subyektsiz mavjud emasligi ham ayon. Chunki ijodkorning assotsiativ fikrlashi mahsuli o`laroq yaratilgan va asarda aks etgan obrazning mazmun qirralari faqat subyekt ongidagina (ya`ni uning ham assotsiativ fikrlashi asosida) qayta tiklanishi mumkin bo`ladi. Bular badiiy asarni tushunish jarayonida tahlil va talqin har vaqt hozirligiga yorqin dalildir.

Oddiy o`quvchidan farqli o`laroq, adabiyotshunos badiiy asarni talqin qilishda tahlilga tayanadi, uning talqini tahlil asosida yuzaga kelgani uchun ham ilmiy sanaladi. Shu ma`noda tahlil talqinning ilmiy asosi, badiiy asarni tadqiqotchi sifatida o`qish va uqish demakdir¹.

Biz “Ffu”, “Aflotun”, “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Uliss” kabi modernistik asarlar tahlilida mana shunday tadqiqotchi sifatida ish ko`rmoqchimiz.

Modernizmning shakllanishi va taraqqiyotida an`anaviy irfoniy tafakkurning yangi mazmunda qayta badiiy idrok etilishini o`rganishda nasriy asarda inson, e`tiqod va irfon (dunyoni va o`zlikni anglash) munosabatlarini o`zgacha talqinda ifoda etgan yozuvchi Omon Muxtor ijodi, aniqrog`i, romanlari alohida ahamiyat kasb etadi. Omon Muxtor o`z ifoda uslubini yarata olgan badiiy tafakkur egasi, zamonaviy falsafiy qarashlarning orifona g`oyalar bilan uzviy bog`liqligini ta`minlagan ma`rifatparvar inson, an`anaviy irfoniy qarashlar tizimiga zamonaviy mazmun baxsh eta olgan faylasuf-nosir, badiiy tafakkur

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – <http://www.quronov.narod.ru>

tizimida yangi timsol va ramzlar silsilasini yaratgan soʻz sanʼatkori sifatida zamonaviy oʻzbek adabiyotidan mustahkam oʻrin olgan. Shu oʻrinda uning ijodi va faoliyatiga doir ayrim dalillarni qayd etish zarur.

Buxoroda tavallud topgan shoir va nosir Omon Muxtor (asli ismi Muxtor Sulaymonovich Omonov; 16-iyul, 1941 — 10-may, 2013) 1958-yil maktabni, 1964-yil Toshkent davlat universiteti jurnalistika boʻlimini tugatgach, bir necha vaqt gazetalar tahririyatlarida adabiy xodim, Oʻzbekiston radio va televidenie Davlat Qoʻmitasi, «Oʻzbekfilm» hamda Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida muharrir, «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir oʻrinbosari boʻlib ishlagan, keyinchalik jurnalning bosh muharriri ham boʻlgan.

Uning ijodi garchi 50-yillarning oxirlaridan boshlangan boʻlsa ham, birinchi «Chorlar quyoshli yoʻllar» sheʼriy toʻplami 1966-yilda chop etiladi. Shundan soʻng u shoir, hikoyanavis, qissanavis, romannavis sifatida yigirmadan ortiq kitob nashr ettirdi.

Omon Muxtorning «Yogʻdu» (1979), «Marvarid» (1985), «Shiddat» (1990) va boshqa sheʼriy toʻplamlari, tarjima kitoblari bosilgan. Bundan tashqari, kattalar va bolalarga moʻljallangan yangi ertaklar, xayoliy manzaralardan iborat bir necha kitoblari ham nashr etilgan. Jumladan, bolalar uchun «Buvim ertak aytadi» (1971), «Kunlardan bir kun» (1985), «Ming yildan soʻng» (1991) kabi sheʼr, ertak va hikoyalar toʻplamlari mavjud.

Adib qator hikoyalar va qissalar muallifidir. «Nigoh» (1968), «Qushlar va tushlar» (1971), «Shaharlik kelinchak» (1973), «Buxorolik donishmand» (1973), «Hayot darvozasi» (1978), «Uchqur poyezdlar» (1981), «Bolalikka sayohat» (1984), «Vazifa» (1988), «Oʻlmagan jon» (1995) kabi hikoyalar va qissalar toʻplami shular jumlasidandir. Uning qahramonlari oddiy kasb-hunar kishilari boʻlib, adib sheʼrlarida ham, hikoya va qissalarida ham birovga ergashmaydi, oʻzi topgan aniq fikr bilan jonli manzara chizishga urinadi. Asarlarida Ayniy, Fitrat, Gʻafur Gʻulom kabi ustozlardan saboq olgani sezilib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (2009), «Do'stlik» ordeni sohibi (1997) bo'lmish Omon Muxtorning qator pyesalari Xorazm teatrida sahnalashtirilgan («Bosh masala» va b.).

Omon Muxtor dastlab «Yillar shamoli» (1976) va «Egilgan bosh» (1989) degan ikki roman e'lon qildi. «Egilgan bosh» romani uchun 1990-yilgi Yozuvchilar uyushmasining yillik adabiy mukofotiga sazovor bo'ldi. Adib tavalludining ellik yilligida (1991) esa unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi faxriy unvoni berildi.

Shundan so'ng uning «To'rt tomon qibla» trilogiyasi («Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba» romanlari) (2000) bosilib chiqdi. U yana «Ffu», «Ayollar mamlakati va saltanati» (1997), «Aflotun» (1998), «Maydon» («Sharq yulduzi» jurnali 2001 yil 1-son) romanlarini yozdi. Dastlabki ikki romani ma'lum darajada an'anaviy uslubda bo'lsa, keyingi romanlar o'z shakli va yo'nalishi bilan butunlay yangichadir. Ular, asosan, o'zbek xalq ertaklari, qissalari, dostonlari va afsonalariga suyangan holda inson hayotini aks ettirish bilan birga, uning xayol olamiga, ruhiyatiga sayohatni eslatadi. Adib ijodiga xos falsafaga moyillik bu romanlarda bo'rtib ko'rinadi. Ularda muallif inson qismati ham, uning ruhiy olami ham naqadar murakkab ekanligini aks ettiradi.

Omon Muxtorning «Ffu», «Ayollar mamlakati va saltanati», «Aflotun» romanlari yangicha uslubda yozilgani bilan kitobxon va adabiy jamoatchilik e'tiborini tortgan.

Biz dastavval Omon Muxtorning «Ffu» romanini tahlilga tortar ekanmiz, uning ilohiy va irfoniy g'oyalar bilan yo'g'rilganligini yana bir karra ta'kidlab o'tishni joiz deb topamiz. Bunday g'oyalar goh muallif, goh qahramonlar nutqida aks etib, asarning umumiy mazmuni, g'oyasi va qahramonlar tushib qolgan vaziyat, sharoit bilan hamohanglik kasb etgan. Masalan, romanda shunday fikrlarni o'qiymiz:

“Iblis deydi, havoyi nafsga berilib yashasalar – butga topinish shart emas! Men ularni uch yo'sinda yo'ldan ozdiraman:

1. *Harom, nohaq foyda topishga ruju orqali,*
2. *Yiqqanlarini noloyiq ishlarga sarflash orqali,*
3. *Loyiq bo`lgan ishlarga xarj qilishdan qaytarish orqali* ¹”.

Ushbu “eski, ming yillik” tushuncha haqida roman qahramoni Toshtemirning otasi o`ylar ekan, o`g`li zindonga tushgach, bu shaxsan Toshtemirga tegishli ekanligini aytadi. Chunki u ham nafs yo`lidan yurib, qasri saroy qurdirib, qishloqning eng boy usta-hunarmandiga aylandi-yu, endi shohlikka da`vo qila boshladi. Oqibatda esa “Oltin baliqcha”dagi kampir kabi hammasidan ayrilib, “teshik tog`ora qarshisida” qoldi.

Mulla Toshpo`lat (Toshtemirning otasi) xayolidan o`tkazgan ushbu fikrlar ham aslida Toshtemirga tegishli edi:

“Kishining xayolida dunyo xayoli – oxirat xayoli bilan yuzlashadi ²”.

Darhaqiqat, mol-dunyo haqida o`ylashdan oldin uning oxiratda savol-javobi borligi haqida ham o`ylash lozim. Mehnat qilish, pul topish, yaxshi yashash hech bir dinda taqiqlanmagan. Ammo islomda zakot degan tushuncha ham borki, kishi topgan molini halollash uchun ham uning ma`lum ulushini xayr-u ehson qilishi lozim bo`ladi. Zero din peshvolari ham boylik saxovat bilan go`zal va halol bo`lishini ta`kidlaydilar.

Maishatga berilib, halol insonlarning mulkiga ko`z olaytirgan, ularni qo`llash o`rniga battar ezgan “boy”ning so`nggi manzili pushaymonlik, qayerda qanday xato qilganini o`ylashga majbur qiluvchi sokin zindon bo`ladi. Shuning uchun Omon Muxtor aytadi:

“Hukmdorlar, amaldorlarning dabdabali hayotlariga qarama! Ularning qanday tezlik bilan dunyodan o`tib borayotganlariga va hayotlarining xotimasi yomon, ayanch ekanligiga qara! ³”

*“Dunyoning o`zi kaftdagi chang; chuqur nafas tortib, ffu! – desang, uchadi-ketadi!”* <sup>1</sup>” Toshtemir darvesh-qalandarlar orasida uchraydigan bu naqlni eslab, ajdodlari haqida o`ylaydi.

¹ Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати: Романлар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 48.

² O`sha asar, o`sha betda.

³ O`sha asar, o`sha betda.

Bu dunyoda hamma narsa, ayniqsa, davlat va umr o`tkinchi. Toshtemir onasidan erta ayrilgani, bir shohning saltanatini yo`qotib, yurtidan olisda yashagani, Iskandar Zulqarnaynning bu dunyoni tobutdan qo`lini chiqarib tark etganini eslab, shunday mulohaza qiladi.

Asarda bu kabi ilohiy-irfoniy g`oyalar ko`plab uchraydi. “Ffu” romani avvalida “Ostonada sochilgan satrlar” bobida muallifning shunday so`zlari qayd etilgan:

“Bu yozganim barchasi – eski gap.

Bironta yangi gap yo`q! Topolmaysiz.

Lekin sizni eski gaplar...

qiziqitirmaydimi?

Mening otam (eski odam edilar!) bir kuni baribir orqaga qaytasan, derdilar.

Men oldinga qarab yugurar edim...

Bu kun orqaga qayta boshladim”.

Roman qahramoni Toshtemirning fe’li birinchi marta o`zgarib havoyi nafs ortidan quvgandagi holati xuddi shu so`zlar bilan izohlanadi go`yo. Kishi qancha osmonga ko`tarilmasin, orqa-oldini o`ylamas ekan, baribir orqaga qaytadi, yanayam yomoni qancha yuqoriga ko`tarilgan bo`lsa, shuncha qattiq qulaydi. Ushbu falsafa ilohiy g`oyalardan biri bo`lib, “Qissasi Rabg`uziy” da ham Namrud hikoyati orqali ko`rsatilgan:

Namrud Ibrohimning tangrisi bilan jangga astoydil hozirlana boshlaydi va tangrilikni da’vo qilib, yirtqich qushlar yordamida ikki eshikli sandiqda ko`kka ko`tariladi: “*Qora qushlar bolalarin ektuladilar (tarbiyaladilar). Ulg`ardi ersa kezin bir sanduq yo`ndurdi, ikki qapug`luq – biri ustun, biri ostin. Sekiz azoqlig` - to`rti ustun, to`rti ostin²*”. Ustki ustunga yirtqich qushlarni bog`laydi. Namrud egniga sovut kiyib, yashik to`la o`q solib, xizmatkori bilan birga sandiq ichiga kiradi. Ustun ichiga bog`langan go`shtlarni ko`rgan och-nahor qushlar unga

¹ O`sha asar, 54- bet.

² Рабғузий Н.Б. Қисаси Рабғузий. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 68.

talpinadilar, sandiq ham ular bilan birga havoga ko`tariladi.

Bir kecha-kunduz uchgach, xizmatkoriga buyuradi:

- Ustki qopqoqni ochgil, nima ko`rinarkan?
- O`sha-o`sha holni ko`rarman, - deydi u ustki qopqoqni ocharkan.
- Ostki qopqoqni ochgil, nima ko`rinarkin? - buyuradi yana Namrud.
- Yer yuzining hammasini bir parchadek ko`rarman, - deydi xizmatkor.

Yana bir kecha-kunduz uchadilar.

- Ustki qopqoqni ochgil, nima ko`rinadir? - so`raydi Namrud.
- Osmon ilgar qanday ko`rinsa, shunday ko`rinur, - deydi xizmatkor.
- Ostki qopqoqni ochgil, ne ko`rinadir?
- Yer avval qanday ko`ringan bo`lsa o`shanday, - deydi.

Hali yetmabmiz, deya yana bir kecha-kunduz uchadilar.

- Tepa qapqoqni ochib qara-chi, nima ko`rinadur? - buyuradi Namrud.
- Hamma yoq tuman ichida qolibdi, - deydi xizmatkor. - Hech nima

ko`rinmaydir.

So`ngra pastki qopqoqni ochadi.

- Pastda ham tumandan bo`lak narsa ko`rinmas, - deydi xizmatkor.
- Endi yetib kelibmiz, deydi Namrud va osmonga qarata o`q otadi.

Shunda Jaboil alayhissalomga farmon bo`ladi:

“–O`qni olib baliqqa sanchgin-da, qonga belab sandiqqa tashla!

(Baliqning

bo`g`izlanmasligiga sabab shunda deydilar)¹”.

Qonga belangan o`q Namrudga qaytib kelgach:

– Osmon tangrisini o`ldirdim! - deb o`ylaydi va go`sht bo`laklarini yuqori ustundan olib pastki ustunga bog`laydi. Olloh deydi: “(Oyat) "Ular yomon makrlarni qilib ko`rdilar va ularning yomon tadbirlari Xudo qoshida edi".

Aytishlaricha, Namrud qavmida yuz ming odam Ibrohim payg`ambarga hayrixoh edi”².

¹ Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 44.

² O`sha manba, 44-bet.

Namrud osmondan tushgach, "Ko`k tangrisini o`ldirdim", deya qonli o`qni ko`rsatgach, bu so`zga ishonib yana kofir bo`lib ketadilar. “(Oyat) "U Olloh xohlagan odamini gumroh qilib qo`yadi va xohlagan odamini to`g`ri yo`lga solib qo`yadi"¹.

Ibrohim alayhissalomga farmon bo`ladi: "Borgil! Namrudga aytgil! Jang qilishga mayli bo`lsa, qo`shin hozirlasin!" Ibrohim alayhissalom bu farmonni Namrudga yetkazadi. Shundan keyin Namrud yurtlariga kishi yuborib qo`shin to`plashga kirishdi. Soni-sanog`i yo`q qo`shin yig`iladi. Ular boshdan-oyoq sovut kiygandi. Olloh taolodan chivinlar qo`shiniga farmon bo`ladi. Shunchalik ko`p chivinlar chiqib keladiki, osmonni qorong`ulik qoplaydi. Ular Namrud qo`shinlariga yopishib, ularning kiyimlarini, etlarini, otlarining eti-yu suyaklarigacha yeb bitiradilar. Namrud la`in saroyiga qarab qochib qoladi. Saroyga kirib hamma eshiklar-u tuynuklarni berkitib oladi. Olloh taolo bir zaif va oqsoq chivinga ilhom beradi. U teshikdan kirib kelib, Namrudning yanog`iga qo`nadi, u yerini chaqib, qon so`rgach, og`zi atrofida aylanib, so`ng burniga kiradi, miyasiga yetganda uni yeya boshlaydi. Qirq kungacha Namrudning miyasini chivin yeb turadi.

“Ka`b ul-Axborning rivoyaticha, Olloh taolo Namrud la`inga to`rt yuz yil podshohlik berdi va chivin to`rt yuz yil miyasini yemirdi. Namrudning oldiga kim kirsam, unga avval shapaloq bilan, unda ham tinmasa ensasiga musht bilan urishni buyurar edi²”.

Namrudga berilgan azoblar shuning uchun ediki, u to`rt yuz yil tangrilikni da`vo qildi va odamlarni o`ziga sajda qildirdi. Shuni unutmangki, ensalariga mushtlar yegan kimsa qanday qilib tangrilikka yarasin.

Bu choralar bilan og`riqlar to`xtamaydi. To`qmoqlar bilan urdira boshlaydi, ammo bundan ham og`riq bosilmaydi, holdan ketaveradi. Nihoyat bir pahlavon xizmatchisiga to`qmoq urish navbati keladi.

¹ O`sha manba, 45-bet.

² Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 45.

– Men borib, hammani bu balodan qutqarayin! – deydi-da, ertasi kuni saroyga kelib, to`qmoq bilan Namrudning boshiga chunonon soladiki, boshi yoriladi, u chivin kabutar suratida uchib chiqadi. Shundan keyin Jabroil alayhissalom qanotlari bilan u saroyni ko`tarib yerga bir urganda, osti ustiga chiqib ketadi. Namrud do`zaxga borib tushadi. Uning o`rniga Zul-arsh nomli podshoh taxtga o`tiradi.

“Ffu”dagi Toshtemir ham ustalar boshlig`i bo`lgandan keyin endi shohlikka da`vo qiladi va uning ham oxirgi manzili ortga qaytish bo`ladi.

Toshtemir davlat bilan bu dunyoni sotib olmoqchi bo`lgandi. Asarda molga haddan tashqari hirs qo`yishning oqibati u dunyo-yu bu dunyo lazzatlaridan ham mosuvo bo`lish bilan yakunlanishi mumkinligi ko`rsatilgan. Bu mumtoz adabiyotimizning yuksak namunalaridan biri “Qissasi Rabg`uziy”da ham aytiladi:

“Oqil kishilarga oy-u kunday ravshanki, kofirlar bu dunyoning chiroyini behad ko`p mol berib sotib oldilar, lekin og`rinmadilar, chunki ular ham mol oldilar, ham jamol. Musulmonman deguvchilar, sizlar oxirat Yusufin (ya`ni go`zal oqibatini) toat-ibodat otlik narx bilan sotib olishda og`rinmang, yo`qsa, ikkisidan ham quruq qolursizlar. Negaki, (Oyat) "Albatta Olloh taolo birovga oxiratning hisobiga dunyo beradi"¹.

Toshtemirning otasi ikkinchi marta o`g`li uchun “oshna”sining ikkinchi yarim aqlini “sotib olgan”da uning fe`li endi butunlay aksiga o`zgaradi. Endi u dunyo havaslaridan voz kechib, faqat poklanmoqqa tutinadi. Asar qahramonining ushbu holati tasavvuf g`oyalari bilan yo`g`rilgan. Bu narsa ham modern romanning mumtoz an`analardan oziqlanishini dalillaydi.

Toshtemir va otasi Mulla Toshpo`latning bir suhbatini ko`raylik:

“– Usta Mahmudni menga eslatmang, dada... Shunday gap yuradi. Qo`y o`z oyog`i bilan osiladi, echki o`z oyog`i bilan! Mening gunohlarimga hech kim mas`ul emas! O`zim... Lekin men birovlariga o`xshab yashashim ham shart emas! Menga odamlar o`rgangan orzu-havas, dunyoda qoladigan zurriyotning

¹ Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi. – B 84.

keragi yo`q. bular ham oddiy kishan, zanjir ekan; men angladim. Mol-mulk, bezak... bu ham ortiqcha yuk ekan; men angladim. Ne-ne buyuklar dunyodan toq o`tmagan! G`arib yashamagan! Nahotki, siz shularni baxt deb bilsangiz, dada?! Nahotki, poklanishdan katta baxt...

- Dunyodan yuz burish ham gunoh, bolam. Xudo yaratgan ne`mat... O`zi aytgan! Barcha tarki dunyo qilsa, dunyo nima bo`ladi?! Bu ro`yi zaminda hammamiz ham osiy bandalarmiz... “

Ota-bolaning ushbu mazmundagi bahslashuvi mumtoz adabiyotimizning eng go`zal obidasi, aruz vaznidagi birinchi turkiy epik asar , Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostonidagi O`zg`urmish (zohid; qanoat va ofiyat ramzi) va O`gdulmish (vazirning o`g`li; aql-zakovat ramzi)larning munozarasiga o`xshaydi. Dostonda O`gdulmish tarki dunyo qilgan qarindoshi O`zg`urmishga oila qurib, el orasiga qo`shilish, eligga xizmat qilishni aytadi:

“Oila qurish, o`g`il-qizlarni o`stirish lozim. Farzandsiz desalar, bu juda og`ir gap. Farzandsiz kishilar tilda ham, dilda ham o`kinishadi. Otadan keyin kishining farzandlari qolsa, uni tirik deb hisobla. Farzandsiz kishi olamdan o`tadigan bo`lsa, uning urug`i quriydi, nomi ham o`chib ketadi¹”.

Bu dunyo hoyu-havaslaridan kechgan, eligga xizmat qilish molga ega bo`lib, gunohga botish deb hisoblagan O`zg`urmishga javoban O`gdulmish shunday javob beradi:

“Agar bu dunyo ezguliklarini olib, kishining quti yuksaladigan bo`lsa, ular yovuz emas. Bu dunyo narsasini yesa, xalqqa bersa, shular tufayli yuzini yorug` qilsa, ularni yovuz deb bo`lmaydi...

Moli bo`lsa, kishi aql, bilim o`rganadi, barcha ezgulikka qo`l cho`zadi. Bu mol bilan kishi tilak tilasa, mol-dunyosi bir yo`lak, ya`ni vosita bo`lib, yuqoriga ko`tariladi ²”.

O`gdulmish u dunyoning tashvishi bilan yashashga azm qilgan O`zg`urmishga “Ffu”dagi Mulla Toshpo`lat singari “bu dunyoning ishlarini kim

¹ Хос Ҳожиб Ю. Қутадғу билиг. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б 73.

² O`sha asar, 85-bet.

qiladi” mazmunida shunday dalillar bilan o`z fikrini aytgan ediki, O`zg`urmish unga tan bermasligining iloji qolmagan edi. O`gdulmish Xudo insonga ikki oyoq, ikki qo`l, ikki ko`z, ikki quloq berganini, ularning biri bilan bu dunyoning, ikkinchisi bilan u dunyoning amallarini qilish kerakligini aytadi. Bu tasavvufdagi Naqshbandiya tariqatining “Dil ba yor-u, dast ba kor” (“Ko`ngling Oллоhda bo`lsin, qo`ling mehnatda”) degan aqidasi ham uyg`undir: faqat u dunyoning yoxud faqat bu dunyoning g`ami bilan yashash emas, inson ikkalasini baravar olib borishi lozim.

Omon Muxtorning “Ffu” romanida ham Mulla Toshpo`lat o`g`li bilan bir necha marta shunday suhbat qilganidan so`ng Toshtemir: *“Dunyoga nima uchun keldim?! Nega yashayapman?! Hayotda biron ma`no bormi yoki bu noma`lum bir nasibami?! Men kimman?! Makonim qayerda?! Quyundek tentirab, borayotgan manzirim qaysi?!”* – deb o`ylab qoladi. Shundan keyin u g`ordan chiqib, yoqtirgan qizi Nigor uchun bir obida qurishga kirishadi: imorat uchun joy tanlaydi, suv ochadi, tosh yig`adi, tosh yo`nish, yer qazishga kirishadi. Tun-kun shu ish bilan ovora bo`lganidan, uni otasi devona deb o`ylaydi. Toshtemirni, Nigor bu ishimdan suyunadi, meni kechiradi, degan umid o`qqa-cho`qqa tashlagan, pishitgan edi. Bu imorat avvalgilariga o`xshab omonat emas, umriboqiy, mustahkam qilib qurilayotgan edi.

Toshtemirning hatto tuz totmay, tun-u kun shu ish bilan mashg`ul bo`lib, hech kim qilolmagan ishga qo`l urishi, faqat yori uchun harakat qilishi mumtoz adabiyotimizdagi zabardast qahramon – Farhodning Shirin uchun qilgan harakatlariga o`xshaydi. Xayolda faqat yor. Uni hatto o`lim ham qo`rqit olmaydi, aksincha, maqsadi shu. Ilohiy ishqda oshiq inson qiyofasida aslida Oллоh jamolini ko`radi, Unga intiladi. Romanda ham mana shunday g`oyalarga modern tus berilgan, badiiy haqiqatga aylantirilgan.

Qisqasi, “Ffu” romanida modernistik tafakkur mumtoz an`analarga yondashuv asosida o`quvchi e`tiboriga havola etilgan va ushbu roman orqali sharqona qadriyatlarga yangicha tus berilganiga, asar mumtoz adabiyot namunalaridan oziqlanganiga guvoh bo`lamiz.

2.2. OBRAZ YARATISHDA ILOHIY VA IRFONIY G`OYALARNING O`RNI (“AFLOTUN” ROMANI MISOLIDA)

XX asr o`zbek adabiyotida Omon Muxtorning ham o`ziga xos ovozi va so`zi bor. Ushbu adabiy avlod ijodiga xos bo`lgan bevosita insonning murakkab olamiga murojaat qilib, ichki kechinmalarini turfa bo`yoqlarda ochishga intilish Omon Muxtor ijodiga ham xos. Shu bilan birga, abadiy mavzular—tabiat va muhabbatni yoritishga ko`proq va ayrica e`tibor, hayot hodisalari haqida teran falsafiy fikr yuritishga moyillik uning ijodida yaqqol ko`zga tashlanadi. Osoyishta ko`ringan ruhiy holat talqiniga qanchalik zid tuyulmasin, uning aksar asarlarida bosh belgi harakatdir. Bu uzoq yillar davomida yaratilgan ijod namunalaridagi qahramonlarga faol (harakatchan) qiyofa berilgani barobarida, hayotda Omon Muxtorning o`zi ham avvaldan yonib yashashga, yonib ijod qilishga, maqsad manzili sari yonib, shiddat-shijoat bilan olg`a intilishga da`vat etganini ko`rsatadi. U ham, qahramonlari ham bosgan har qadami, o`ylagan o`yi, ko`rgan-kechirgani, kuylagan kuyi harakatdan, "orom va sukutni bilmay" hayotda kurashib yashashdan iborat insonlardir.

Omon Muxtor “Aflotun” romanida ham mana shunday qahramonlarni yaratadi. Obraz yaratishda, uning xarakterini ochib berishda esa muallifga boshqa vositalar qatori, muallif yoki qahramon nutqi ifodalagan ilohiy va irfoniylar g`oyalar ham ko`makka keladi.

Avvalo, Omon Muxtorning “Aflotun” romanidagi ilohiy-irfoniylar g`oyalarni tahlil qilsak:

“Huzur-halovatning quli bo`lib qolgan kishi tanasini ham, ruhiyatini ham majruh qilib qo`yadi!”¹

“Oz narsaga qanoat qilgan odam donishmanddir. Negaki, bu qanoat uning ma`naviy boy ekanligini ko`rsatadi!”²

¹ Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б 7.

² O`sha manba, o`sha betda.

Suqrot tomonidan aytilgan bu hikmatlar aslida hayot tajribalaridan orttirilgan bo'lishiga qaramay, aslida tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan go'yo. Zero, tasavvufda ham qanoatli bo'lishga, shukr qilishga, nafsning quli bo'lib qolishdan saqlanishga, jismga emas, ruhga zeb berishga, ruhni boy va sog'lom qilib tarbiyalashga e'tibor beriladi. Jaloliddin Rumiy ham "Ma'naviyi masnaviy"da otning yemagi chavandozsiz bo'lmasligini aytgan edi. Ya'ni, otni chavandoz oziqlantiradi, yemagi yaxshi bo'lsagina u o'z yo'lida dadil davom etib, o'zi ham egasi ham manzil-u maqsadiga yetadi. Agar kishi tani ot bo'lsa, uning chavandozi ruh, yemagi esa ma'naviyatdir. Rumiy yuqoridagi gapi bilan kishi jismini ham otni boshqargan chavandoz kabi uning ruhi boshqaradi, demoqchi bo'ladi. Ruhning boyligi ma'naviy barkamollik bilan belgilanadi; jismni ma'nau baquvvat ruh boshqarib, uni ma'naviyat bilan oziqlantirsa, ya'ni ruhdagi ma'naviyat tanda ham o'zini namoyon qilsa (zohirdagi botinda aks etsa), jism ham, ruh ham zavol bilmay, murodi hosil bo'ladi.

Suqrotning quyidagi so'zlari ham irfoniy jihatdan g'oyat muhim ahamiyatga ega:

"O'limdan cho'chib-qo'rqib, joningni asrash unchalik qiyin emas, o'limga nisbatan insonni o'z cho'hi tubiga tortadigan axloqiy buzilishlar, ma'naviy yemirilishdan asranish ming chandon mushkuldir¹".

"Aflotun" romanida yana shunday bir o'rin borki, qahramonning harakatlarida diniy-axloqiy g'oyalardan xabardorlik sezilib turadi:

"SUQROT. Mening yonimda xayol surib o'tirmay, nega meni darhol uyg'otmading?!"

KRITON. Tangrining o'zi asrasin, Suqrot! Men o'zim, butun baxtiqarolik yetmagandek, senga uyqudan ham qolishni ravo ko'rmayman. Ana, kelib, sening shirin uxlayotganingni ko'rib, ajablanib, mayli, orom olsin, degan o'y bilan, atayin seni uyg'otmay turgan edim²".

¹Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б 25.

² O'sha manba, 3-bet.

Endi modernistik romanning yuksak namunasi bo'lgan “Uliss sarguzashtlari” (Jeyms Joys)dagi quyidagi parchaga e'tibor qarataylik (keyingi bobda bu asarga alohida to'xtalamiz):

“Aqlli targ'il mushuk ko'zini sfinksday pirpiratib issiqqina zinada yotib bolakayni kuzatardi. Ularga xalal bermagan ma'qul. Muhammad alayhissalom mushukning farog'atini buzmaslik uchun to'nining etagini qirqib qo'yganlar¹”.

Ushbu rivoyat diniy kitoblarda mavjud. Payg'ambarimiz etaklarida uxlab yotgan mushukni bezovta qilmaslik uchun to'nlarining etagini kesib olgan ekanlar. Bunga sunnat (payg'ambarning qilgan ishlari, amallari) deb qaralib, hanuzgacha erkaklar to'nining ikki cheti chokli, kesik qilib tikiladi.

Biz tahlil qilayotgan romanda ham ana shunday badiiy haqiqatlardan foydalaniladi.

“Aflotun” romanida ham Kritonning Suqrotni uyg'otmaganiga – uyqusiga xalal berishni o'ziga ep ko'rmaganiga sabab ham, balki, uning din va axloq ta'limini yaxshigina egallaganidandir. Zero payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar barcha dinlarda mavjud.

Asarda irfoniy g'oyalar talqiniga ko'p o'rin berilgan. Ayniqsa, Suqrot va Aflotunning hikmatlaridan turli o'rinlarda turli munosabat bilan (qahramon nutqida, xayol surganida, muallifning vaziyatga baho bergan o'rnida va h.k.) foydalanilgan. Bular asarning ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan. Masalan:

“Suddan keyin Apollodor: “Menga sening haq bo'laturib, o'limga borayotganing ayniqsa, alam qilmoqda, Suqrot!”- degan edi. Bunga javoban, Suqrot: “Men nohaq bo'lib, o'ldirilsam yaxshiroqmidi?!” – deb kulimsiragan edi²”.

“Go'zallik – hukmronligi tez o'tib ketadigan qirolichadir³!”

“Mening donishmandligim menda hech qanday donolikning yo'qligidir⁴!”

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Гафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 26-бет.

² Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 6 -7 .

³ O'sha manba, 8-bet.

⁴ O'sha manba, 9-bet.

“Xudoning O`zi meni shu holatimda (suhbat, bahsga kirishishini nazarda tutgan) yaratib, kuni bo`yi, tinmay, har joyda sizlardan har biringizni g`aflatdan uyg`otish, dunyodan voqif etish, tergash va poklikka chorlash uchun – bu shaharga yuborgan!” (9-bet)

“Ishni yaxshi boshlasang, yarmini bajardim, deyaver!” (9-bet)

“Arzimagan va befoyda narsalarga keragidan ortiq vaqt sarflash nodonlikdir!” (9-bet)

Suqrotning *“Kiyinishda olifalikka bormay, nafis yurishga harakat qiling. Kamtarlik – ko`rk, isrofgarchilik esa o`ziga bino qo`yish belgisidir!” (8-bet)* degan gapida esa diniy g`oya talqini mavjud. Hadisi Sharifdagi hadislardan birida ham toza-ozoda yurish, yuvinib, eski bo`lsa ham yuvilgan, yirtilgan joylari tikilgan kiyim kiyib, soch-soqolni tartibga solib yurish, hatto kishidan muattar hid taralib turishi kerakligi uqtiriladi. Shuningdek, hadislarda isrofgarchilik qoralanadi, kiyiming eskirmasin desang kiydir, ovqating uvol bo`lmasin desang, yedir, xayr-u ehson qil qabilidagi nasihatlar zikr qilinadi. Bu muallifning asarda ilohiy-irfoniy g`oyalarni badiiy asar haqiqatiga aylantira olish mahoratini ko`rsatadi, albatta.

Romanda tasavvufda mavjud yo`l, yo`lovchi obrazlarini ko`ramiz. Asar boshidanoq yo`l va yo`lovchiga ishora bilan boshlanadi. Ya`ni, muallif epigraf qilib tanlagan eski naqldanoq tasavvuf belgilariga guvoh bo`lamiz:

–Bu yerdan shaharga qancha vaqtda yetib borish mumkin?! – deb so`radi Suqrotdan bir yo`lovchi.

–Ketaver , - dedi Suqrot.

–Men yo`lni so`rayapman!

–Sen qanday yurishingni ko`rmasdan, buni aytish qiyin, - dedi Suqrot.

Demak, manzilga qanchalik tez yetib borish yo`lga otlangan yo`lovchining qanday harakat qilishiga bog`liq. Tasavvufda ham Olloh jamoliga yetishni niyat qilib, ishq yo`liga kirgan kishining manzilga qanchada yetishishi uning shariat, tariqat, haqiqat va ma`rifat bosqichlarining qay birida ekanligi,

ularni qay tarzda bosib o'tayotganligi, haqiqatga erishish uchun qay darajada harakat qilayotganligi bilan bog'liq.

Romanda Suqrot tilidan aytilgan shunday fikrlar borki, ularda ilohiy-irfoniy g'oyalar yaqqol o'z ifodasini topadi. Jumladan:

*“SUQROT (u 71 yoshda edi). Mening yoshimda, o'lar ekanman, deb toqatsizlanib-tipirchilash axir, kulgili, yarashmaydi, Kriton. Buni **qoli balo**, deydilar. Chidaysan¹”.*

Bunda qismatdan qochib bo'lmasligi, peshonada borini ko'rish muqarrarligi, ya'ni taqdiri azal Olloh tomonidan bitib qo'yilganiga imon keltirish, ishonish g'oyasi ilgari surilgan. Ushbu fikrni muallif tilidan aytilgan quyidagi so'zlar ham tasdiqlaydi:

“...Suqrot qismatdan qochib qutulolmaysan, deb o'z umrida boshga tushganni ko'z ko'rishiga o'rgangan, buni aqidaga aylantirib yuborgan edi...²”

Bu narsa qahramon xarakterini ochib berishga ham xizmat qiladi: qahramonning o'limdan qo'rqqanligi, haqiqatni himoya qilish uchun o'z maslagidan qaytmasligi, ikkiyuzlamachilikdan yiroqdaligi, hatto o'lim boshiga soya solayotgan bo'lsa ham, jonini saqlash uchun vijdoniga xilof harakat qilmasligi, uning donishmandligi (*“Mening yoshimda, o'lar ekanman, deb toqatsizlanib-tipirchilash axir, kulgili”*) va hokazo.

O'limi muqarrar bo'lgan Suqrotning o'z o'limini qo'rqqanmay, hatto kutayotganligi uuning foniy dunyoga emas, boqiy dunyoga intilishini ko'rsatadi:

*“SUQROT. ... Delosdan qaytib kelganidan keyin men o'lishim muqarrar bo'lgan **kema** yetib keldimi?! (Muqaddas bu kema yetib kelmagunicha, Afinada qatl marosimlari to'xtatilgan edi. Suqrot o'z o'limini 30 kundan buyon kutmoqda edi)³”.*

Bundan tashqari, romanda tush motivi ham borki, ilohiy motiv bilan bog'liq bu motivda “buyuk kishilarning o'limi haqidagi xabar ularga qaysidir ishora orqali oldindan ma'lum bo'ladi” degan eski qarash mavjud:

¹ O'sha manba, 4-bet.

² O'sha manba, 7-bet.

³ O'sha manba, o'sha betda.

“*SUQROT. Lekin mening o`ylashimcha , bugun emas, kema ertaga keladi. Men buni bejiz aytmayapman. Sen meni umuman, darrov uyg`otmaganing yaxshi bo`ldi, zeroqi, o`zim uyg`onishimdan jilla burun tush ko`rayotgan edim.*

...Tushimda oq kiygan nihoyatda ko`rkam, ulug`vor bir ayol mening yonimga keldi. U menga, Suqrot, uchinchi kun sening janozang o`qiladi, dedi¹”.

Bu ayol, balki, farishtadir. Balki, Jabroildir. Ushbu motiv ham ilohiy-irfoniy xususiyatga ega. Tush motivi boshqa bir o`rinda ham keltiriladi:

*“Aflotunni uchratishdan oldin u (Suqrot) **tush** ko`rgan; tushida go`zal bir oqqush uning ko`ksiga kelib qo`ngan, so`ng ajib nag`ma bilan yuksak fazolarga parvoz etgan edi. Va Aflotun ro`para kelganida, Suqrot: “Mana, mening oqqushim!” – deb nido qilgan edi...²”*

Romanda bir o`rinda Suqrotning faoliyati haqida gapirilganda, uning qarashlarida ilohiy va irfoniy jihatlar uyg`unlashib ketganligini ilg`ash mumkin:

“Suqrot yer ostidagi narsalar-u, koinot jumboqlari bilan shug`ullanib (jodugarlik va munajjimlik qilib) **yer va osmon ishlariga aralashadi**, degan fikr hukm surardi. (Aslida, Suqrot tabiiyot falsafasi va koinotshunoslikdan ancha ilgari ketgan edi!) Bu gaplar bekordan chiqqan emasdi. Xudo Suqrotga **tush ta`biri, g`aybdan xabar (ichki bir ovoz), Yer-u Osmon hikmatini** bergan. (Suqrotni inson kimligi va uning tafakkuri qiziqtirar edi, xolos!) Hozirgi qoralovchi (Anit, Melet va Likon)lar esa Suqrotga bunday ayb qo`yishadi:

*a) boshqalarga o`xshamagan **o`z qarashlari bilan yoshlar, ularning tarbiyasi, fikrini buzmoqda**; va b) hamma (butun Afina, balki Yunoniston) sig`ingan xudolardan yuz burib, **yangi iloha izlamoqda**, xudosizlik qilmoqda³”.*

Asarda ta`kidlanishicha, Suqrot sudda uch bora so`z oladi. Uning o`sha so`zlari bag`riga ma`rifiy , falsafiy g`oyalar singdirilgan:

“yoshlar fikrini men emas, balki sizlar buzayotgandirsizlar?! Buni bilib bo`ladimi?!”

¹ O`sha manba, 4-5-bet.

² O`sha manba, 10-bet.

³ O`sha manba, 6-bet.

“men iloha izlayotgan bo`lsam, xudosizlik qilgan bo`lamanmi?!”

“sizlar menga emas, o`z-o`zlaringga ziyon yetkazmoqdasizlar. Menga Meletdan ham, Anitdan ham ziyon tegmaydi, ular bunga qodir emas. Chunki dunyoda yomonning yaxshiga ziyon yetkaza olishiga men hech qachon ishonmayman!¹”

Romanda irfoniylar g`oyalar Aflotun obrazi orqali ham o`z ifodasini topgan. Jumladan, quyidagi parchaga e`tibor qarataylik:

“Aflotun sud jarayonida qatnashib, Suqrotning himoya qiladigan nutqlar so`zlagani yo`q! ...so`nggi nafasda Aflotun xayrlashish uchun uning yoniga ham bormadi! Uyda “kasal” bo`lib, yotib oldi.

*...Suqrotning ko`ksidan uchgan oqqush Afinadan
allaqayoqlarga chiqib ketdi.*

*Uni oldinda katta bir hayot yo`li
kutmoqda edi!²”*

Xo`sh, nega Aflotun shunday kunda ustozining yonida bo`lmadi? Bu savolga javobni asarning o`zidan izlaymiz: “Aflotun o`zi-o`zini aldashni istamas edi.

U, Suqrotning tanlagan-tutgan yo`lidan birov qaytara olmasligini yaxshi bilar edi!

Bunga (shogird ekanligidan) Aflotun, haqqi yo`qligini ham his qilar edi!

O`ta ehtirosli (hayotda ko`proq yorqin holatlarni ko`rishga o`ch) bo`lganidan, u o`limga borayotgan Suqrotning yonida turishga toqat qila olmas edi!

...Aflotun ustozining singari hayot zarbalariga bardoshli, chidamli edi.

...RUH(o`lim faqat jismning tugashi) BARHAYOTLIGIGA, U DUNYOda javob borligi, mukofot va jazo BARHAQ ekanligiga ishonar edi!

Shu sabablarga ko`ra, Aflotun, Suqrot o`ziga jazo tanlab, zahar yutganida, uyda “kasal” bo`lib, yotib olgan edi¹”.

¹ O`sha manba, 6-bet.

² O`sha manba, 10-bet.

Ushbu parchada ma'rifiy g'oya ham ilgari suriladi: millatning buyuk shaxslari siyosiy tuzum tufayli qatl qilinishiga ko'pincha, shu millat vakillarining o'zlari aybdor bo'ladilar-da, keyin pushaymon bo'ladilar. Shunday xatolarga tariximizda sho'rolar davrida bir necha bor qo'l urilgani ma'lum. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabilarning boshiga aynan o'zining millatdoshlari sababli qora kunlar soya soldi. O'zini anglagan xalq ularni kechirmaydi. Suqrot bilan ham shunday bo'ldi: uning o'limidan keyin Afinada qora kunlar boshlandi. Xalq xatosini anglab yetdi, ammo kech bo'lgan edi. Shuning uchun shoir M. Shayxzoda aytganiday:

Do'stlar, yaxshilarni avaylab, asrang,
Salom degan so'zning salmog'in oqlang.
O'lganda qabrida yig'lab turgandan,
Uni tirigida bir bora yo'qlang.

“Tarixning mangu o'yini! Birovni o'ldirib, uning qabri ustida zamonlar bo'yi nadomat ila achchiq ko'z yoshlar to'kish!” – deydi Omon Muxtor ham “Aflotun” romanida (26-bet).

Bunda o'tmishdan saboq olish g'oyasi ham olg'a surilgan.

Omon Muxtor Suqrot bilan bog'liq yuqoridagi holat orqali buxorolik ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat obrazini asarga kiritib, uning ijodi, faoliyati ma'naviyatimiz uchun naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Fitratning yo'qolgan merosi taqdiri bilan qiziqadi (“*Biron jur'atli ODAM, sandiq (Said aka poyezdda qoldirgan Raufning yozuvlari) qo'lga tushib, asraganmikan?! -Hech kim asramagan bo'lsa-chi?! Yo'qolgan bo'lsa?!²*”), uning ma'rifat bobidagi qarashlarini asarga singdiradi. Masalan:

“*Ma'rifat bobida Rauf (g'urur va iztirob bilan) – shunday yozgan edi:*

¹ O'sha manba, 30-bet.

² O'sha manba, 29-bet.

“Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o`tganda, bu kungi Ovro`po adabiyoti ham shapkasini olib, salom berib o`tadir. Shunga o`zini majbur ko`radir...

Yonib-bitayozgan chiroq eng so`ng davomda yalt etib birdan ko`tariladida, o`chib qoladir! Bizning til va adabiyotimiz ham, Umarxon davrida yalt etib ko`tarilgach, o`chib qoldi. Umarxon davrayi adabiyasidan keyin, adabiyotimizning janozasi o`qilg`och, tilimiz g`arib qoldi...”

U ayniqsa, so`nggi asrda ... kundan-kunga tasqara va eng muhimi, yo`lni yo`qotib o`zini har yonga tashlagan namoyishda yuribmiz, deb o`ylar ... edi!¹”

Yoki:

“Rauf oshkor

shunday deb ham yozgan edi:

“Sho`rolarni Turkistondan quvmoq Yer yuzini o`z qora qanotlari ostiga olg`on bir alvastini yo`q etmoq, cho`chqani masjiddan haydamoq, Qur`onni hayvon tepkisidan qutqarmoq, demakdir!²”

“Rauf Saidga imo qildi:

-Bu bitgan-bitmagan yozuv. Bir kun nasib etsa ulusga yarar... Men buni o`z birodarlarimdan hech biriga ishonmayman! ...Biri qo`rqoq, biri xushomadg`oy... Siz ilmdan ko`prak hunar kishisi. Sizdan ehtimol, gumon ham qilishmas!” (28-bet)

“Ezgulikning qo`li qisqa. Yovuzlikning qo`li uzun! Ezgulik sodda. Yovuzlik makkor!” (29-bet)

“U (Rauf) hayotni (Xudo yaratgan neki bor!) sevar, ... odamlar to`p bo`lib borayotgan yo`lga ham qaramay, SHAXSAN O`ZINI bo`lgan YO`LDA davom etmoqda edi!³”

Abdurauf Fitratning bu xususiyati Suqrot va Aflotundagi kabi edi. Asarning bosh qahramoni Usmon ham xuddi shunday xarakter egasi

¹ Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 18.

² O`sha manba, 19-bet.

³ O`sha manba, 19-bet.

hisoblanadi. Roman obrazlaridagi ushbu xususiyat mushtarakligi bilan ajralib turadi:

“Shuning barobarida, Rauf

O`LIMdan ham

qo`rqmas edi!

OZODLIK ISHQI – Rauf uchun

HAYOTGA MUHABBATdan ham

yuqori turar edi...¹”

Asar qahramoni Usmonga ham xos bu xususiyatni uning o`z yo`lida uchragan sinovlardan biri: quduqdan suv olib chiqishni bajarish jarayonida ham ko`rish mumkin. Quduqdan suv olib chiqish uchun belidan arqon bog`lab, oyog`i bilan tushgan ikki odamning xanjar bilan tilkalangan jasadi chiqadi. Uchinchi odam Usmon bo`lib, u oyoq ostini ko`rish va boshni ishlatish uchun ham boshi bilan quduqqa tushadi. Avvalgi yo`lovchilarning nega “omadi kelmagan”ini bilishni istagan Usmonga quduqdagilar:

“-Bu odamlar barchasi tashnalik azobini chekishga mahkum! Qancha daryolar, dengizlarni quritganlar. Parranda-yu darrandalarni qirganlar. Yer yuzi xarob, tuban... Sen ularga achinma!

-Sizlar shuning uchun tushganlarni o`ldirdinglarmi?!

-Ular o`zlarini o`zlari halok qildilar!²” – deb javob beradilar.

Ushbu javob orqali asarda ekologik muammolar va ularning oqibati naqadar mudhishligi ko`rsatilgan. Bu ham asardagi falsafiy-ma`rifiy g`oyalardan biri hisoblanadi. Zero, kelajagini o`ylagan odam o`z oyog`iga o`zi bolta urmaydi. Olloh bergan ne`matlarni oyoqosti qilmay, avaylab, aql bilan, bosh bilan ish qiladi.

Usmonning maqsadiga eltuvchi manzili Raufni izlab topish. Raufni topsa, suv yo`li ochiladi, keyin Ruxsorani topadi. Asar qahramoni shunga ishonadi. Usmonning karvondagilarga yaxshilik qilib, suv olib chiqsa, xudo ham

¹ O`sha manba, 19-bet.

² O`sha manba, 14-bet.

uning mushkulini oson qilishiga astoyidil ishonishini, uning millati, qolaversa, e'tiqodini hisobga olgan holda, quyidagi hadis bilan ham izohlash mumkin:

Mo'minlarning bir-birlariga ko'maklashmoqlari lozimligi haqida Hadisi Sharifda shunday deyiladi:

“Alloh taolo: “Yaxshilikka ko'mak bergan kishi yaxshi nasiba olg'usidir, yomonlikka ko'mak bergan kishi yomon nasiba olg'usidir! Alloh hamma narsaga qodirdir!” - deydi.

Abu Muso rivoyat qiladilar: *“Nabiy sollallohu alayhi vassallam, agar biror gado yoki hojatmand kishi huzurlariga kirib kelsa: «Ko'mak qilingiz, savob topg'aysiz! Alloh taolo o'z rasulining tilidan uning istagan narsasini aytirib, hojatini chiqarg'aydir!” – dedilar”.*

Usmon hayotni yaxshi ko'radi. Shahar-mamlakatda u o'zini o'lganman, deb o'ylaydi. Bir mahallar kasalxonada ham shunday holatni tuyganini eslaydi.

*“-Tinchiydigan nimadir beringlar. **Musulmonlar!** O'ladigan dori bersang ham mayli. Padariga la'nat!*

*Lekin aftidan, bu yerda **musulmonlar yo'q edi**. Xonada kimdir choynakni taraqlatib, choy quyar, kimdir sovigan choyni xo'rillatib ichardi... Unga hech kim javob ham qaytarib o'tirmadi” (21-bet).*

“Aftidan, musulmonlar yo'q edi” jumlasida piching ma'nosi bor. Unga hech kim yordam bermaganligi bois shunday deydi. Demak, musulmon kishi doim yordamga shay, yaxshilik qilishga, o'z birodari, dindoshlariga, umuman, Ollohning har bir bandasiga har qanday holatda bo'lmasin, yordam zarur bo'lganda iltifot qilishi zarurligiga ishora qilinadi bunda. Bir hadisda ham sahroda tashnalikdan qiynalgan yo'lovchi avval itning chanqog'ini qondirib, keyin o'zi suv ichganligi hikoya qilinadi. Bu uning musulmonga xos xususiyati hisoblanadi.

Usmon o'lim haqida yana do'sti Mahkamni tuproqqa topshirishayotganda, 20 yoshida tasodifan mayitni ko'rganda, qahvaxonada do'sti Roziq u o'lganida u haqida bir narsa yozishini aytganda, sichqon bilan fol ochuvchi bir folbin unga bir necha marta ham 40 raqamini ko'rsatganda va hozir

40 yoshida kasalxonada qornini changallab yotganda o`ylagan, o`limning barhaqligi, dunyoning omonatligini tuygan. Shunda Xudoni esga olgan:

“-Ey Xudoyim-e! Xudoyim! Xudojon!

...YOLG`IZ UNGA ro`para turibsan!

Ezgu va yovuz ishlaring uchun UNGA javob berasan!

Sening QISMATING ham UNGA bog`liq!

Folbinmi, hakimlar-u luqmonlarmi?! – ular

senga o`xshagan banda...¹”

Usmon 20 yoshida o`likni ko`rib, lablariga uchuq toshganda, *“uyqu oldidan qariya (otasi) oyoqlari uchida o`tirib, uni o`qigan, so`ng: “Bolam, shu odam sening tushingga kiradi. Unga, sizni Xudo rahmat qilsin, endi meni tinch qo`ying, deb ayt!” - mazmunida gap o`rgatgan edi²”*.

Ushbu qo`rqqanda o`qish odati eski odatlardan biri bo`lib, mifologiya bilan bog`liq. Bu ham modernistik romanning o`ziga xos belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, romanda yo`l, yo`lovchi, manzil, maqsad, oshiq, hoyu-havas, nafs, qanoat, aql va davlat, o`lim va oxirat, u dunyo va bu dunyo, jism va ruh kabi turli obraz va ifodalar ham borki, ular modernistik romanda tasavvufiy qarashlar yangicha talqin etilganligini, zamonaviy asarda mumtoz an`analarning o`zgacha qiyofasini ko`rsatadi. Shuning uchun bu haqda adabiyotshunos Sa`dullo Quronov shunday degan edi:

*“Jamiyatda, hamma narsada o`zgarish bo`lyapti, bu so`z san`atida ham sodir bo`lyapti. Hozirgi adabiyot namunalarini ham yangicha nigoh bilan tahlil qilish kerak”*. Chunki ular *“tom ma`noda an`anaviy uslubda yozilgan”* asarlardan nafaqat mazmun-mohiyati, balki ifoda xususiyatlariga ko`ra ham jiddiy farqlanadi.

S.Quronov postmodern oqimiga mansub asarlarni *“yo`l turkumidagi”* asarlar deb atagan edi. Bu iborani yuqorida tahlil qilganlarimiz – modernistik romanlarga nisbatan ham ishlata olamiz. Chunki ularda qahramon yo`lga

¹ O`sha manba, 24-bet.

² O`sha manba, 22-bet.

otlangan yo'lovchidan iborat bo'lib, ma'lum maqsad, manzilni ko'zlaydi va bu yo'lda turli sinovlarni boshidan kechiradi, toblanadi. Masalan, "Aflotun" romanidagi yo'l, manzil, oshiq, maqsad, yor, sinov, yo'lovchi obrazlarini izohlash uchun asardan olinga quyidagi birgina jumlani keltirishning o'zi yetarli bo'ladi:

"Usmon, odamlarga suv olib chiqsam, ularni shu balo-qazodan qutqarsam, o'shanda albatta, murod-maqsadimga yetaman, menga Ruxsorani ko'rish nasib etadi, deb o'ylaydi. Bunga o'zicha ishondi¹".

Usmon yo'lovchi, oshiq obraz hisoblanadi. U Ruxsorani izlab yo'lga otlanadi. Maqsadiga yetishi uchun esa avval Raufni topishiga to'g'ri keladi va yo'lda turli-tuman sinovlarni (sinovlardan biri sahroda qolgan karvondagilarga suv olib chiqish edi) boshidan kechiradi, hatto o'lim bilan yuzma-yuz bo'ladi. Nihoyat, o'zligini anglab yetadi: aslida izlaganlari bari o'zida ekanligini tushunadi:

"Karvondagilar katta-kichik, hamma unga (Usmonga) – xuddi o'ziga o'xshash tuyuldi! To'g'rirog'i, nazarida butun bir karvon emas, yalang sahroda bo'lgan – YOLG'IZ u edi! SHAXSAN O'ZI go'yoki ham tepada, ham pastda ... turgandek edi²".

Xuddi Navoiyning "Lison ut-tayr" idagi qushlar qidirgan Simurg` aslida o'zlari ekanligini anglab yetgunlaricha yo'lda turli sinovlardan o'tganlaridek, Usmon ham duch kelgan sinovlar natijasida avval otasi, keyin o'zi va o'g'li izlagan Ruxsora orqali o'zining kimligini, bu dunyoga nimaga kelganini, millatga xizmat qilishi, Abdurauf Fitratning omonatlarini topishi kerakligini anglaydi.

Asardagi yana bir tasavvufiy obraz yo'l va yo'lga boshlovchi pir obrazlaridir. *"Aflotun hayotda o'zi YURADIGAN YO'Lni yaxshi bilar edi!³"* Aflotunga bu yo'lni ko'rsatuvchi pir Suqrot edi.

"Suqrotni Aflotunsiz, Aflotunni Suqrotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi! Aflotun o'zining BUYUK VAZIFASI (shogirdlik burchi)ni bajardi. U DEYARLI

¹ Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 12.

² O'sha manba, 15-bet.

³ O'sha manba, 31-bet.

BARCHA asarlarini MUSOHABA shaklida yozdi va – BARCHA (bitta-yarimta mustasno) asarlarini SUQROTga bag`ishladi! AFLOTUNsiz SUQROT TARIXDA MUKAMMAL qolmasligi MUQARRAR edi!¹

Bunda tasavvufdagi ustoz-shogirdlik an'anasi mavjudligini ko`ramiz.

Xullas, “Aflotun” romanida obraz yaratishda ilohiy, irfoniy, ma’rifiy, mifik g`oyalardan foydalanilgan bo`lib, ular muallif nutqi, qahramon nutqi, aforizmlar, xotiralar, she’rlar, xalq og`zaki ijodi namunalari ko`rinishidagi parchalarda aks etadi va asarning umumiy g`oyasiga singdirib yuboriladi.

¹ Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 31.

2.3. “AYOLLAR MAMLAKATI VA SALTANATI”DA MIFOLOGIK QARASHLAR TALQINI

Yozuvchi Omon Muxtor mustaqillik yillarida eng ko‘p roman yozgan adib sifatida tanildi. Mustaqillik ijodkor imkoniyatlari doirasini kengaytirib yubordi. Bu haqda uning o‘zi suhbatlaridan birida: "Mustaqillik menga qanot baxsh etdi. Ilgari bunday asarlarni yozish u yoqda tursin, o‘ylash ham mumkin emasdi", - degan edi ("Turkiston" gazetasi, 2008- yil 14- may). Chindan ham ilk romani "Yillar shamoli" (1976- y.) bilan 2010- yilda nashr qilingan "Xotin podshoh" romani oralig‘idagi 34 yillik muddat ichida mustaqillik yillarida adib o‘ndan ortiq roman yaratdi. "Ming bir qiyofa", "Ko‘zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ffu", "Ayollar mamlakati va saltanati", "Aflotun", "Maydon", "Navoiy va rassom Abulxayr", "Odamlar kulishlari kerak" romanlari bosilib chiqdi. Bularning har biri o‘quvchilar va adabiy jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olindi. Jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bunday qiziqish bejiz emas. Gap shundaki, bu romanlar, eng avvalo, bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi, har biri o‘ziga xos. Ularning deyarli barchasi roman janrining an‘anaviy qoliplariga sig‘maydi, ular shaklan ham, mazmunan ham o‘zgacha yaratilgan. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarda shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko‘rinadi. Adib ilgari surayotgan g‘oyaviy niyatini shartli unsurlar, shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e‘tibor beradi. U o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan mangu va doimiy mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galareyasi orqali ham kashf etishga erishadi. Romanlarda tarix bilan zamon har doim yonma-yon turadi, qahramonlar ham o‘tmish va bugun orasida. Yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ojizlik va jasorat, loqaydlik va g‘ayrat, bilim va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini ayni chog‘da bu qahramonlar o‘zida to‘la mujassam etadilar. Omon Muxtor aytish mumkinki, polifonik romanlar ijodkori hamdir. Uning deyarli barcha romanlari syujet va kompozitsion qurilishi, voqelikni bayon etish usullari, umum tuzilishi va qahramonlarning o‘ziga xos ekanligidan boshqa adabiyot

namunalariga ham butkul o'xshamaydi. Muhimi, adib o'tgan asrning 90-yillarigacha o'zbek romanchiligida qaror topib kelgan monofonik (bir ovozli) bayonga asoslangan "tartib"ni buzib, polifonik (ko'p ovozli) romanlar yaratilishiga munosib hissa qo'shdi. Ammo bu polifonik romanlar o'z milliy ildizidan, ko'p yillik tarixga ega barhayot fazilatlardan uzilib qolgani yo'q. Aksincha, ular o'zigacha dunyoga kelgan Sharq an'anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko'tardi. Bu romanlar tarixiy-adabiy jihatdan ham, shakl-shamoyili bilan ham qadim xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi mavjud usullarga yaqindir.

“Modernizm yo`nalishida ijod etuvchi san'atkorlarda mif, qadimgi afsona va rivoyatlarga qiziqish yuqori bo`lgan. Ayniqsa, F.Kafka, T.Mann, B. Brext, J.Joys kabi ijodkorlarning asarlarida bu jihat yaqqol ko`zga tashlanadi. Albatta, bu modernizm talab etayotgan ifodaga judayam mos kelardi. Boisi, ustuvor xususiyatlari reallikni rad etish asosiga qurilayotgan bu yo`nalishning ifodaviy-g`oyaviy maqsadlariga folklor va uning inson ruhiyatiga bo`lgan ta`siri ahamiyatli sanalar edi¹” – deb yozadi adabiyotshunos olim Sa'dullo Quronov.

O`zbek modern adabiyoti namunalarini kuzatar ekanmiz, folklorga bo`lgan kuchli murojaatni, mifik obrazlar, afsona va rivoyatlardagi syujet, motivlardan badiiy-g`oyaviy maqsadlarda keng foydalanilganini ko`rishimiz mumkin. Masalan, “Ayollar mamlakati va saltanati”da muallif Alpomish degan bir qahramon haqida so`z ketganda bevosita “Alpomish” dostoniga murojaat qiladi va undan Barchinning shartlari, Alpomishning tush ko`rgani, Ko`kaldosh bilan maydon talashgani sahnalari bilan bog`liq parchalar ham keltiradi. Jumladan:

“Alpomish uxlab yotgan yerida Barchinni tush ko`rdi. Barchin bir kosa sharobni qo`liga olib, Alpomishni ko`rgach, yakka o`zi ichgani ko`ngli bo`lmay, Alpomishga oling-oling qilib, bir so`z aytib turgan ekan:

Oling, alyor-alyor,

¹ Quronov S. Ibtido va modern. – <http://kutubxona.com>

*Keling, alyor-alyor,
Bo`ling, alyor-alyor.*

*Kosa ushlab qo`lim toldi,
Biyning qizi mahtal bo`ldi,
Ko`nglingiz kimlardan qoldi,
Xon to`ram, sizga ne bo`ldi?!¹ ”*

Bundan tashqari, asarda er-xotin Olim va Hurriyatning o`rtasida kechgan kelishmovchilikni ko`rsatayotganda ham folklot namunalarida foydalanadi – bosh qahramon tilidan xalq maqolini keltiradi:

“Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham. Sen meni qora yer qilding...² ”

Olim bo`lgan voqealarni o`ylar ekan, yuqoridagi xalq maqolini o`zgartirib ko`radi:

“Nega ... “Ayolni ayol qiladigan ham er, hardamxayol qiladiggan ham er!” – deyilmaggan?! Xotin borasida esa gapni mixlab qo`yishgann! Erkak (Odam Ato)ning bir juft qovurg`asidan yaratilganiga qaramay, Xudonig balosi ekan – Ayol degani!³ ”

Shu o`rinda ayol zotining yaratilishi haqidagi diniy-mifologik qarashga murojaat qilingan: Momo Havvo (olamdagi birinchi ayol) Odam Ato (olamdagi birinchi inson)ning bir juft qovurg`asidan yaratilgan. Bu haqdagi rivoyat “Qissasi Rabg`uziy”da ham keltirilgan⁴.

Mif inson tafakkurining mahsulidir.

Darhaqiqat, xalq og`zaki ijodi bo`lgan mif hali odamlar tushunmagan, ularni hayratga solgan, qo`rqitgan va sevintirgan olam silsilalarining o`ziga xos yo`sinda anglanishi, ayqash-uyqash tasavvurlar mevasidir. Biz insonlar xohlasak-da mifik tafakkurdan voz kecha olmaymiz. U go`dakligimizdan buyon ongimizga, qonimizga singib ulgurgan. Modernizmning ustuvor ifodaviy

¹ Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати: Романлар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарк, 1997. – Б 80.

² O`sha manba, 77-bet.

³ O`sha manba, 79-bet.

⁴ Qarang: Рабғузий Н.Б. Қисаси Рабғузий. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б 15-29.

xususiyatlari ham inson ongining tub-tubidagi puchmoqlarni tasvirlash edi. Bu o`rinda mifik obraz ifodaviylikdagi bir vosita bo`lib, uning vazifasi ong ostida yashirinib yotgan hislarni qo`zg`atishdan iborat.

Ko`rinib turibdiki, modernizm yo`nalishi vakillari inson ibtidosidagi ruhiyatni qidirganlar. Uning ongsiz, tabiat bilan uyg`un holatidagi ichki ruhiyat manzaralarini ifodalashga uringanlar. Insonning ibtidoiy tafakkuri esa o`z-o`zidan mif, asotir va afsonalarga borib taqaladi.

Mifik obraz o`quvchi xayolotida o`ziga xos taassurotni uyg`ota olishi bilan ahamiyatlidir. Omon Muxtorning biz tahlil qilayotgan romanida bosh qahramon Olim ayollarni uch guruhga ajratadi: oddiy ayollar, parilar va alvastilar. U jarlik bo`yida, aloqa bo`limi binosining derazalari yonida, so`ng o`zining bog`-hovlisida, nihoyat, o`ngir (g`or) sahnasida bir xil ayollarni uchratadi va ular ko`ziga issiq ko`rinadi, ayrimlarini taniydi. Lekin ularning odam yoki boshqa olamdan ekanligi borasida ikkilanadi. Mana shu epizodning o`zida mifologiya mavjud. Farishtalar, jinlar va odamlarning yaratilishi haqida mumtoz asarlarimizdan biri, sharq mifologik qarashlari aks etgan hikoyatlar majmuyi “Qissasi Rabg`uziy”da shunday so`z boradi:

“Oллоh taolo farishtalarni o`tning yorug`ligidan, parilarni esa o`tning alangasidan yaratdi. Ularning asllari bo`lsa hamki, uch narsa bilan farqlanadilar. Biri shuki, farishtalar nurdan, parilar alangadan bino bo`lgandilar. Ikkinchisi shuki, farishtalar malak deb, parilar esa jin deb ataldi. Uchinchisi shuki, farishtalarning makoni osmonda, jinlarniki esa yerda bo`ladi¹”.

Bundan ko`rinadiki, Olim ko`rgan ayollar pari yoki alvastilar bo`lishi mumkin, chunki mifologik qarashga ko`ra, ular mavjud. Shunga ko`ra, xalqda tabu(ta`qiq)lar ham mavjudki, xilvat joylarga kishi yolg`iz bormasligi, aks holda jinlarga duch kelishi mumkin. Bunday tabulardan chekinish “e`tiqodning yuzakiligidan²” dalolat bergan.

¹ Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi. – B 2.

² Сафаров О. Фолклор – бебаҳо хазина (сайланма). – Т.: Мухаррир, 2010. – Б 199.

Qahramonimiz Olim ilgari ham bir necha marta bunday ayollar to`dasiga duch kelgan bo`lib, qayerdadir Ayollar mamlakati borligiga ishonardi. U jarlikda bir to`p ayollarni ko`rib, uni vahmimi-xijolat bosgandan keyin ilgari ham shunday holatga bir necha bor tushganini eslaydi. Olim birinchi marta pillakashlar fabrikasida qo`li kuygan-qabargan ayollar to`dasini, keyin zardo`zlik artelida qo`llarini “chumchuq cho`qigan” ayollar to`dasini, bir gal hammomda qiy-chuv qilgan ayollarni, yanagi gal esa askarlikda qamoqxonada sim-to`r ichidagi ayollarni ko`rib, uni o`sha vahmimi-xijolat egallagan. Albatta, ilgari ko`rganlari haqiqiy ayollar (odamlar) bo`lgan, ammo keyingi galdagilari (jarlikda, kemasimon binoda, g`orda ko`rganlari) jinlar yoki parilar bo`lgani ehtimoldan xoli emas. Chunki u ko`rgan ayollar, nihoyat, bog`-hovlida yig`ilishganda Olimning gaplariga hayron bo`ladilar, hatto bir-birlari bilan o`sha yerda birinchi marta tanishadilar. Shunchaki, o`sha kuni sodir bo`lishi kerak bo`lgan voqea (xotini Hurriyat va uylanmoqchi bo`lgani Zeboning uchrashuvi)ga ishoralar bo`lib, tasodiflar Olimni gangitib qo`yadi va ko`p o`ylaganidan xayolida allanimalar sodir bo`laveradi. Bu uning ong osti bilan ham bog`liq edi. Bunday obrazlar Omon Muxtorning mifologiyaga murojaat qilganidan dalolat beradi.

Romanda ruhning aylanishi haqidagi tasavvurlar kiritilgani ham mifik qarashlarga misol bo`ladi. Olim Toji aka ismli Aloqa bo`limining qorovulini Stallinga, Amir Nasrulloaga o`xshatadi. Balki, ularning jismidagi ruh bittadir, deb o`ylaydi. Ularning tashqi ko`rinishlari ham o`xshash bo`lganiga shubha qilmaydi. Hatto tutgan yo`llari ham o`xshash : Amir Nasrulloning Nodirabegimni qatl etgani, Stallinning xotini Aliluevani joniga qasd qilish darajasiga keltirgani, Toji akaning qizi Mohirani miltiq bilan otib qo`ygani (Olim Mohirani Nodirayi davron deb atardi) . Bularni o`ylab, Olim ruh tanadan tanaga ko`chib yurishi haqidagi mifga ishona boshlaydi.

Mifologik maktab vakillari adabiyot va san`atning vujudga kelishiga miflar asos bo`lgan deya ta`kidlaydilar. Bu maktabga ko`ra mif badiiy adabiyotning javharidir. Umuman olganda, XIX asrga kelib san`atning yangi

bosqichdagi rivoji ham bevosita folklor bilan mushtarak bog`liqdir. Bu haqida «Adabiyotshunoslik lug`atida» shunday yoziladi: «Zero, klassitsizm davri sig`ingan antik etalonlardan, ma`rifatchilik topingan aql kultidan bezgan romantizm vakillari xalq og`zaki ijodida chinakam ekzotika, bitmas-tuganmas xazinani ko`rdilar». Demak, xalq og`zaki ijodi doimo yozma adabiyot uchun ilhom manbai bo`lib kelgan. Uning zamiridagi chinakam badiiyat, falsafa va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi modern san`atkorlar ijodida ham o`ziga xos talqinda namoyon bo`lmoqda.

Ushbu romanda yo`l, yo`lovchi, manzil, maqsad, oshiq, hoyu-havas, nafs, qanoat, aql va davlat, o`lim va oxirat, u dunyo va bu dunyo, jism va ruh kabi turli obraz va ifodalar ham borki, ular modernistik romanda tasavvufiy qarashlar yangicha talqin etilganligini, zamonaviy asarda mumtoz an`analarning o`zgacha qiyofasini ko`rsatadi.

E`tibor beradigan bo`lsak, modern romanlarning barida yo`l, yo`lovchi, manzil va maqsad hamda yo`lda uchragan sinov motivlari mavjud. Biz tahlil qilayotgan romanda ham shunday:

Olim – yo`lovchi, u dastlab Zebo ismli ayol bilan uchrashish va uni sha`riy nikohiga olish taklifini bildirish uchun (maqsad) bog`-hovli tomon otlanadi (manzil). Yo`lda esa sinovlarga duch keladi, bir necha yo`llardan o`tadi, bir necha marta manzilni o`zgartiradi, yo`llarni adashtiradi va hokazo:

*“Yigirma- o`ttiz qadam narida, xuddi so`qmoq bilan yonma-yon
qayroqtosh yotqizilgan qandaydir yo`l
yastangan edi...*

Bu yo`l oldindan bormidi?!¹”

“Xotin-ko`prik boshqa tarafda, uzoqda! –

Lekin Olim duch kelgan joy o`sha joyni eslatar! –

eslatish ham gapmi?! – go`yoki Xotin-ko`prikning o`zi shu yoqqa

“ko`chirib” keltirilgandek edi!²”

¹ Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати: Романлар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б 81.

² О`sha manba, 82 – 83-betlar.

Bundan tashqari, Olim yo`lda kutilmagan daraxtzorga, so`qmoqqa, qayiqsimon binoga, jarlikka, qandaydir g`orga (Ayollar mamlakati!), allaqaysi idoraga duch keladi. Har gal nimagadir duch kelganda asosiy maqsadi o`zgarib, o`sha joyning nimaligiga, u yerdagilar kimligi va nima bilan mashg`ulligiga qiziqadi.

Qahramonimizning yo`ldan adashishi, umuman kutmagan yo`llarning, joylarning birdan yo`ldan chiqib qolishi kabi motivlar mifologik qarashlar bilan bog`liq. Xalqda jin-ajinalar yo`ldan adashtiradi, oldin ko`rmagan narsalar birdan ko`zingga ko`rinadi, degan gap bor. Shuning uchun pana, chekka, odam kam bo`ladigan joylarga yolg`iz borish xavfli sanaladi. Jin chaladi degan mifologik qarash mavjud.

Asarda yan abir mifologik qarashga guvoh bo`lamiz:

“Hindistonda ... jodu kishilari orasida:

“bundaylari ham borki, bir marta ko`z qirini tashlab uchragan odamini yiqita oladilar. Yana aytishlaricha, ular nigohi tegib – o`lgan kishilarning ko`krak qafasi yorib ko`rilsa, yuragi o`z o`rnidan “ko`chgan” – yo`qolgan bo`larmish...¹”

Bu xalq mifologiyasidagi ko`z tegishi haqidagi qarashlardir. Ko`z tegishi haqiqatdan ham mavjud. Shuning uchun ko`z tegishi kishiga emas, biron-bir jismga ursin deb, ko`zga ko`rinadiga joyga nimadir taqib yurishadi. Qadimda esa ayollar ko`z chehraga tegmasin degan maqsadda yuzlarini harir parda bilan to`sib yurishgan ekan. Ko`z tegishi haqida “Qissasi Rabg`uziy”ning Yusuf haqidagi qissasida ham bayon etilgan. Ko`z tegishida nima hikmat bor, degan savolga shunday javob berilgan:

“Hikmat shuki, Olloh taolo mo`minlarini suydi hamda o`zini va mo`minlarini “Seving!” dedi (Oyat) “Olloh ularni yaxshi ko`radi va ular Ollohnini yaxshi ko`radilar”. Qachinki, mo`min odam biror narsaga suyuk ko`zi bilan qarasa, Olloh taoloning rashki kelar. “Mendan boshqaga suyuk ko`zi bilan qaramasin ” deya o`sha narsani halok qilar.

¹Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати: Романлар ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б 92.

Rasul alayhissalom debdilarki: “Men rashkchiman, Sa’d ham rashkchi, ammo Olloh har ikkalamizdan ham rashkchiroqdir¹”.

Qisqasi, mumtoz adabiyot an’alarini o‘zida izchil davom ettirayotgan zamonaviy o‘zbek adabiyoti, bir tomondan, adabiy an’analarga hurmat va e’zoz yo‘lidan, ikkinchi tomondan esa, o‘z aqidalarini va ularning ifoda yo‘llarini yangilash yo‘lidan rivojlanib bormoqda. Buning isbotini yuqoridagi asarlar tahlili jarayonida yana bir bor ko‘rib o‘tdik.

¹ Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi. – B 105.

II BOB BO`YICHA XULOSA

Biz yuqorida tahlil qilgan romanlar shuni ko`rsatadiki, g`arb adabiyotida paydo bo`lgan modernizm o`zbek adabiyotida to`la-to`kis nash`u-namo topa olmaydi. Suvon Meli ta`kidlaganidek, sharqona islomiy ma`naviyat, o`zbek ma`naviyati bunga yo`l qo`ymaydi. Xususan, “Ffu” romanida ham modernistik tafakkur mumtoz an`analarga yondashuv asosida o`quvchi e`tiboriga havola etilgan va ushbu roman orqali sharqona qadriyatlarga yangicha tus berilganiga, asar mumtoz adabiyot namunalaridan oziqlanganiga guvoh bo`lamiz.

“Aflotun” romanida esa obraz yaratishda ilohiy, irfoniy, ma`rifiy, mifik g`oyalardan foydalanilgan bo`lib, ular muallif nutqi, qahramon nutqi, aforizmlar, xotiralar, she`rlar, xalq og`zaki ijodi namunalari ko`rinishidagi parchalarda aks etadi va asarning umumiy g`oyasiga singdirib yuboriladi.

“Ayollar mamlakati va saltanati”da esa, asosan, mifologik qarashlar, xalqona taqiqlar, tabular, irimlar talqiniga guvoh bo`lamiz.

Umuman olganda, mumtoz adabiyot an`analarini o`zida izchil davom ettirayotgan zamonaviy o`zbek adabiyoti, bir tomondan, adabiy an`analarga hurmat va e`zoz yo`lidan, ikkinchi tomondan esa, o`z aqidalarini va ularning ifoda yo`llarini yangilash yo`lidan rivojlanib bormoqda. Buning isbotini yuqoridagi asarlar tahlili jarayonida yana bir bor ko`rib o`tdik.

III BOB
DINIY VA MA'RIFIY MOTIVNING G'ARB VA SHARQ
MODERNISTIK ROMANLARIDAGI BADIY-G'OYAVIY QIYOSI

3.1. JEYMS JOYSNING "ULISS" ROMANIDA DINIY-AXLOQIY
TA'LIMOTLAR IFODASI

Irlandiyalik buyuk ingliz yozuvchisi, XX asr modernizm adabiyotining darg'alaridan biri, "Dublinliklar" (1914) hikoyalar to'plami, "Rassomning yoshlikdagi portreti" (1916), "Uliiss" (1922), "Finnegancha ma'raka" (1939) romanlarining muallifi Jeyms Joysning ijodi XX asr jahon adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. U so'nggi ikki romani bilan roman janrini isloh qildi va XX asrning atoqli yozuvchisi, modernizmning asoschilaridan biri bo'lib qoldi. Uning bu asarlari o'z tuzilishi bilan an'anaviy romanlardan farqlanadi. Ular nutq shakllari va hikoya qilish usuli muntazam o'zgarib turishi, afsonalar va tarixiy voqealarga murojaat qilinishi bilan ichki tarhi murakkab qasrni eslatadi.

Adib ijodining asosiy shakllanish davri u yepifaniyalar yoza boshlagan yillarga (1900 — 1903) to'g'ri keladi. «Yepifaniya» (epiphanis) «Tangrining yuz ko'rsatishi, tangriga yetishuv», degan ma'noni anglatadi. Joys yepifaniyaning asl ma'nosini o'zgartirmaydi, balki uning mazmun ko'lamini kengaytiradi. Uning yepifaniyasini bugungi adabiy tilga «tagma'no», deb o'g'irish mumkin.

Joys ijodida ramzlar katta o'rin tutadi. Adib uslubidagi bu muhim xususiyat norvegiyalik dramaturg Henrik Ibsen metodiga mansub. Juz'iylik va umumiylikning o'zaro aloqasi, axloqiy muammolarga urg'u berish Ibsen piesalarida realizmning ramziylik bilan uyg'unlashib ketishini ta'minlagan. Bu usul o'z navbatida Joys ijodi uchun ham xarakterli.

Joys natri musiqa asarini, xususan, simfoniyaning eslatadi; puxta o'ylanib tizimlashtirilgan leytmotiv asosida bosh mavzu muntazam aylanaveradi. Mazkur

muntazam leytmotiv usulini Joys Vagnerdan o'rgandi. Ilk nasriy asarlardayoq yozuvchi bu usulni shu qadar maromiga yetkazdiki, uning vositasida tashqi tomondan turfa, uzuq-uluq fakt va favqulodda hodisalarni jamlab, maishiy tumush va ramziylikni yuksak mahorat bilan bog'lay oldi. Uning mashhur «Uliss» asari yetti yillik mashaqqatli mehnati tufayli yuzaga kelgan. Bu roman dunyoda yagona, hech bir badiiy asarga o'xshamagan, falsafiy-psixologiya asar. «Uliss»ga modernizm, syurralizm, ekzistentsializm, freydcha psixoanaliz uslubi namunasi, «tafakkur oqimi» yo'nalishidagi roman, XX asr subyektiv idealistik dunyoqarashi namunasi kabi ta'riflar berilgan.

Sobiq ittifoqda bu asarga qiziqish, uni o'rganish o'tgan asrning 20-yillaridanoq boshlangan edi. Ilk bor litov tiliga, keyinchalik latish, eston, rus, gurji va arman tillariga tarjima qilindi. O'zbek o'quvchisi bu ulug' yozuvchi ijodi bilan istiqlool sharofati tufayli bahramand bo'la boshladi. Bu g'aroyib romanni kitobxonlarimizga taniqli olim va tarjimon Ibrohim G'afurov o'zbek tilida taqdim etdi.

J. Joysning hozirgi zamon adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri g'oyatda ulkan. E.Xeminguey, U.Folkner, T.Vulf kabi dunyoga mashhur adiblar uning shogirdlari bo'lishgani, ular o'z asarlari haqida Joysning e'tirofini ilhaq bo'lib kutishgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

“Uliss” ni modernizm namunasi, aniqrog'i, uning cho'qqisi deb baholasak bo'ladi. Zero modernizm adabiyoti deganda ko'proq biz bilgan barcha “izm-izm”larning qo'shilmasidan iborat zamonaviy adabiyotni tushunishimiz kerak, bizningcha.

Joys ijodi va ijodiy prinsiplari, asosan, rus adabiyotida ko'proq o'rganilgan. S.Xorujiy, R.Miller-Budnitskaya, I.L.Roskolotko, N.P.Mixalskaya, Y.Geniyeva, D. Urnov, M.Urnov, D.G.Jantiyeva, T.Motileva, Y.Meletinskiylar Joys ijodini o'rganib, tadqiqotlar yaratganlar va nomzodlik ishlari tayyorlaganlar. Ularda, asosan, Joys ijodiga xos falsafa va mifologizm tadqiq qilingan.

Jeyms Joysning yetti yillik mashaqqatli mehnati sharofati ila dunyoda yagona, olamshumul, hech bir badiiy asarga o`xshamagan, necha-necha olimlar, ahli adabiyot ustida haligacha bosh qotirayotgan falsafiy-psixologik asar dunyoga keldi. “Uliss” deb nomlanuvchi bu asarni o`qib, ne-ne ta’riflar berilmadi: modernizm qomusi, syurrealizm, ekzistensializm namunasi, freydistik psixoanaliz uslubi, tafakkur oqimi yo`nalishi, XX asr subyektiv idealistik dunyoqarash namunasi va hokazo. Nima bo`lganda ham Joys an’anaviy klassik yo`lni inkor etib, o`ziga xos yangicha yo`lni topgan edi.

Tirikligidayoq klassik yozuvchi sifatida tan olingan buyuk irland adibining hayoti va ijodi, badiiy-estetik qarashlari, asarlari atrofidagi bahs-munozaralar, tadqiqotlar hamon davom etayotganligi J.Joysning XX asr adabiy hayotida chinakam fenomen sifatida namoyon bo`lganidan dalolatdir.

“Men kitobimni juda puxta o`ylaganman va uni san’atning mumtoz an’alarini qanday tasavvur etsam, shundayligicha qabul qilaman”, - degan edi Jeyms Joys o`zining “Uliss”i haqida.

Darhaqiqat, asar modernistik ruhda bo`lishiga qaramay, unda mumtoz an’analarga xos ilohiy-irfoniy g`oyalar talqini mavjud. Jahon tarixidan ma’lumki, diniy kitoblarni o`qish, o`rganish muammo bo`lgan davrlarda xalq diniy qarashlar, amallar, odatlar, din bilan bog`liq bilimlarga va ruhiy-ma’naviy taskinga san’at, aniqrog`i, adabiyot vositasida ega bo`lganlar. Bugun modernistik romanlarda ham ilohiy-irfoniy masalalarga (zamonaviy asarlarda eskicha qarashlar, tasavvuf talqini!) duch kelamiz. Adabiyotshunoslikda modernistik romanlarning bu jihati hali o`rganilmagan bo`lib, biz sof modern adabiyoti namunasi bo`lgan “Uliss” misolida bu boradagi ayrim mulohazalarimizni keltirmoqchimiz.

Asardagi diniy mavzuga oid fikrlarni o`qib, muallif sharq va g`arb falsafiy, diniy qarashlari haqida yaxshi bilimga ega bo`lganligiga amin bo`lamiz. Jumladan, turli diniy marosimlarda marhumni dafn etishning turlicha odatlari mavjud: ko`mish, suvga oqizish, yoqish, ochiq havoga minoraga – ostadonlarga qo`yish va hokazo. Asarda shunday hayotiy haqiqatlardan foydalanilgan: “Men

“Xitoyga sayohat”ni o`qiganman, xitoyliklar oqtanlilardan murda isi keladi deyishgan. O`tda kuydirish ma`qulroq. Bu ruhoniylarga yoqmaydi. Boshqa bir tashkilot uchun jon koyitishadi. Krematsiya va golland pechlari, ulgurji savdo. Qora o`lim. Chuqur qazib o`shanga tashlanglar, kuydirilmagan ohak barini yemirib yo`qotadi. O`lim kamerasi. Xok-u xok. Yo dengizga ko`mish. Forslarning sukunat minorasi qayerda edi? Qushlar yeb ketadi barini. Tuproq, o`t, suv. Hammasidan ham suvga cho`kkan yaxshiroq deydilar¹”.

Islomda bu dunyodan o`tganlar haqida yomon gapirish taqiqlanadi. Shunday taqiq boshqa dinlarda ham mavjudligiga “Uliss” orqali amin bo`lamiz: *“Jilla qursa ikki yilcha marhumlar ustidan kulmagan ma`qul. De mortuis nil nisi prius* ( lot. O`lganlar haqida yaxshi gapir yo churq etma). *Mayli motam tugasin²”*. Injildan olingan bu iqtibos nafaqat xristianlik dinida, balki islomda ham dinning ikkinchi muqaddas manbasi bo`lmish hadisi sharifda tilga olinadi: *Marhumlarning ortidan yomon gapirish gunohi kabiradir.*

Boshqa bir o`rinda esa Joys shunday deydi:

“Bitta begunohni aybdor deb topishdan ko`ra to`qson to`qqizta gunohkorni oqlagan ma`qul”.

Ushbu diniy g`oyada katta ijtimoiy- falsafiy g`oya mavjud. Undagi axloqiy-tarbiyaviy mohiyat bugungi kun uchun ham ahamiyatli. Ayniqsa, yuksak ma`naviyatli shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilgan jamiyatimiz ham halollik, adolat, vijdon, tuhmatdan nafratlanish, qalb pokligi borasida shu kabi ilohiy-irfoniy g`oyalardan foydalana oladi.

Romanda xalqning diniy marosimlar bilan bog`liq o`ziga xos odatlaridan ham foydalanilagan: *“Kallasiga oq shokila tojlar osilgan oq otlar Rotoda muyulishidan chopib chiqishdi. Kichkinagina tobut lipillab o`tdi. Loshni tez ko`mish. Motam karetsi. Uylanmagan yigit”.*

Ko`milayotgan marhum uylanmagan yigit ekanligini kuzatuvchilar otlarning rangidan bilishadi. Bizda marhumni yosh bo`lsa qizil, o`rta yoshli

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 8-сон, 58-бет.

² O`sha manba, 53-bet.

bo'lsa ko'k, keksa bo'lsa oq tobutda olib ketganlari kabi inglizlarda ham hikoya qilingan davrda tobut ortilgan otlarning rangiga qarab marhum haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'lgan ekan: uylanmagan yigitlarga oq ot, uylangan yigitlarga qora ot, bo'ydoqlarga chavkar, rohibaga bo'z qirchang'i.

“Uliiss”da oldin ham esga olganimiz: *“Aqlli targ'il mushuk ko'zini sfinksday pirpiratib issiqqina zinada yotib bolakayni kuzatardi. Ularga xalal bermagan ma'qul. Muhammad alayhissalom mushukning farog'atini buzmaslik uchun to'nining etagini qirqib qo'yganlar¹”* degan badiiy haqiqatga duch kelamiz. Ushbu rivoyat nafaqat nasroniy dinida, balki bizning muqaddas islom dinimizda ham mashhur: Payg'ambarimiz etaklarida uxlab yotgan mushukni sekingina surib qo'ymaydilar-u, balki to'nlarining etagini kesib olishni ma'qul ko'radilar. O'shandan buyon bu sunnat bo'lib qolib, uxlagan kishi bekorga bezovta qilinmaydi, shuningdek, hanuzgacha erkaklar to'nining ikki cheti chokli qilib tikiladi. Ushbu ma'lumotning keltirilishi Joysning turli diniy rivoyatlardan ham yaxshigina xabardor bo'lganini va bu bilimni badiiy haqiqatga aylantira olganini ko'rsatadi. Yana bir badiiy haqiqat:

“Adam Kadmon (Odam alayhissalom) ning zavjasi va mahrami. Havvo, yalang'och Yeva. Uning kindigi yo'q edi. Nazar soling. Bag'ir, top-toza, ulkan, bahri dilni ochadi, oppoq yarqiraydi, charm iplar bilan tortilgan qalqon, yo'q, sharqning o'lmas oppoq ko'pirgan bug'doyi, abad-azal mavjud, abad-azal mavjud. Jurmning qursog'i ”.

Bu parchada Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalishiga sabab bo'lgan bug'doy voqeasiga ishora qilinadi. Momo Havo va Odam Atoning taqiqlangan meva – bug'doyni yeb, jannatdan haydalishi va yalang'och holda Yer yuziga quvilganda ularga anjir qanday qilib yordam berishi haqidagi rivoyatni Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy”sidan ham o'qiganmiz. Demak,ushbu voqeani barcha xalqlar ham boshidan kechirgan va o'ziga xos talqin qilgan.

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 8-сон, 26-бет.

Kindik masalasida ham Joys rivoyatni o`rnida esga oladi: Momo Havoning kindigi bo`lmagan, chunki u homiladan yaralmagani hammaga ma`lum. Odam Ato va Momo Havo gunoh qilganlari uchun jannatdan quvilgach, Momo Havo va uning avlodlariga farzand ko`rish va uni dunyoga keltirish chog`ida ayol boshidan kechirishi kerak bo`lgan azoblar bir umrga jazo qilib berilgan. Momo Havodan tug`ilgan keyingi avlodlarning insondan (onadan) yaralgani bois kindigi (ona va homilani bog`lab turuvchi rishta) mavjud. Yuqoridagi parchada mana shu faktga ishora qilinadi.

Muqaddas kitoblardan olingan iqtiboslar, din haqidagi fikrlar “Uliss”da talaygina. Asarda Muhammad payg`ambar, Ibrohim alayhissalom, Iso Masih, muqaddas kitoblar, duolar, Odam Ato va Momo Havo, olimlardan Ibn-Rushd kabilarning tilga olinib, ular bog`liq qaysidir hodisaning esga olinishi yana bir yuksak asarni esga soladi. Bu Dantening **“Ilohiy komediya”**sidir. “Ilohiy komediya”(A.Oripov tarjimasi)ning 4-qo`shig`ida Dante Vergiliy hamrohligida do`zaxning 1-doirasi kanorasida Iso payg`ambarga g`ayri bo`lgan qadimgi donishmandlar, shoirlarni: Gomer, Goratsiy, Ovidiy, Lukanni ko`radi. Shuningdek, Iso tomonida bo`lgan Odam Ato, Nuh, Muso, Dovud, Ibrohim, Isroil, Rohilalar ham tasvirlangan. Qadimgi yunon faylasuf allomalari qatorida Ibn Sino va Ibn Rushdlar ham zimistonda tasvir etiladi.

28-qo`shig`ida esa Dante do`zaxning 9-qopqasida odamlar orasiga nizo-nifoq solganlar qatorida Muhammad payg`ambar, Hazrat Ali kabilarni tasvirlaydi. “Uliss”da esa diniy tarixiy shaxslar nomi quyidagi o`rinlarda ham esga olinadi:

Bak Malligan, Stiven Dedal va Xeyns suhbatlashib turganlarida:

“Bak Malligan ... kuylay boshladi:

Otam kabutar edi, onam qiz bola,

Chaqqon bolakay bo`ldim, ajabmas juda.

Yusuf duradgor bilan mustlashdik tinmay,

Keyin men ketdim, xochga mixlashdi qo`ymay...

--...Nomi nima buning? Yusuf duradgormi?

--Sho`x **Iso** haqida ballada, - javob berdi Stiven¹”.

Bak Malligan cho`milib turganda Stiven maosh uchun ketayotganini aytib, ularning davrasini tark etishini bildirib, yo`lga tushmoqchi bo`lib turganda:

“Stiven ikki mis chaqani kiyim ustiga tashladi. Kiyinishadi, yechinishadi. Bak Malligan qaddini g`oz ko`tarib, qo`llarini oldiga qovushtirdi-da, ohanjamali qilib dedi:

--Yo`qsildan o`marsang, xudoga bergil. **Zardo`sht** shunday zikr qilgan²”.

Kinch (Stiven Dedal)ning ayollar haqidagi o`ylari lavhasida:

“... Xudoning jamoliga yetishni istaysizmi? Omfalos(yunoncha kindik)ingizga nazar soling. Allo. Kinch gapiryapti. Jannatni ulang. Alif, alfa, nol,nol, bir³”.

Motam marosimida:

“**Iso Masih** yuragi ko`zga tashlanadi. Hammaga ko`z-ko`zlaganday. Uni ko`krakning yonboshiga solib, qizilga bo`yash kerak edi, haqiqiy yurakka o`xshardi⁴”.

Yoki inson tomonidan qilingan birinchi gunoh Momo Havo (ayol zoti)ga tegishli ekanligiga ishora qilib, odamzod va gunoh yer yuziga chiqqanligi haqidagi Mister Dizining so`zlarida:

“– Men sizdan ko`ra baxtliroqman, - dedi u . – Biz ko`p xatoliklarga yo`l qo`ydik. **Xotin kishi orqali gunoh Yer yuziga chiqdi**. Boshqalardan ko`ra yaxshi joyi yo`q Menelayning tutqun xotini Yelena tufayli yunonlar o`n yil triyaliklar bilan jang qildilar. Xiyonatkor xotin ilk bor bizning zaminimizga begonalarni boshlab keldi, Mak-Merrouning xotinibilan zinokor O`Rurke, shahzoda Breffin, Parnellni xotin kishi xarob qildi⁵”.

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 20-бет.

² O`sha manba, 23-bet.

³ O`sha manba, 37-bet.

⁴ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 33-34-бетлар.

⁵ O`sha manba, 58-bet.

Bulardan ko`rinadiki, ikkala adib ham sharq-u g`arb falsafasi, dunyo dinlari ta`limotlaridan xabardor bo`lganlar va ikkisi ham afsona va miflarga katta qiziqish bilan qaraganlar.

“Tarix bir ulug` maqsad – Xudoning Zuhuroti sari harakat qiladi¹”, – deyiladi “Uliss”da. Bunda ham tasavvufona hamohanglik bor.

“Uliss”da yana shunday jummalarni o`qish mumkinki, hatto poeziyada ham bunday kashfiyotlar kamdan-kam uchraydi:

“U og`iz ochmay, uning tushlariga kirib kelardi, qora dafn liboslariga chulg`angan uning horg`in jussasidan shag`am va atirgul butasining hidi anqirdi, soqov sirli so`zlar (soqov so`z bo`lishi mumkinmi?!) ila u o`g`li ustiga engashardi – nam tortgan xok-turobning eshitilar-eshtilmas isi (is, hidni eshitib bo`larmikan?!) taralardi²”.

Irim-sirim, urf-odatlar haqida faktlar keltirilishi ham badiiy haqiqatni ko`rsatishga xizmat qilgan:

“U quymoqni uch bo`lakka ajratdi-da, ularni og`zi tinmay gapirgancha likobchalarda tarqatdi: - Ota, O`g`il va Muqaddas Ruh uchun!³”(Ovqatlanishdan oldin duo qilish odati).

“Allaqayda uzoqlarda eshak hangradi. Yomg`ir yogadi, shekilli⁴” .

“--...Manavi eshshak mo`rkonchini qara, qo`yib bersa ko`zimni chiqarayozdi.

U nima deydi deng:

--Qora qurum baxt keltiradi⁵”.

“Blum boshini orqasiga tashlab, yarim yumilgan qovoqlari ostidan uzoqlarga sarasof solib, u quyosh shu`lalarida yaraqlab ketgan yorqin qizg`ish saxtiyon qo`lqopni , uning keng ochiq tikilgan hoshiyalarini ko`rdi.

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 33-бет.

² О`sha manba, 12-bet.

³ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 14-бет.

⁴ О`sha manba, 54-bet.

⁵ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 9-сон, 75-бет.

Bugun men uzoqlarni ham yaxshi ko`ryapman. Balki, namgarchilikdan bo`lsa kerak¹” .

Darhaqiqat, issiqda odam ko`zini qisib, yarim yumib nazar soladi, chuni oftob ko`zini oladi. Joys shu narsani inobatga olgan. Ammo issiqda odam quyosh sababli uzoqni yaxshi ko`rolmaydi. Blum esa yaxshi ko`ryapti, chunki havo issiq va ayni damda namgarchilik bor.

“Bola qabr tepasida chambarni ikki qo`llab ushlagancha **qora** choh qa`riga indamay qarab turardi²”.

“Faqat odamgina o`lganlarni yerga ko`madi, aytgancha, chumolilar ham³”.

“Bitta begunohni aybdor deb topishdan ko`ra to`qson to`qqizta gunohkorni oqlagan ma`qul⁴”.

“... (pul) go`zallik va hukmdorlik timsollari. Cho`ntagimda g`ijimlanib turadi. Ochofatlik va ziqnalik harom qilgan timsollar⁵” .

“Uliiss” asarida otalar va bolalar munosabati muammosi **mavzu** qilib olingan. Mazkur **g`oya** barcha epizodlarni qamrab, yagona **maqsad** tomon – Stiven Dedalusning Leopold Blum bilan uzoq judolikdan keyingi uchrashuviga yo`naltiriladi. Sevgi va nafrat o`rtasida mudom ikkilanib yuruvchi Stivenning keskin fikrlari, otaga nisbatan o`g`ilning ijobiy va salbiy qarashlari tasvirlanadi:

“Men bir diniy talqinni o`qigan edim, Padar va O`g`il g`oyasi. Padar vositasida gunohlarga kaforat topishni istagan O`g`il⁶” .

“Mag`rur, qudratli anvonlar Stivenning xotirasida mis qo`ng`iroqlarning tantanavor jaranglari bilan aks-sado berardi... Fotiy va masxarabozlar to`dasi, Malligan ularning biri va Ariy ham bir umr Padar va O`g`il yagona mohiyatga egaligi ta`limotiga qarshi kurashib kelgan, Valentin ham Iso Masihning tirik jon

¹ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 8-сон, 23-бет.

² O`sha manba, 55-bet.

³ O`sha manba, 54-bet.

⁴ O`sha manba, 46-bet.

⁵ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 29-бет.

⁶ Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти, 2008 , 7-сон, 19-бет.

ekanligini inkor etgan va afrikalik makkor shakkok Sobelliy Padarning o`zi ayni choqda O`g`il ham deb nax urgan¹”.

Xullas, Joys diniy faktlarni o`z romanida badiiy haqiqatga aylantiradi va bu modern romanning yana bir xususiyatini belgilashimizda asos bo`ladi.

Tirikligidayoq klassik yozuvchi sifatida tan olingan buyuk irland adibining hayoti va ijodi, badiiy-estetik qarashlari, asarlari atrofidagi bahs-munozaralar, tadqiqotlar hamon davom etayotganligi J.Joysning XX asr adabiy hayotida chinakam fenomen sifatida namoyon bo`lganidan dalolatdir.

Yevropaning buyuk adiblari, olimlari , tanqidchilari “Uliss” haqida juda ko`p yozganlar, guvohlik berganlar. Chunonchi shulardan biri buyuk psixiatr, psixolog olim **Karl Yung** Jeyms Joysga “Uliss”dan olgan taassurotlari xususida maktub yo`llab, unga qo`shimcha tarzda esse yozib, shunday deydi:

“Sizning kitobingiz men uchun cheksiz ko`p qiyinchiliklar tug`dirdi, men uning ustida uch yildan ortiq o`yladim, shundan keyingina uning ichiga kirishga muvaffaq bo`ldim. Aytishim kerakki, siz va sizning behad ulug`vor mehnatingizga chuqur minnatdorchilik tuyg`ularini sezaman, chunki undan o`zim uchun ko`p narsalarni o`rgandim... Uning labirintlarida uzoq garang bo`lib kezib yurdim”.

Karl Yung o`zini bepoyon, boshi-keti ko`rinmas bo`shliq ichida yurganday sezganligini bayon qiladi:

“Bo`shliqni o`ziga jo etgan yetti yuz-u ellik sahifa – bu oppoq qog`oz betlari emas, aslo, aksincha, ular tig`iz va o`ta zich mag`izdor matn bilan to`ldirilgandir. Siz o`qiyverasiz, o`qiyverasiz va xuddi o`zingizni bir narsa o`qiyotgandek tasavvur qilasiz. Ba`zi vaqtlarda ayrim jumalarga duch kelib, o`zingizni havo bo`shlig`i teranliklariga qulaganday sezasiz va shu tariqa taqdirga tan berganingizdan so`ng, nihoyat, o`qishga o`rganasiz... Jeyms uslubining sira aql bovar qilmas ko`pqiyofaliligi odamga gipnozday ta`sir ko`rsatadi... Kitobxon o`quvchi og`zini ochganicha qoladi“.

¹ O`sha manba, 21-bet.

Darhaqiqat, Joysning “Uliss”ini mutolaa qilishga kirishgan va ahdida qattiq turib, kitobni oxirigacha, asarning asosiy qahramonlaridan biri Leopold Blumning xotini qo`shiqchi ayol Mollining oz emas- ko`p emas rosmi qir q sahifalik (I. G`afurov tarjimasi, “Jahon adabiyoti” jurnali, 7-son, 5-bet), asarning 750 betlik ingliz tilidagi nashrida esa 45 sahifalik bironta nuqta, bironta tinish belgisi qo`yilmagan, Turon dashtiday tekis ichki monologigacha o`qigan har bir kishida shunday hissiyotlar, fikrlar, albatta, jo`sh uradi. Dastlab tushunolmay qiynalishning oxiri hayrat bilan tugaydi. Bu, ta`bir joiz bo`lsa, prozadagi cheksiz mahorat, cheksiz kashfiyotlar vodiysining hayratlaridir. Ammo o`quvchi barmoq tishlabgina qolmaydi: endi o`ylayveradi, o`ylayveradi, o`ylayveradi... Nihoyat, o`zi ham Dublin ko`chalarida sargashta Leopold Blum yoki o`ychan, ehtirosli, Hamlet kabi fikri yoniq shoirtabiat yigit Stiven Dedal kabi doim ong oqimlarida, cheksiz hayotiy taassurotlar, hech qayerga sig`dirib bo`lmas tasavvurlar (ular yaxshimi, yomonmi, qandayligidan qat`iy nazar), sezgilar, tuyg`ular, kechinmalar oqimida yashaganligini, faqat o`ta uzuq-yuluq tuyulgan ong, xayol oqimlariga hech qachon hisob bermaganini anglab yetadi. O`shanda Joys va uning “Uliss” romani bilan muloqotda o`zi uchun tamomila yangi bir olamlarni ochayotganiga ishonch hosil qiladi kishi.

Karl Yung esse yakunida shunday so`zlarni keltiradi:

“Bu kitob doim qaydadir balanddan yoki yoningizdan o`tadi, ayni vaqtda u o`zi bilan o`zi kurashib yotadi, bir vaqtning o`zida u serkinoya, seristehzo, zaharli, takabbur, qayg`uli, umidsizlik bilan to`la va achchiqdir...” Karl Yung bu ta`rif orqali “Uliss”ning o`zi sezgan yettita xususiyatini sanaydi.

Karl Yungning 1932-yil sentabrida yozgan bu so`zlari naqadar haq ekanligiga Joysni o`qigan har bir kishi amin bo`ladi va uni o`z so`zlariday qabul qiladi.

“Uliss”ga o`xshagan kitoblar haddan tashqari kam va haddan tashqari qadrlidir. “Uliss” ba`zilar o`lgudek yomon ko`radigan, ammo eng ko`p o`shani o`ylaydigan romanlardan biridir. Uni o`qib bo`lib, yelkangizdan tog` ag`darilganday bo`ladi va kitobni yopar ekansiz, endi avvalgiday bo`la

olmasligingizni anglaysiz. O`quvchida shunday sezgi paydo bo`ladiki, endi u “Uliss”ni o`qimaydi, balki o`zi roman yozadi, xuddi muallif yozgani kabi... Joys o`quvchilarning mana shunday “o`quvchi-muallif” degan yangi naslini dunyoga keltirdi.

“Uliss”da nutqning uch shaklini: tashqi harakat ifodasi – muallif nutqini, “ong oqimi” ifodasi – ichki nutqni va personaj nutqini ajratish mumkin. Joys diqqat markazida turgan “ichki nutq” mutlaqo mustaqil, qahramon tafakkur jarayonining muallif tomonidan qog`ozga tushirilgan, til qobig`iga o`ralgan ko`rinishi xolos. Matnning qahramon “ong oqimi” tasvirlangan qismi muallif irodasiga bog`liq emas, Joys qahramonlari uning izmida fikr yuritmaydilar. Aslida bu mustaqillik shartli bo`lsa-da, asar davomida Joys imkon qadar shunga intilgani, personajlar o`y-xayollariga erkinlik berishga tirishgani sezilib turadi. Aks holda asar qimmatiga putur yetgan bo`lardi. Shuning uchun ham romandagi borliq Joys qahramonlari idrokining dunyosidir, deb aytishimiz mumkin.

“Uliss sarguzashtlari”ni tahlil qilar ekanmiz, quyidagi jihatlarga diqqat qaratishimizga to`g`ri keldi va bular asar qimmatini belgilagan asosiy xususiyatlar degan xulosaga keldik:

- asarda muallif nutqining matnga singib ketganligi;
- ichki monologning asardagi asosiy uslub sifatida talqin etilganligi;
- “ong oqimi” uslubining eng yuqori cho`qqiga chiqqanligi;
- tasviriylilik va ramziylilik (Homer “Uliss”iga ishora qilingan);
- romanda ranglar, inson a`zolari, musiqiy kompozitsiyaning uyg`unlashib ketganligi;
- diniy-ilohiy qarashlar, mumtoz an`analarning ifodalanishi;
- vaqt oqimining izchilligi;
- asar qahramonlari, aniqrog`i, personajlarning haddan tashqari ko`pligi va ularning turli zamonlarga mansubligi (boshqa mashhur asar qahramonlari, Joys yashagan davrdagi mashhur kishilar, yozuvchilar, qirollik xonadoni a`zolari, do`st-yorlari, xayoliy kishilar, to`qima obrazlar, afsonaviy qahramonlar, mifik obrazlar, tarixiy shaxslar, payg`ambarlar va hokazo);

--asar sujetining ongda kechishi va “tushunarsizlik”ni anglashning qiyinligi;

--asarda soʻz oʻyinlaridan, til imkoniyatlaridan sanʼatkorona foydalanilgani;

--noyob oʻxshatishlar, fikrlar, xulosalar, falsafiy mushohadalarning nihoyatda koʻpligi ;

--har bir epizodning oʻziga xos sanʼati, oʻziga xos qurilishi, arxitekturasi, oʻziga xos takrorlanmas mavjudligi; ajoyib-gʻaroyib sanʼatlar, badiiy kashfiyotlar (chunonchi , har bir epizodning oʻz rang-boʻyi bor) vositasida Joys oʻquvchini qahramonlarning gʻoyat murakkab hamda maftunkor ruhiy-aqli-tafakkuriy olamlari ichiga olib kirishi va hokazolar.

Xullas, “Uliss sarguzashtlari” badiiy jihatdan yuksak asar boʻlib, oʻquvchilarni oʻziga rom etaveradi. Uni oʻqir ekan, oʻquvchi oʻylayveradi, mulohaza qiladi, hatto kitobni qoʻlidan qoʻyganda ham fikr-u xayoli undagi mushohadalarda, falsafada, Joys qarashlarini anglashda boʻlaveradi. Xayolning bunday band boʻlib qolishi kitobxonning boshi tars yorilay degunga qadar olib keladi.

“Uliss sarguzashtlari”ni tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, Joys oʻzining hassos novatorlik xususiyatlari, iqtidorini “Uliss” shaklida ham, mazmunida ham toʻla-toʻkis isbot eta bilgan. Uning insoniyat aqlini tong qoldirib kelayotgan ijodi, ayniqsa, uning boqiy romani boʻlmish “Uliss sarguzashtlari” goʻzallikka oshufta dillarni abadiy munavvar etaveradi. Zero muallif oʻzi taʼkidlaganidek, asar mumtoz anʼanalarga tayanilib yaratilgan.

3.2. SHARQ VA G`ARB MODERNISTIK ROMANLARINING G`OYAVIY-BADIIY TAHLILI

Istiqlol sharofati tufayli jahon adabiyotidagi barcha izlanish va tajribalardan emin-erkin bahramand bo'la boshladik, chet ellik mashhur adiblarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etilmoqda. Bu jarayon xalqimizning ma'naviyatini umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram yurtboshimiz ham Yozuvchilar uyushmasi faoliyati samaradorligini oshirish, milliy adabiyotimizni yanada rivojlantirish yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalarida dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini ona tilimizga tarjima qilish, nashr etish, o'rganish bilan bog'liq tajriba, chet el yozuvchilari bilan aloqalarni rivojlantirish masalalariga yetarlicha ahamiyat berilmayotganligini ta'kidlab, o'z nutqlaridan birida, jumladan, shunday degan edilar: "Holbuki, biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o'z qobig'imizga o'ralashib qolmasligimiz kerak".

Darhaqiqat, jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlardan xabardor bo'lish, badiiyat olamida paydo bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlarni bilish, ularga tanqidiy yondashish, ijodiy o'rganish har bir xalq adabiyoti taraqqiyotiga naf keltirishi muqarrar. Bu borada ko'p ishlarni amalga oshirish adabiyotshunoslar va tarjimonlar zimmasidadir. Jahon adabiyotini o'rganishning dolzarb mavzulari ustida tadqiqot olib borayotgan olimlardan endilikda yanada faol bo'lishlari talab etiladi.

Shunday adabiyotshunoslardan biri, uzoq yillar g'arb modern adabiyoti va uning yirik vakili yozuvchi J.Joys ijodi bo'yicha izlangan olim Tilavoldi Jo'rayev hamda mohir tarjimon Ibrohim G'afurovning mehnatlari natijasida bugun o'zbek kitobxonlari "XX asrning birinchi eng yirik modernistik romani" deya e'tirof etilgan "Uliss" romanini o'zbek tilida o'qish imkoniga ega bo'ldilar.

Sharq bilan Gʻarb oʻrtasidagi madaniy aloqalar, oʻzaro taʼsirlar koʻp asrlik tarixga ega. Bu davomli jarayon tarixchilar, adabiyotshunoslar tomonidan koʻp oʻrganilgan. Oʻzaro taʼsirlardan adabiyot sohasi ham chetda emas, albatta. Ayrim adabiyotshunoslar tomonidan “gʻarbga xos hodisa” deya taʼriflanayotgan modern adabiyoti ham dunyo xalqlari adabiyotiga taʼsir qilmay qolmasligi shubhasiz.

Tilavoldi Joʻrayev modern adabiyotining tarixi, adabiy aloqalar, ularning milliy adabiyotga taʼsiri haqida shunday fikr yuritgan edi:

“Dunyo paydo boʻlibdiki, hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib, oʻz holicha yashagan emas. Aks holda hech qanday taraqqiyot boʻlmagan boʻlur edi. Eng qadim davrlarda ham ajdodlarimiz Misr, Bobil, Yunoniston kabi mintaqalar bilan aloqa qilganlar. Ipak yoʻlining aksar qismi mamlakatimiz hududidan oʻtgani hunarmandchilik, savdo-sotiqning keng quloch yoyishiga olib kelgan. Ajdodlarimiz ishchan va uddaburon boʻlganlarki, Vizantiya imperatorlari uzoq vaqtlarga qadar oʻzlarining diplomatik va moliya ishlariga yurtdoshlarimizni jalb etganlar. Madaniy aloqalar toʻgʻrisida gapiradigan boʻlsak, Vatanimizning uzoq oʻtmishi haqidagi asosiy maʼlumotlarni arxeologik topilmalar, Yaqin Sharq mamlakatlarida qadimda yashagan xalqlardan qolgan yozma yodgorliklar, yunonistonlik va rimlik mualliflarlar asarlaridan topamiz. Bu borada Herodot, Ktesiy, Strabon, Diodor asarlari qimmatlidir.

IX — XIV asrlarda Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat «grek-arab fani»gina emas, balki movarounnahrlik allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Forobiy, Fargʻoniy, Beruniy, Ibn Sino asarlaridan ham Gʻarbiy Ovruponi bahramand qildi. Sharq olimlari merosini tarjima etishda Ovrupo mamlakatlarida minglab tarjimonlar mehnat qildilar. Albatta, ilmiy, madaniy aloqalar hozirgi davrga kelib yangi yuksak bosqichga koʻtarildi.

«Ong oqimi» adabiy yoʻnalishi sifatida paydo boʻlgan modern adabiyoti toʻgʻrisida gapiradigan boʻlsak, uning ildizi dunyoda yaratilgan ilk rivoyat, asotir-miflarga borib bogʻlanadi. Odam alayhissalomning oʻgʻillari Hobil va

Qobilning fojiasi, ularning istig'fori, tavba-tazarrusi, iztiroblari hali-hanuz ong oqimining teran tomirlarida oqib kelmoqda.

Ong oqimiga xos murakkab jarayonni qog'ozga tushirish osondek tuyulsa-da, aslida murakkab ijodiy ish. Bu yo'nalishda yozilgan asar shakli va uslubi aksari hollarda assotsiativ sujetni talab etadi va u asosiy sujet turiga aylanadi. Assotsiativ sujet, o'z navbatida, o'ziga xos tasvir prinsiplarini talab etadi.

Ma'lumki, jahon adabiyoti XX asrning birinchi choragida ushbu yo'lni bosib o'tgan. Uch mamlakatda bir davrning o'zida, keyinchalik «modernistik» deb atalgan adabiy yo'nalishga mansub uch daho adib — Marsel Prust (Fransiya), Jeyms Joys (Irlandiya), Frans Kafka (Chexoslovakiya) dunyoga keldilar va jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirdilar. Ular dovrug'i shu qadar yuksaklikka ko'tarildiki, 1963-yili ovrupolik adiblarning bir yig'inida qilingan har bir chiqish «go'yo yagona adabiyot» — modernizm haqida bo'ldi.

Ular adabiyotda o'chmas iz qoldirish barobarida, yuzlab izdoshlarini topdilar. Jahon adabiyoti bir «selpinib» oldi. Yuzlab yangi joyschilar, yangicha ko'rinishdagi modernchilar paydo bo'ldi... Xullas, modernistik adabiyotning dunyo xalqlari adabiyotga ta'siri beqiyos. O'zlashtirish — buzish degani emas, ayni paytda, u yaxshi narsaga bebaho hissa qo'shadi. Unga taqlid deb qarash esa kulgili¹.

O'tgan asrning 80 — 90-yillarida o'zbek adabiyotida modern yo'nalishdagi jiddiy izlanishlarni Murod Muhammad Do'st, G'affor Hotamov, Olim Otaxonov asarlarida ko'rish mumkin. Albatta, ularning har biri o'ziga xos uslubga ega, ammo ularni bir umumiylik birlashtiradi. Bu umumiylik ular yaratgan qahramonlar ichki dunyosi, ruhiyati, ongi faoliyati, tafakkuri harakatining asosiy tasvir maydoniga ko'chgani, badiiy xarakter yaratish ong oqimi jarayoni asosiga qurilgani bilan izohlanadi. Bu yozuvchilar insonning

¹ Жўраев Т. Модерн бизга бегона эмас, бироқ у ягона йўналиш ҳам эмас (суҳбат). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009 йил, 29 сентябрь.

ichki mayl-istaklarini kashf etishda an'anaviy nasr yo'lidan, sinalgan usullardan foydalanmaydilar, balki sa'y-harakatni qahramonning o'z qo'lga, o'z idrokiga topshirib, o'zlari xolis pozitsiyada turadilar.

O'tgan asrning 90-yillarida adabiyotshunoslikda modern tarafdorlari, B.Ro'zimuhammad iborasi bilan aytganda, «yangi yangilik» va realizm tarafdorlari — «eski yangilik» o'rtasida ko'p munozaralar bo'lib o'tdi va bu jarayon hanuz davom etayotir. Buni, albatta, tabriklash lozim. «Yangi yangilik» tarafdorlari R.Parfi, O.Muxtor, M.Muhammad Do'st, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, A.Qutbiddin, B.Ro'zimuhammad, T.Rustamov va yana bir qator yozuvchilarni modern ijodkorlar qatoriga qo'yadilar. Balki shundaydir. Biroq bu ta'kidlar, avvalo, o'z isbotini topmog'i, buning uchun esa modernga yuzaki qaramasdan, uning tub mohiyati va ildizlari o'rganilmog'i kerak. Ya'nikim, jahon badiiy intellekti yaratib kelayotgan intellektual mulk turlari, usullari qatorida modernga ham yashashga haqli yo'nalish sifatida qarash lozim. Ko'hna va barkamol o'zbek adabiyotida modern izlari ham zohir bo'layotgan ekan, uni yangilikka intilish deb qarash kerak. Biroq endilikda adabiyot faqat shundan iborat bo'ladi, deyish mutlaqo noto'g'ri.

Demak, «adabiyotimizga modern oqimi begona emas, ayni paytda, u yagona ham emas. Modern adabiy hodisa sifatida G'arbda paydo bo'lganmi yoki Sharqda, degan masala ko'ndalang bo'ladi. Tasavvufga chuqur yondoshilsa, mutafakkir bobolarimizning ko'p asarlari manti ong oqimini eslatib turadi. Uzoqqa bormay, mavlono Rumi ijodiga e'tibor qilaylik. «Ichindagi ichindadir» asarining o'ziyoq fikrimizga dalil bo'lishi mumkin. Albatta, hozirgi zamon moderni bilan ularni tenglab bo'lmaydi¹».

O'zbek adabiyotining Amerikadagi muxlisalaridan biri , XX asr zamonaviy o'zbek adabiyoti va uning ingliz tiliga tarjimasi muammolari mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib borayotgan, xalqaro

¹ Жўраев Т. Модерн бизга бегона эмас, бироқ у ягона йўналиш ҳам эмас (сухбат). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009 йил, 29 сентябрь.

anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etib, milliy adabiyotimizni jahonga targ'ib qilayotgan olim Reychel Harrelning fikricha (Harrel xonimning "O'tish davrida o'zbek adabiy ovozlari. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani voqeasi" nomli maqolasi 2007-yil Markaziy Yevrosiyo masalalariga bag'ishlangan 8-xalqaro anjumanning madaniyat sho'basida o'qib eshittirilgan), Sharq va G'arb modernizmi o'rtasidagi "asosiy farq, albatta, jarayonda. Hozir Yevropa va Amerikada modernizm tarixiy hodisaga aylanib, o'z o'rnini ancha oldin postmodernizmga bo'shatib berdi. O'zbekistonda esa bu jarayon hali ham davom etyapti. XX asr boshlaridagi modernga xos jihatlar – o'z imzosiga ega bo'lish, turli shakllarda o'z-o'zini kashf qilish tajribasi, mavhumlikka moyillik, larzaga solish ishtiyoqining kuchliligi, kamida mavjud ta'sirchanlikka yana yangi ma'nolarni yuklash zamonaviy o'zbek adabiyotining ham eng muhim xususiyatlari ekanligi, ma'lum ma'noda G'arb modernizmiga ergashish holatlari – kuzatilsa-da, u adabiy hodisa ekanligi bilan farqlanadi.

... o'zbek modernizmi o'tmishni inkor qilish yoki undan nusxa olishga qiziqmaydi. Agar modernistlar sovet hukmronligi davridagi qat'iy chegaralarni kengaytirishni istasalar, ular buni ko'z bilan ongni qo'zg'atish va uzoqroq bo'lgan milliy o'tmishga munosabatlari orqali amalga oshiradilar. Shuningdek, o'zbek modernizmi o'z ovoziga ega bo'lsa-da, unda G'arb modernizmida mavjud bo'lgan kuchli xudbinlik hissi yo'q. Modernistlarning shaxsiy injiqliklariga qaramasdan ular o'z ovoziga, xarakteriga va o'z fikriga ega bo'layotganliklarini ularning ijodi misolida ko'rish mumkin. Aytish mumkinki, bu ovoz O'zbekiston nomidan so'zlay olish kuchiga ega"¹.

Ta'kidlash joizki, XX asr boshi falsafasida pessimizm , irratsionalizm va individualizm kabi yo'nalishlar ustunlik qila boshladi. Dunyoga yangicha qarash, har doimgidek, faylasuf va yozuvchilar zimmasiga tushdi. Bu haqda M.Xolbekov shunday deydi:

¹Mirzayeva Z. Nega dunyo o'zbek adabiyotini tanimaydi? (suhbat) – <http://vatandosh.uz>

“Mashhur faylasuf va adib, Nobel mukofoti laureati (1927) Anri Bergson (Henri Bergson, 1859-1941) yaratgan psixologik-falsafiy nazariyada inson aqlga emas, balki ichki hissiyotga tayangan holda mushohada qila bilsagina hodisalar tabiatini tushuna olishi mumkinligini asoslab berdi. Ya’ni keng ma’noda dunyoni bilish nazariyasini tushunishda va tor ma’noda badiiy ijodning o’ziga xos xususiyatlarini anglashda aql-idrok emas, balki insondagi ichki his-tuyg’u katta ahamiyat kasb etadi, degan ta’limotni ilgari surdi”¹.

XX asrning yana bir mashhur faylasufi Zigmund Freyd (Sigmund Freud, 1856-1939) esa insonda hamma narsa aql-idrokka bo’ysunavermaydi, deya ta’kidlash bilan, u inson psixologiyasi – keng ma’noda kishi ongida obyektiv voqealarning aks ettirilishidan hosil bo’ladigan ruhiy kechinmalar majmuyi bo’lsa, tor ma’noda ruhiy holatning yashirin jihatlari, ko’pchilik bilmaydigan qirralarini ochib berdi; aniqrog’i, ko’ngilning noyob sirlarini psixoanalizning universal sxemalari tiliga o’girdi, deyish mumkin. Uning hamkasbi va safdoshi Karl Gustav Yung (Carl Gustav Jung, 1875-1961) bu yo’ldan borishni davom ettirib, inson psixologiyasiga “jamoaviy ongsizlik” (ong qa’ridagi qatlam) tushunchasini kiritdi. Yung fikricha, psixika nimaningdir yoki kimningdir hosilasi emas, aksincha, u birlamchidir va inson borlig’ini aniqlab beruvchi asosiy tamoyil hisoblanadi.

XX asr adabiyoti va san’atidagi yo’nalishlarning ko’pchiligiga, xususan ekspressionizm, syurrealizm, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd teatri”ga shaxsdagi shizofreniya, ya’ni iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketishi alomatlari, tushkunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita ob’ekti tarzida xizmat qildi.

Modernizm adabiyotda real voqelikning keskin sur’atda o’zgarishi yoki o’zgartirilishiga keng yo’l ochib berdi, kezi kelganda ob’ektiv voqelikni butunlay rad etdi. Buning o’rniga u aql-idrokka asoslanmagan holda yaratilgan

¹ Xolbekov M. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini / XX asr modern adabiyoti manzaralari. – <http://kh-davron.uz>

dag'al va mantiqsiz, irratsional va noreal syujetlarga sayqal berish, ularga go'zallik, nafosat va badiiylilik bag'ishlash tamoyillariga asoslangan yangi real voqelikni kashf qildi. Modernizm san'at asarlarining qadr-qimmatini hayot bilan hech qanday aloqasi yo'q tarzda, hayotdan tashqari deb e'lon qilarkan: "San'at san'at uchun" shiori uning bayrog'iga aylandi. Bundan tashqari, modernizm tarafdorlari, mazkur uslub homiylari boshqa san'at asarlariga, birinchi navbatda an'anaviy san'at asarlariga hajviy yoki hazil tariqasida taqlid qilishga o'tdilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, jamoaviy ongsizlikka murojaat qilish, butun diqqat-e'tiborni unga qaratish modernizmning asl mohiyatini, tub mazmunini tashkil qilgan edi. Demak, o'ziga xos badiiy uslub, butun bir adabiy oqim sifatida namoyon bo'lgan modernizm o'zining maydonga kelishida eng avvalo dekadansga (real hayotdan yuz o'girish, ob'ektiv voqelikni rad qilish, ijtimoiy muammolarni qabul qilmaslik va hokazo), shuningdek, uzoq va yaqin o'tmish meros bilan uzil-kesil aloqasini uzgan, an'anaviy san'atdan yiroq bo'lgan asarlarni yaratishga da'vat etuvchi avangardizmga sajda qilishi joizdir. O'z o'rnida avangardizm G'arbiy Yevropa estetik nazariyalariga, ya'ni san'at va adabiyotdagi nafosat, go'zallik va badiiylilik tamoyillariga asoslangan dunyoqarashlar negizida paydo bo'lgan edi.

Xullas, modernizm – bu umumiy dunyoqarashga ega bo'lgan bir qator adabiyot va san'at yo'nalishlari majmuasi bo'lib, u hamma ko'nikib qolgan, an'anaviy tus olgan badiiy obrazlarning ayrim ijobiy va salbiy xislatlarini alohida ajratib ta'riflagan holda, qolgan jihatlarni parchalarga bo'lib tashladi. Masalan, san'atkorning bevosita obraz mazmuniga, uning asl mohiyatiga me'yoridan oshiq diqqat-e'tibor qaratganligi naturalizm nomini oldi; obrazning favqulodda bo'rttirib tasvirlangan holati abstraksionizm qonuniyatiga asos bo'ldi, jo'shqin va hayajonli his-tuyg'ular bilan to'yintirib ifodalanganligi esa ekspressionizmga aylandi; ortiqcha mazmundorlik va ko'p ma'nolilikning kashf qilinishi bevosita syurrealizmga taalluqli bo'lib qoldi. Modernizm tarafdorlari o'zlari yashayotgan jamiyatning ibtidoiy betartibliigi, bugungi kunning chalkash va mazmunsizligi, zamonaning o'ta tartibsizligi, kishilar ongidagi alg'ov-

dalg'ov fikr-xayollar insonning yolg'izlik his-tuyg'usi kuchayishiga, keskinlashuviga olib keldi deb hisobladilar. Sababi, tajovuzkorlik va adovat ruhi bilan sug'orilgan voqelik shaxsni yengilmaslikka, hamma vaqt g'olib chiqishiga undaydi, o'zgalar unga bas kela olmasligi, undan ustun bo'laolmasligi, unga kuchi yetmasligi bilan ojiz bo'lib qoladilar.

Modern adabiyot va san'at uslubi sifatida insonni o'rab turuvchi muhitni bezatishga, unga oro berishga harakat qildi; hayotdagi jarayonni, hatto uning arzimagan mayda-chuyda ko'rinishlarigacha tomoshabop spektakllarga aylantirishga, rang-barang bezaklaru yaltiroq zeb-ziynatlar bilan o'rab-burkab tashlashga intildi. Buning sabablaridan biri G'arb jamiyatidagi yuksak ideallar va insonning huzur-halovatsiz, bir zayldagi hayoti o'rtasidagi ziddiyatli to'qnashuvlar edi. Eng muhimi, "modern" uslubi aynan G'arb adabiyoti va san'atida paydo bo'lganligidadir. Yevropa davlatlarining aksari o'sha davrda Sharqda o'z mustamlakalariga ega edi. Ma'lum darajadagi merkantilizm, ya'ni manfaatparastlik ruhi, bitmas-tuganmas boylik to'plashga bo'lgan harakat ertami kechmi estetizmga, ya'ni san'at va badiiy ijoddagi nafosat, tabiat va turmush go'zzalliklari haqidagi falsafiy ta'limot tamoyillariga qarab o'zgarishi lozim edi va XIX asr oxiri — XX asr boshida bu holat yuz berdi. Buning natijasi o'laroq G'arb va Sharq madaniyatiga mansub an'analar "modern" uslubida o'ziga xos mushtarak ifodaviylik hosil qildi. Modern uslubiga G'arb adabiyotidan romantizm, hissiyotga beriluvchanlik, nozik tabiatlilik hamda qat'iy, mustahkam chiziqli strukturaviy asos singdirildi, Sharq san'atidan esa – bir maromdagi ifodaviylik, serhasham va bejamador naqshinkorlik, sharqona nafosat qo'shildi.

Loaqa XIX asrning oxiri va XX asr boshi Yevropa madaniyati o'zida mujassam etgan modern uslubi kitobxon tasavvurida Qadim dunyo sivilizatsiyasining tugallangan va yaxlit qiyofasidek gavdalandi, adabiy jarayon esa umummadaniy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu hodisaning asosini nafaqat badiiy asar, balki adabiy tanqid, davriy nashrlar, memuar (xotiralar, yodnomalar) va epistolyar (maktub, noma rusumidagi asarlar) adabiyot tashkil qildi, shuningdek, nashriyot va matbaa faoliyati, kitob

do'konlari ham bu an'anaga sodiq qoldi. Mazkur hodisaga mustahkam poydevor qurish, uning ilmiy-nazariy bazasini yaratish XX asr boshida amalga oshirilgandi, to'laqonli ro'yobga chiqish davri esa asrning 20-30-yillariga to'g'ri keldi. Darvoqe, har qanday adabiy jarayon – bu keng ma'noda dunyo miqyosida bir qolipdagi badiiy adabiyotning paydo bo'lishi, rivoj topishi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati – bu badiiy ijodning mavjud shakllarini o'zgartirish va yangilarini izlab topishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, har qanday san'at va tarix o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjuddir. Tarixiy jarayonlar tarixchi olimlar tomonidan qayd qilinadi: bo'lib o'tgan muhim voqea va hodisalar aniqlanadi, ularning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'sir va munosabatlari talqin qilinadi, o'tgan siyosiy va ijtimoiy kontseptsiyalar atroflicha o'rganilib chiqiladi. Ammo uzoq va yaqin o'tmishning haqqoniy qiyofasini, oddiy kishilar hayotida kechgan voqealar, tarixiy shaxslar haqidagi tasavvurlarni, boshqacha qilib aytganda – umumiy tarixiy ongni tarixchilar shakllantira olmaydilar. Bu muhim ahamiyatga molik murakkab jarayonni faqat san'at va adabiyot asarlaridagina batafsil ifodalash mumkin bo'ladi.

Demak, o'tmish va bugungi hayot haqida adabiyot va san'at asarlari ilmfandan ko'ra chuqurroq bilim beradi, ya'ni yozuvchi va san'atkor halqqa ma'rifat nurini tarqatishda olimdan kam bo'lmagan hissa qo'shadi. Eng muhimi, adabiyot va san'at namoyandalari tarixni badiiy obrazlar talqinida tasvirlovchi xalqchil asarlar yaratishadi. O'qish va ko'rish, o'qimishlilik shaxsiy hayotda muvafaqqiyatlarga erishish uchun nima foyda keltirishi-yu, nima esa zarar yetkazishi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritish manbai, ma'naviy madaniyatning asosidir. Umuman olganda, san'at, jumladan adabiyot ham inson aql-idrokiga his-tuyg'u orqali ta'sir etadi. San'at, iml-fan, ma'rifat ahllariga o'tgan va o'tayotgan voqea-hodisalarni izohlash, talqin qilish vazifasi ishonib topshirilgan. Shunday ekan, bo'lajak mualliflar o'z asarlari uchun tarixiy voqealar yoki tarixiy qahramonlarni tanlashda juda ehtiyotkor bo'lishlari lozimdir.

XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30-yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarining birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi. Jahon adabiyoti tarixida "yo'qotilgan avlod" (G.Stayn) nomini olgan bu avlod namoyandalari – Uilyam Folkner (1897–1962), Ernest Xeminguey (1899–1961), Frensis Skott Fitsjerald (1896–1940), Jon Dos Passos (1896-1970), Richard Oldington (1892–1962), Erix Mariya Remark (1898–1970), Anri Barbyus (1873–1935) va boshqalar G'arb adabiyotining keyingi ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar. Yuqorida nomi zikr etilgan yozuvchilarning aksar qismi urushda bevosita qatnashgan, uning mudhish va qonli qiyofasini o'z ko'zi bilan ko'rgan, urush azoblarini tortgan, bir so'z bilan aytganda, urush voqeligi ularga yot tushuncha emasdi. Ular yaratgan asarlarning qahramonlari oddiy, sofdil odamlar edi. Bu odamlar hayotda biron bir arzigulik narsaga da'vogarlik qilmagan, o'zlari va o'zgalar nazdida o'ta odmi, g'ofil va ojiz bandalar edi. Beso'naqay o'smir yigitchalar, g'alati va parishonxotir keksalar (U.Folkner), birinchi jahon urushida qahramonlik ko'rsatgan, tinch va osoyishta hayotda esa keraksiz buyumga aylanib qolgan kechagi soldatlar (E.R.Remark), toreadorlar, dengizchilar, jurnalistlar, mayib-majruh bo'lgan, ammo ruhan tetik, sabotmatonatli odamlar (E.Xeminguey), hamma vaqt ham omadi chopavermaydigan oltin qidiruvchilar, shahardan uzoq, ko'rimsiz va xaroba kulbalarda kun kechirishga majbur bo'lgan mustamlaka yurtlarning tub aholisi (J.London) qiyofasi tasvirlangandi. Umuman olganda, bu odamlar ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetga surib tashlangan, "erkin jamiyat ideal"lariga "xizmat qilish"ga yaramasalar-da, aslida, odamshavanda, xushfe'l va rahm-shafqatli insonlar toifasiga kirardi.

Xullas, Yevropani to's-to'polonga aylantirgan birinchi Jahon urushi, inqilobiy to'ntarishlar, vujudga kelgan siyosiy va iqtisodiy inqiroz ta'siri ostida adabiyot va san'at ahli jamiyatdan ko'ra alohida bir odamning ichki dunyosini

tasvirlashni afzal koʻrdilar. Modernizm tarafdorlari shu alfozda inson qalbini, uning qaʼrida yashirinib yotgan, sir tutilgan hissiyotlariga razm soladilar, sinchkovlik bilan oʻrganadilar. Modernizm adabiyoti peshvosi hisoblangan Marsel Prust ana shunday yozuvchi edi. Toʻrt devor iskanjasida yashagan, ogʻir dard iztirobida kechgan qiska umri davomida Prust yagona fabula, yaʼni badiiy asarda tasvirlangan voqealarning izchil zanjiri, hikoyachi va qahramon kechinmalari bilan mushtarak aks etgan “Yoʻqotilgan vaqtni axtarib” nomli turkum romanlarini yaratdi. Majmuadan oʻrin olgan: “Svan tomon sari”, “Gullagan qizlar soyasida” (1919), “Germantlar tomoni” (1921), “Sodom va Gomorra” (1922), muallif vafotidan soʻng nashr etilgan “Asira” (1924), “Qochoq qiz” (1927) va “Topilgan vaqt” (1927) romanlari adib nomini elga tanitdi. Taʼbir joiz boʻlsa, ushbu turkumni metindek mustahkam, yaxlit holdagi “ong oqimi” majmuasi deb nomlash mumkin. Epopeyaning oxiri va umrining tugab borayotgan pallasida Prust hayotni emas, balki adabiyotning afzalligini tarannum etib: “Haqiqiy hayot, yagona hayot – bu adabiyotdir”, “Obyektiv borliq emas, balki ong ustundir”, – degan xulosaga keldi. Ayni paytda u faqat sanʼat oʻz-oʻzini tushunish va dunyoni bilishning universal vositasidir, deb hisoblaydi. Agar inson umrini yashab oʻtgan boʻlsa va oxiriga kelib hayotni tushungan, anglagan boʻlsa, demak oʻzida dunyoni kashf etish va dunyoda oʻzini topish imkoniyatiga ega boʻladi.

Aslini olganda, gʻarb adabiyotida tan olingan modernizmga xos xususiyatlar sharq adabiyoti, ayniqsa, mumtoz adabiyotdagi obrazlar bilan uygʻun. Sharq mumtoz adabiyotida koʻngil asosiy obraz boʻlib, aksar asarlarda u inkishof qilinadi, koʻngil kechinmalari oʻrganiladi. Jumladan, ichki kechinmalar, yashirin tuygʻular, qalb sirlarini bayon qilish, yolgʻizlik, bevafoqlik, beparvolikdan yozgʻirish kabilar Navoiydan tortib Muqimiygacha bor.

Modernizmning mohiyati eʼtiborni insonga, uning koʻngil olamiga qaratish, insonni har jihatdan tadqiq etishdir. Lekin bu mumtoz adabiyotda va hattoki kalq ogʻzaki ijodi (ayniqsa, dostonlar)da ham bor. Navoiy, Bobur, Shekspir kabilar ijodi bunga misol boʻla oladi. Masalan, Boburning “Jonimdin

o`zga yori vafodor topmadim, .... ” g`azalidagi insonning qismat oldidagi tanholik ruhi modernizmga xos. Yoki Boburning:

“Sensiz yashamoq, ey yor, mushkuldur,

Vale sen birla ham bisyor mushkuldur” degan misralaridagi ruh modernizm adabiyoti vakili Frans Kafkaning: “Men sensiz ham, sen bilan ham yashay olmayman” degan so`zlariga aynan hamohangdir.

Modernizm da voqelik hech bir mubolag`asiz haqqoniy tarzda aks ettiriladi. Masalan, Joys asarlarida qiyinchilik davrini boshidan kechirayotgan, ijtimoiy, madaniy turg`unlikda yashayotgan, tor fikrli, yuksak orzulardan xoli, puch xayollarga berilgan kishilarning taqdiri tasvirlanganini kuzatamiz. Joys milliy ruhning haqiqiy g`alabasiga faqat Yevropa adabiyoti an`analarini o`zlashtirgandan keyin yetishish mumkin, bunga erishish esa, yangi zamonaviy san`atni yaratishga ajoyib poydevor bo`ladi, deb hisoblagan. Uning “Uliss” romani ham mazmunan kitobxon hissiyotlariga emas, balki uning intellektiga, zakovatiga qaratilgan edi. Ushbu asarni bir oz bo`lsa-da tushunish uchun, avvalo dunyodagi barcha voqealardan xabardor, jahon adabiyoti durdonalaridan voqif bo`lish kerak. Sababi, ma`naviy-ruhiy izlanishlar, ongning, hattoki ruhning faoliyati Joysga shunday buyuk asarni yaratishga imkon berdi. Joys kishi yetarli yoki umuman anglamaydigan ruhiy reaksiyalarni qanday bo`lsa, shu holicha aks ettirishni o`zining eng muhim vazifasi deb hisoblagandi. Yozuvchi murakkab aqliy, fikriy jarayonlarni asliday aks ettirish, kishi ongidan yashin chaqmog`idek o`tib ketadigan uzuq-yuluq, bir-biriga bog`lanmagan va mexanik tarzda bir-biriga ulanib, tizilib ketadigan tasavvurlar, his-tuyg`ular, fikrlar oqimini, kishi ongining turli qavatlarida joylashgan hissiyotlarini tasvirlash shakllarini izlaydi. “Ong oqimi” (stream of conscience) deb atalgan Joys uslubining asl mohiyati shundan iboratdir.

Xo`sh, Sharq modernizmi haqida yana nimalar aytish mumkin? XX asr 30-yillariga kelib sovet hokimiyati adabiyot va san`atda o`z mafkurasiga yot sinfiy elementlarni yo`q qilishga kirishdi, jumladan, adabiyot ham davlat ahamiyatiga molik siyosatga aylantirildi. 1934-yil Moskvada SSSR

yozuvchilarining I Qurultoyida shoʻro realizmi tamoyili adabiyotning asosiy badiiy metodi tarzida joriy etildi. Shundan soʻng shoʻrolar davlati sanʼat va adabiyotni oʻz nazorati ostiga oldi, oʻz amriga boʻysundirdi, mavzu va gʻoya, uslub va oqimlarni bir shaklga keltirish, muayyan qolipga solish, bir xillashtirish ustida nazorat oʻrnatdi, “shoʻro taraqqiyotining bosh yoʻli”dan chetga chiqqanlar beshafqat jazolandi. Shunday qilib, XX asr boshida adabiy jarayonda vujudga kelgan koʻtarinkilik asta-sekin bir fikrli qolipga, bir taxlitdagi uslubga solindi. Taʼkidlab oʻtish joizki, faqat Gʻarb modern adabiyotiga hamohang ijod qilgan A.Platonovning “Kotlovan”, “Chevengur” romanlari, M.Bulgakovning “Oq gvardiya”, “Usta va Margarita”, B.Pasternakning “Doktor Jivago” romanlari, V.Nabokov, I.Bunin kabi yozuvchilar asarlari XX asr jahon adabiyoti sahnasidan munosib oʻrin oldi.

XIX asr oxiri – XX asrning boshida shakllangan “jadid adabiyoti” namoyandalari Abdurauf Fitrat (1886 – 1938), Abdulla Avloniy (1878–1934), Abdulla Qodiriy (1894–1938), Abdulhamid Choʻlpon (1898–1938) kabi qalamkashlar ijodini oʻzbek adabiyotining “Kumush davri” deya taʼriflasak mubolagʻa boʻlmaydi. “Jadid adabiyoti” namoyandalari qatagʻon yillarida siyosiy tuzum qurbonlariga aynlandi. XX asrning 30–40- yillarida M.Gorkiy asos solgan “sotsrealizm” anʼanalari taʼsirida ijod olamiga qadam qoʻygan Oybek, Gʻ.Gʻulom, H.Olimjon, M.Shayxzoda, M.Ismoiliy, Shuhrat, Uygʻun, K.Yashin, U.Nosir, Mirtemir, S.Abdulla, Zulfiya kabi isteʼdodlar keyinchalik shoʻro siyosati va mafkurasini oʻzbek adabiyotiga singdirishga majbur boʻldilar. Ular jahon adabiy jarayonida kechgan modernizmning u yoki bu yoʻnalishida oʻz kuchini sinab koʻrishga ham ulgurishmadi, negaki modernizm, yuqorida taʼkidlanganidek, “sovet adabiyoti va sanʼati”da rivojlanishga imkon topa olmadi. XX asrning 80-yillarda adabiyot olamida tanilgan Rauf Parpi, Murod Muhammad Doʻst, Erkin Aʼzamov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Togʻay Murod, Xurshid Davron kabi yosh adiblar Gʻarb adabiyotidagi ilgʻor oqimlar va ular anʼanalariga yaqinlashishga ilk jurʼat etdilar. Masalan, Joys nasrida qoʻllangan uslubning ayrim xususiyatlarini oʻzbek nasrining yetakchi

namunalaridan bo'lgan "Otamdan qolgan dalalar"da ham ko'rish mumkin. "Uliss"ni o'qib turib unda Tog'ay Murodga xos bo'lgan yozuv uslubini ham sezasiz. Bu bilan modern belgilari o'zbek adabiyotida avvaldan paydo bo'la boshlagan, degan xulosaga kelish mumkin. "Uliss"da hikoya qilib turilgan voqea birdaniga uzilib, boshqa voqea tasviriga, qahramonning o'y-xayollariga ulanib ketadi. Xuddi shunday holatni Tog'ay Murod uslubida ham kuzatish mumkin: "Otamdan qolgan dalalar"da asosiy voqealarni so'zlab turib, birdaniga boshqa mavzuga, masalan, paxta yetishtirish mavzusiga o'tib ketiladi. Qahramonning xayollarga berilishi tasviri tufayli asosiy sujetning birdaniga uzilib qolish holatlarini "Yulduzlar mangu yonadi"da ham kuzatish mumkin. Joys va Tog'ay Murod sulubidagi ba'zi o'xshashliklarni quyidagi misol orqali ko'rsak:

"Blum oshxona eshigidan boqqa chiqdi; qo'shni bog'd anima gap ekan deb, quloq solib turdi. Tiq etgan tovush yo'q. Balki kirlarini dorga yoyyaptimi. Qirolicha bog'da kir yoyyapti. Go'zal tong.

Devor yoqalab o'sgan so'lg'in yalpizlarga egilib qaradi. Bu yerga ko'shk solish kerak. Turk loviyasi, yovvoyi uzum ekish kerak edi. Hammasiga go'ng, o'g'it solish kerak, tuproq kasallangan. Oltingugurt sepsa yaxsgi bo'ladi. O'g'it solmasa har qanday tuproq ishdan chiqadi. Uydan chiqqan chiqindilar. Chirindi – nima degani? Qo'shning tovuqlari bor: tovuq tezagi yer uchun eng yaxshi o'g'it. Lekin kunjara berib boqilsa, qoramol go'ngidan yaxshisi yo'q Kompost. Chirindi. Ayollarning mayin teri qo'lqoplari yaxshi tozalaydi. O'zi go'ng, lekin toza qiladi. Kul ham tozalaydi. Yerni yoppasiga yaxshilash kerak. Hov anov burchakka chitti gullar bilan salat eksa bo'ladi. Doim ko'katlar bo'lsa, qanday yaxshi. Lekin tomorqaning ham o'ziga yarasha noqulayliklari bor-da. Anov Ruh-arvohlar kunidagi asalarimidi yoki go'shtga keladigan ko'k pashshamidi?" ("Uliss sarguzashtlari", 4-voqea).

"Dehqonqul yo'l yoqalab chang-tuproqlardan ketaverdi.

... Paxtalarim chaman-chaman.

Paxtalarga vaqtida suv berilsa, chopiq qilinsa yaxshi bo'ladi.

Paxtani boshda uch marta yaxshi sug`ordim.

Barglarining kasallanishidan saqsh kerak.

Vaqtida to`g`ri o`g`it solib turilsa, paxtalarim yashnaydi.

Tuproqning hosildorligi yaxshi parvarishga bog`liq.

Ayniqsa, tabiiy o`g`itga hech narsa yetmaydi... ” (“Otamdan qolgan dalalar”).

Mustaqillik davrida kamol topgan Nazar Eshonqul, Ulug`bek Hamdam singari ijodkorlar G`arb modernizm va postmodernizm adabiyoti an`analarini o`rganib, o`z ijodida ulardan ta`sirlandilar, desak mubolag`a bo`lmasa kerak.

G`arb adabiyotidagi “ong oqimi” yo`nalishi an`analariga ergashishning birmuncha yaxshi samaralari sifatida Omon Muxtor, Xurshid Do`stmuhammad, Tilavoldi Jo`rayev, Ulug`bek Hamdam, Nazar Eshonqulovning asarlarini eslash mumkin. Ularda chet el adabiyoti namunalaridagi yangicha tasviriy unsurlar o`ziga xos tarzda jonlantirilishi oqibatida yozuvchi katta ta`sirchanlikka va inson ruhini ochishda teranlikka erishgan. Jumladan, Tilavoldi Jo`rayevning “Bozor dunyo” romanida Joysning “Uliss”idan ta`sirlanish borligi seziladi. Muallif dastavvval bozor tasvirini beradi. Tasvirda vaqt masalasida xalqona ifodadan foydalanadi: *“Bozor. Qisqa muddat tin olgan bu markaziy bozor **so`fi obdasta ko`tarmasdan** yana jonlandi”*. Xalqona ifodalardan foydalanish Joysda ham kuchli: *“boz ustiga, bu qora kostyum qora **issiqni tez yutadi, tez o`tkazadi**”, “**ikki yuzim qizarsin** deb, tuklarini yulib turgan edi”, “Qalin barglar oralab quyosh uning **donish ortilgan yelkasiga** o`z o`ynoqlagan **shu`la tangachalarini** yog`dirardi”*.

Roman orqali yozuvchining falsafiy mushohadalarini o`qish mumkin: *“Ot kimniki – minganniki, xo`rda kimniki – urganniki, losh kimniki – tortganniki, qop kimniki – surganniki... Kaltak – g`o`raniki, pul – to`raniki... Bozor degani shu: tort- tort dunyo...¹”* Bunda katta haqiqat, hayot falsafasi bor.

“Uliss”da hamfalsafiy mushohadalarni o`qiymiz: *“Tarix – bu vahshat, men undan ko`z ochmoqchi bo`laman”, “... (pul) go`zallik va hukmdorlik*

¹ Жўраев Т. Бозор дунё. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2013. – Б 12.

timsollari. Cho`ntagimda g`ijimlanib turadi. Ochofatlik va ziqnalik harom qilgan timsollar”, “Tarix quloqqa ko`p chalingan zarbulmasal, vatan esa qarz berib turadigan g`azna”, “Buqa muguzi, ot tepkisi, brit tabassumi bilan uradi” va hokazo.

Boshqa bir o`rinda T. Jo`rayev dunyo bozor haqida shunday deydi:

“Dunyo degani bozor, u sening hukmingga bo`ysunmaydi. Uning o`z qonuniyatlari, o`z ichki va tashqi ziddiyatlari mavjud, uni boshqarish, jilovlash mumkin emas. Hayot – oqar daryo, unga qoshilib oqmaslikning iloji yo`q. Hayot, bu – bozor dunyo, unda kim kimga xaridor, kim kimni aldaydi, xaridor ham, moldor ham hech kimga ma`lum emas. Unisi ham odam, bunisi ham odam. Shunaqa. Er-ku, begona tan. Ustingdagi kiyiming, cho`ntakdagi puling, taqqan tilloyu zumrad, javohiring bir zumda birovniki. O`zing ham, xesh-u aqrabong ham, mol-u davlating ham, o`tirgan uyingu ko`rpa-to`shaging ham, farzand-u a`moling ham omonat”. Asar orqali muallif bu dunyo – bozor dunyo, unda hamma narsa omonat, aybni zamondan emas, o`zingizdan izlang, demoqchi bo`ladi.

G`arb adabiyoti an`analari izidan borish ko`p hollarda ijobiy samaralar o`rniga o`ta mavhumlikka, hatto ma`nosizlikka olib kelgan holatlar ham mavjud. Masalan, kitobxon asardagi ayrim voqea-hodisalar orasida qanday bog`lanish borligini anglay olmaydi yoki o`zi mazkur narsa-hodisalar o`rtasida aloqa o`rnatolmay qiynaladi. Romanlarda ba`zan gap yoki jumlar uchrasa-da, ular, asosan, so`zlar tizmasidan iborat. Bu so`zlar tizmasiga qandaydir ma`no yuklangandir, ammo bu juda murakkab mavhumlikni keltirib chiqaradi. Tinish belgilarini tushirib qoldirishga va so`zlar tizmasiga asoslangan bunday “tasvir uslubi” o`z vaqtida g`arb adabiyotida ham mavhumlikni va ma`nosizlikni keltirib chiqaruvchi yo`nalish sifatida tanqidga uchragan. Demak, g`arb adabiyoti izidan borganda, undagi samarador an`analarga ergashish ko`proq ijobiy va mazmundor natijalarga olib keladi.

III BOB BO`YICHA XULOSA

Modernizmning eng yirik nazariyotchisi Ortega-i-Gasset san'atning xalqchilligiga qarshi chiqib: "Modernistik san'at... xalqqa begonadir, buning ustiga u xalqqa... zid ekan. Haqiqiy san'at san'atkorlar uchun, omma uchun emas..." – degan edi. Bu ijodiy qarashlar 20-asrning 2-yarmida tashkil topgan abstrakt san'at, minimalizm, absurd drama kabi postmodernizm yo`nalishlarida ham o`z aksini topdi. 1960—70-yillar san'atida paydo bo`lgan modernizmning asosiy tamoyillariga qarshi bo`lgan pop-art, kinetik san'at, giperrealizm kabi yo`nalishlarni ba'zi tadqiqotchilar modernizm tizimi nuqtayi nazaridan baholashgan.

Modernizm O`zbekistonga 20-asr boshlaridayoq kirib kelgan (A.Nyurenberg, V. Ufimsev, A. Volkov, A. Nikolayev, O`. Tansiqboyev va b. ijodida ko`rish mumkin). 1970-yillar oxiridan modernizmning ko`rinishlari ayrim o`zbekistonlik rassomlar ijodida ko`zga tashlanadi (masalan, abstrakt san'at — V.Oxunov, N. Shin; giperrealizm — A. Ikromjonov, S. Raxmetov kabilarning ijodida). O`zbek adabiyotshunoslari esa modernizmga xos ayrim unsurlar 1920—30-yillar adabiyotida ko`zga tashlanganini, bu jarayon 1990-yillarda nisbatan kuchayganini ta'kidlaydilar.

Modernizm salbiy ma'noda ijodda modaniyat ustunligi, ya'ni ijodiy uslublar mohiyati, badiiy asarlar mazmunining tez-tez o`zgarib turuvchi badiiy ehtiyoj va didlarga bo`ysunishi sifatida tushuniladi. Shu ma'noda (modaga bo`ysunadigan) modernizm haqiqiy novatorlik, yangilanish jarayoniga qarama-qarshidir.

Biroq "Uliss sarguzashtlari"ni tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, Joys o`zining hassos novatorlik xususiyatlari, iqtidorini "Uliss" shaklida ham, mazmunida ham to`la-to`kis isbot eta bilgan. Uning insoniyat aqlini tong qoldirib kelayotgan ijodi, ayniqsa, uning boqiy romani bo`lmish "Uliss sarguzashtlari" go`zallikka oshufta dillarni abadiy munavvar etaveradi. Zero muallif o`zi ta'kidlaganidek, asar mumtoz an'analarga tayanilib yaratilgan. Joys

diniy-ilohiy faktlarni o`z romanida badiiy haqiqatga aylantiradi va bu modern romanning yana bir xususiyatini belgilashimizda asos bo`ladi.

Biz g`arb va sharq modernistik asarlarini qiyoslar ekanmiz, ularda mushtaraklik, ayni chog`da tafovutlar borligini ko`ramiz. O`zbek modernistik romanlarida milliylik, milliy ruh, mentalitet, o`zbekka xos xalqona ohang ufurib tursa, g`arb modernistik romanlarida g`arbona qadriyatlar, internatsionalizm sezilib turadi, albatta. Ammo ikkisida ham ong oqimi, katta psixologizm va keng dunyoviy bilim bazasi, mumtoz an`analar – diniy va ilohiy motiv yetakchilik qilishini tahlillar dalillaydi.

UMUMIY XULOSALAR

“Modernizm” (“zamonaviy”) degan istilohning biz uchun bir qadar notanish bo‘lib kelganining sabablari, “... birinchidan, mafkuraviy xarakterga ega va sho‘ro davri adabiy siyosati bilan chambarchas bog‘liq¹”, – deb izohlaydi adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov.

Adabiyotshunos olim Muhammadjon Xolbekov “Jahon adabiyotida modern va modernizm tushunchasi” nomli maqolasida: “... modernizm – bu o‘z qonun qoidalariga, aqida va tamoyillariga ega bo‘lgan adabiy oqim, jarayon tushunchasini ifodalasa, modern – bu zamonaviy, yangicha adabiyot ma‘nosini anglatadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, modernizm XX asr G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida kechgan adabiy-nazariy jarayon, ya‘ni oqim deb tushunilsa, modern har bir milliy adabiyotda sodir bo‘luvchi zamonaviy, yangicha uslub va tamoyillarning majmuasidan iboratdir”, – deydi.

Bizningcha, modernizm bu:

- zamonlar oralig‘idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o‘rtasidagi ixtiloflarni o‘z g‘oyaviy qarashlarining bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma‘naviy qiyofasidir;

- bir-biri bilan kurash olib borgan, o‘zicha mustaqil harakat qilgan alohida modernistik uyushmalar, manifestlar, dasturlar majmuasidir;

- modernizm – bu J.Joys va G.Stayn, F.Kafka va G.Kayzer, L.Pirandello va Yu.O‘Nil, T.Mann va U.Folkner, A.Dyoblin va J.Dos Posos, B.Brext va E.Ionesko, X.L.Borxes va G.G.Markes, A.Myordok va G.Grasslarning yangicha ruhdagi matnlaridan iborat oqimdir. Ularning barchasi modernizm nuqtayi nazaridan o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamaydigan, ularning har biri alohida yondashishni, modernizmning butun tipologiyasiga, terminologik va stilistik tavsiflariga aniqlik kiritishni taqozo etadi;

¹ Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // ЎзАС. – Тошкент, 2002, 23 – 24-сон.

– modernizm – bu parallel ravishda mavjud boʻlgan matnlarning polifoniyasi (koʻpovozlilik)dir;

– modernizm – bu inson koʻnglini koʻrsatishni maqsad qilgan “qalb fotografiyasi”dir.

Shunday qilib, XX asr modernizm adabiyoti ham xuddi XIX asr romantizm adabiyoti singari madaniy maʼno doirasiga aylandi, uning ichida Gʻarb dunyosi qadriyatlari tanqidiy jihatdan tekshiruvdan oʻtkazildi.

Biz yuqorida tahlil qilgan romanlar shuni koʻrsatadiki, gʻarb adabiyotida paydo boʻlgan modernizm hodisasi oʻzbek adabiyotida toʻla-toʻkis nashʼu-namo topa olmaydi. Suvon Meli taʼkidlaganidek, sharqona islomiy maʼnaviyat, oʻzbek maʼnaviyati bunga yoʻl qoʻymaydi. Xususan, “Ffu” romanida ham modernistik tafakkur mumtoz anʼanalarga yondashuv asosida oʻquvchi eʼtiboriga havola etilgan va ushbu roman orqali sharqona qadriyatlarga yangicha tus berilganiga, asar mumtoz adabiyot namunalaridan oziqlanganiga guvoh boʻlamiz.

Omon Muxtorning “Aflotun” romanida esa obraz yaratishda ilohiy, irfoniy, maʼrifiy, mifik gʻoyalardan foydalanilgan boʻlib, ular muallif nutqi, qahramon nutqi, aforizmlar, xotiralar, sheʼrlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari koʻrinishidagi parchalarda aks etadi va asarning umumiy gʻoyasiga singdirib yuboriladi.

Va nihoyat, “Ayollar mamlakati va saltanati”da esa, asosan, mifologik qarashlar, xalqona taqiqlar, tabular, irimlar talqiniga guvoh boʻlamiz.

Umuman olganda, mumtoz adabiyot anʼanalarini, tasavvufiy qarashlar hamda mifologik motivlarni oʻzida izchil davom ettirayotgan zamonaviy oʻzbek adabiyoti, bir tomondan, adabiy anʼanalarga hurmat va eʼzoz yoʻlidan, ikkinchi tomondan esa, oʻz aqidalarini va ularning ifoda yoʻllarini yangilash yoʻlidan rivojlanib bormoqda. Buning isbotini yuqoridagi asarlar tahlili jarayonida yana bir bor koʻrib oʻtdik.

“Uliss sarguzashtlari”ni tahlil qilib esa, shunday xulosaga keldikki, Joys oʻzining hassos novatorlik xususiyatlari, iqtidorini “Uliss” shaklida ham,

mazmunida ham to`la-to`kis isbot eta bilgan. Uning insoniyat aqlini tong qoldirib kelayotgan ijodi, ayniqsa, uning boqiy romani bo`lmish “Uliss sarguzashtlari” go`zallikka oshufta dillarni abadiy munavvar etaveradi. Zero muallif o`zi ta`kidlaganidek, asar mumtoz an`analarga tayanilib yaratilgan. Joys diniy-ilohiy faktlarni o`z romanida badiiy haqiqatga aylantiradi va bu modern romanning yana bir xususiyatini belgilashimizda asos bo`ladi.

Modernizm yo`nalishining mohiyati e`tiborni insonga, uning ko`ngil olamiga qaratish, insonni har jihatdan tadqiq etishdir. Xuddi shunday yondashish mumtoz adabiyotda va hattoki xalq og`zaki ijodi (ayniqsa, dostonlar)da ham bor. Navoiy, Bobur, Pushkin, Shekspir kabilar ijodi bunga misol bo`la oladi. Shu o`rinda Boburning “Jonimdin o`zga yori vafodor topmadim, .... ” yoki “Sensiz yashamoq, ey yor, mushkuldur, Vale sen birla ham bisyor mushkuldur” g`azalidagi ruh modernizm adabiyoti vakili Frans Kafkaning: “Men sensiz ham, sen bilan ham yashay olmayman” degan so`zlariga aynan hamohangligini yana bir bor esga olishning o`zi kifoya.

Xulosa qilganda, san`atkor hech qanday “izm”lar qolipini o`ylamay, ko`nglida borini to`kib sochadi. “Izm”larni esa boshqalar, nazariyotchilar o`ylab topadi.

“... adabiyotning yagona haqiqiy “izm”i mavjud – Inson – Insonizm. Ijodkor qaysi davrda-yu qay kayfiyatda yozmasin, shundan – insondan, uning muammolaridan bahs etadi yoki nihoyasida insonga kelib taqaluvchi, insondan boshlanuvchi mavzularni yoritadi¹” .

Adabiyotshunos olim Yuriy Borev shunday degan edi:

“Yangi davr – yangi paradigmadir²...

¹ Хамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007. – Б 36.

² Боров Ю. Инсон ва инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси. // Шарқ юлдузи. – Т., 2011. – 4-сон. – Б 160.

Sharq madaniyatlari oolg`a surayotgan paradigma jamiyat hayotining ideal va maqsadlarini ko`rsatmaydi, balki donishmandlik va purtadbirlik ila uning yo`lini belgilab beradi¹”.

Olim yangi davr adabiyotini “Sharq modeli” deb ataydi. Darhaqiqat, modernism adabiyotida sharqona an`analarga guvoh bo`lamiz. Buni ishda keltirilgan asarlar tahlilida ham ko`rdik. Mumtoz adabiyotdagi kabi modern adabiyotda ham asar qahramoni yo`lovchidir, asar voqealari yo`lda kechadi. Faqat unda yo`lovchi qayerga bormoqchiligini o`zi bilmaydi, ya`ni uning yo`li, manzali va maqsadi xaos (betartib, noaniq) bo`ladi. Obrazlar esa ideal emas, modern adabiyotda yo`lovchining yo`l davomida sinovlarda toblanishi, o`zini va maqsadini anglab yetishi muhim hisoblanadi. Bu jihatdan ham Sharq mumtoz adabiyotiga o`xshaydi: Farididdin Attor va Alisher Navoiylarning Semurg` haqidagi hikoyati aynan o`zini va o`zligini anglab yetgan yo`lovchilar haqidadir.

Xullas, g`arb adabiyotida paydo bo`lgan deya tan olingan modernizm hodisasi sharq mumtoz adabiyotidan oziqlangan, uning ta`sirida o`z yo`nalishini belgilab olgan va boshqa adabiyotlarga ham ta`sir ko`rsatgan, desak, aslo adashmagan bo`lamiz. Bugungi globallashuv jarayoni natijasida esa sharq va g`arb adabiyotlaridagi mazmun va ifoda, madaniyatlar yaqinlashuvi yuzaga kelib, yangi tamoyillar maydonga chiqmoqda. Nima bo`lganda, ham o`zbek adabiyoti, ayniqsa, nasri jahon adabiyotidagi yangiliklardan o`ziga keraklisi va mosini qabul qilib, milliy adabiyotiimizga, madaniyatimizga to`g`ri kelmaydiganini chetga chiqarib, modern asarlar yaratish yo`lidan borayotganligi maqsadga muvofiqdir.

Ishdan chiqarilgan eng muhim xulosa shu bo`ldiki, diniy-axloqiy, ilohiy-irfoniy, ma`rifiy, folkloristik, mifologik, qisqasi, mumtoz adabiyotga xos mavzularga murojaat modernistik romanlarning asosiy belgilari qatoriga kiradi.

Milliy adabiyotimizda modern yo`nalishning qaror topib borayotganligi, adabiyotning zamonga mos ravishda yangilanayotganligi esa hayotiy ehtiyoj, zarurat taqazosidir, bizningcha.

¹ Боров Ю. Парадигма современной эпохи. – <http://independent-academy.net/science/library/ideal1.html>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 184 б.
2. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 32 б.
3. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
5. Инсон бахт учун туғилади (Ўзбекистон Президенти Ислам Каримовнинг ҳикматли сўзларидан). – Т.: Шарқ, 1998. – 64 б.

Ilmiy adabiyotlar:

6. Боров Ю. Инсон ва инсоният ҳаётининг олий мақсади ва маъноси. // Шарқ юлдузи. – Т., 2011. – 4-сон. – Б 160.
7. Боров Ю. Парадигма современной эпохи. – <http://independent-academy.net/science/library/ideal1.html>
8. Генис А. Қалб фотографияси. / Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б 116 – 129.
9. Ҳамдамов У. Турфа ранглар уйғунлиги. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т. – 2000 йил, 29 сентябрь.
10. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007. – 196 б.
11. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: АСН, 1991. – 184 б.
12. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998. – 160 б.
13. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоклари. – Бухоро, 2000. – 142 б.
14. Ҳайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро, 2000. – 166 б.
15. Ҳайитов Ш. Баркамол инсон тимсоли. – Т.: Фан, 2003. – 96 б.
16. Ҳайитов Ш. Жавонмардлик тариқати. – Т.: Фан, 2005. – 174 б.

17. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – 390 б.
18. Жўраев Ф. Илоҳий қалам шарҳи. // Тафаккур. – Т.: Шарқ, 2013. – 1-сон. – Б 72 – 81.
19. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Тошкент: Фан, 1994.
20. Жўраев Т. Онг оқими ва модерн. – Тошкент, 2008. – 165 б.
21. Жўраев Т. Онг оқими: модерн. – Фарғона, 2009. – 204 б.
22. Жўраев Т. Модерн бизга бегона эмас, бироқ у ягона йўналиш ҳам эмас (суҳбат). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т. – 2009 йил, 29 сентябрь.
23. Жўракулов У. Худудсиз жилва. (Илмий-адабий мақолалар) – Т.: Фан, 2006. – 204 б.
24. Камолова К. Иймон – қалб жавҳари. Тафаккур. – Т.: Шарқ, 2013. – 3-сон. – Б 119 – 120.
25. Комилов Н. Тасаввуф (Иккинчи китоб). Тавҳид асрори. – Т.: Ғ.Ғулом, 1999. – 208 б.
26. Mirzayeva Z. Nega dunyo o`zbek adabiyotini tanimaydi? (suhbat) – <http://vatandosh.uz>
27. Назаров Ў. “Ффу” романининг бадиий-фалсафий талқини. // ЎТА. – Т., 2007. – № 6.
28. Низомиддинов Н. Жанубий ва Шарқий Осиё: динлар ва таълимотлар. Биринчи мақола. // Тафаккур. – Т.: Шарқ, 2013. – 1-сон. – Б 83 – 93.
29. Низомиддинов Н. Жанубий ва Шарқий Осиё: динлар ва таълимотлар. Учинчи мақола. // Тафаккур. – Т.: Шарқ, 2013. – 3-сон. – Б 82 – 93.
30. Норматов У., Болтабоев Ҳ. Янги назарий тамойиллар. // Жаҳон адабиёти. – Т. – 2008. – 3-сон. – Б 154 – 163.
31. Норматов У. Умидбахш тамойиллар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1993, 10-сон.

32. Норматов У. Умидбахш тамойиллар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1993, 11-сон.
33. Основные характеристики модернистского романа. – <http://litguide.ru>
34. Otaboyev A. Jeyms Joys. – 4 b. – www.ziyouz.com kutubxonasi.
35. Привалова Л. Что такое модернистский роман? – <http://otvet.mail.ru>
36. Куронов С. Постмодерн оламда маъно излаб... // Тафаккур. – Т. – 2013. – № 3. – Б 64 – 67.
37. Quronov S. Ibtido va modern. – <http://kutubxona.com>
38. Куръон қиссалари (1-китоб). Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт – матбаа бирлашмаси, 2004. – 78 б.
39. Richard Ellmann. James Joyce. – N.Y.: Oxford university press, 1959.
40. Сафаров О. Фолклор – бебаҳо хазина (сайланма). – Т.: Муҳаррир, 2010. – 360 б.
41. Саримсоқов Б. Абсурд маънисизликдир. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т. – 2002 йил, 28 июнь.
42. Саидов А. Жеймс Жойснинг “Улисс”ини қандай ўқимок керак? (Ўзбек китобхониға ўн маслаҳат). // Жаҳон адабиёти. – Т. – 2011. – 1-сон. – Б 68 – 75.
43. Soliyeva Sh. Omon Muxtor ijodida Navoiy timsoli: BMI. – Farg`ona, 2013. – 58 b.
44. Сулстад Д. Норвег насри – Оврўпа модернизми. / Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б 372 – 378.
45. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Т.: Ёзувчи, 2001. – 144 б.
46. Ховардсхолм Э. Модернизм. / Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б 366 – 371.

47. Холбеков М. Ҳаёт ва рамзлар уйғунлиги (Жеймс Жойс ҳаёти ва ижод тамойилларига бир назар). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2011 йил, 8 апрель.
48. Холбеков М. Постмодернизм тамойиллари. // Тафаккур. – Т.: Шарқ, 2013. – 1-сон. – Б 60 – 65.
49. Xolbekov M. Jahon adabiyotida modern va modernizm tushunchasi / XX asr modern adabiyoti manzaralari. – <http://kh-davron.uz>
50. Xolbekov M. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini / XX asr modern adabiyoti manzaralari. – <http://kh-davron.uz>
51. Ёўлдошев Қ. Ўзбек модерн адабиёти: илдизлар, принциплар ва хусусиятлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2004, 2-сон.
52. Ёўлдошев Қ. Ўзбек модерн адабиёти: илдизлар, принциплар ва хусусиятлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2004, 3-сон.
53. Шарафиддинов О. Модернизм жўн ҳодиса эмас // ЎзАС. – Тошкент, 2002, 23 – 24-сон.
54. Shoaliyeva N.K. Suhrob Sipehriy ijodida ilohiy va insoniy g`oyalarning badiiy talqini: filolog. fanlari n-di ... aftoreferati. – Т., 2008. – 14 б. – <http://tashgiv.uz>
55. www.jad.uz materillari.

Badiiy adabiyotlar:

56. Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомий ас-саҳих (Ишонарли тўплам). – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1997. – 432 б.
57. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as-sahih (1-jild). – Т.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 403 b. - www.ziyouz.com kutubxonasi.
58. Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти. – Т. – 2008 . – 7-сон. – Б 3 – 48.
59. Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси). // Жаҳон адабиёти. – Т. – 2008 . – 8-сон. – Б 7 – 59.

60. Жойс Ж. Улисс саргузаштлари (Русчадан Иброҳим Ғафуров таржимаси) // Жаҳон адабиёти. – Т. – 2008 . – 9-сон. – Б 69 – 128.
61. Joys J. Musavvirning yoshlikdagi shamoili. – 148 bet – www.ziyouz.com kutubxonasi.
62. Joyce J. Ulysses. – England, 1992. – 750 p.
63. Жўраев Т. Бозор дунё. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2013. – 438 б.
64. Мухтор О. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 192 б.
65. Мухтор О. Аёллар мамлакати ва салтанати: Романлар ва хикоялар. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 240 б.
66. Navoiy Alisher. Sabbayi sayyor. – Toshkent: O`qituvchi, 2009. – 148 b.
67. Qur'oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi. – www.ziyouz.com kutubxonasi, 2007.
68. Рабғузий Н.Б. Қисаси Рабғузий. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
69. Rabg`uziy N. Qissasi Rabg`uziy. - www.ziyouz.com kutubxonasi.
70. Хос Ҳожиб Ю. Қутадғу билиг. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 192 б.

О`quv-metodik adabiyotlar:

71. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 364 б.
72. Каримов Н. ва б. XX аср ўзбек адабиёти тарихи (Олий ўқув юртлари учун дарслик). – Т.: Ўқитувчи, 1999.
73. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yo`ldoshev Q. Adabiyot (Darslik). – Toshkent: O`qituvchi, 2004. – 284 b.
74. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2012. – 396 б.
75. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – <http://www.quronov.narod.ru>

76. Сулаймонов Ш., Тўхсанов К. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 2009. – 160 б.
77. То`райев У. , Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – Т.: Toshent Islom universiteti, 2002. – 176 б.
78. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma (Tuzuvchilar: Qo`chqorov R. va b.). – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. – 48 б.
79. Yo`ldoshev Q., Qodirov V., Yo`ldoshbekov J. Adabiyot (Darslik). – Toshkent: Yangiyo`l Poligraph Service, 2006. – 400 б.
80. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002.
81. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004.
82. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
83. <http://www.ziyouz.com> materiallari.

